

01.
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR
AKADEMIYASI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**A.NURMONOV, H.USMONOVA,
D.BOBOXONOVA**

**TILNI SISTEMA SIFATIDA
O'RGANISH**

Namangan – 2011

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

A.NURMONOV, H.USMONOVA,

D.BOBOXONOVA

**TILNI SISTEMA SIFATIDA
O'RGANISH**

Namangan - 2011

BSH.:

Taqrizchilar:

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent **O. Tojiyev**

Filologiya fanlari nomzodi **Sh. Abdurahmonov**

Ushbu o`quv-uslubiy qo`llanma oliy o`quv yurtlari filologiya fakul'teti talabalariga sistema haqida, tilning sistemaliligi, uning belgilar sistemasi ekanligi, til sistemasining ko`p bosqichli tuzilishi, tilning sathlari, sath birliklarining o`zaro munosabati va uning tuzilishi kabi masalalar haqida atroflicha ilmiy ma`lumot berish uchun mo`ljallangan.

Ushbu ilmiy-uslubiy qo`llanma NamDU o`quv-uslubiy kengashining 2011-yil 21-apreldagi 8-sonli yig`ilishi bayonnomasi bilan tasdiqlangan.



SO`Z BOSHI

O`zbek tilshunosligi so`nggi davrlarda katta yutuqlarni qo`lga kiritdi. Tilshunoslik nazariyasiga bag`ishlangan bir qator asarlar maydonga keldi. Bu asarlarda o`zbek tili tuzilishini sistemaviy tadqiq qilish muammolari, tilda umumiylik-xususiylik dialektikasini namoyon bo`lishi, til va nutq dialektikasi, til tuzilishining darajali xususiyati, til sathlari va sathlararo munosabat kabi masalalar ma`lum darajada yoritildi.

O`zbek tilshunosligining qo`lga kiritgan bunday yutuqlari bilan oliy o`quv yurtlari filologiya fakul`teti talabalarini tanishtirish ularda ilmiy dunyoqarashni, mavjud adabiyotlarga tanqidiy va ijodiy yondasha olish ko`nikmasini shakllantirishda, o`quv dasturi asosida olgan bilimlarini chuqurlashtirishda katta ahamiyatga ega.

O`quv rejasiga muvofiq, III kursdan boshlab bir necha maxsus kurslar o`tish rejalashtirilgan. Tanlangan maxsus meteriallari o`quv dasturi asosida o`tiladigan materiallarning oddiy takrori bo`lib qolmasligi, o`zbek tilshunosligining bugungi yutuqlarining talabalarga etkaza olishi lozim.

Talabalar odatdagi darslarda til sistemasi, til sathi, paradigmatic, sintakmatik munosabat, tilning belgili tabiati, lingvistik belgi, belgi tuzilishi kabi atamalarni eshitayotgan bo`lsalar ham, lekin sistema nima? Til sathi nima? Kabi bir qator savollar bilan talabani batafsil tanishtiruvchi maxsus bir asar mavjud emas. Ana shuni hisobga olgan holda "O`zbek tilini sistema sifatida o`rganish" nomli maxsus kursning birinchi qismini talabalarga havola etdik.

Unda talabalar sistema haqida, tilning sistemaliligi, uning belgilar sistemasi ekanligi, til sistemasining ko`p bosqichli tuzilishi, til sathlari, sath birliklarining o`zaro munosabati va sathlararo munosabati lingvistik belgi va uning tuzilishi kabi masalalar haqida ma`lum darajada ma`lumot oladilar. SHuningdek, o`zbek tilining fonologik sathi va o`zbek tili morfonologiyasi haqida qisqacha fikr yuritiladi.

O`zbek tilining qolgan sathlarida sistemalilik haqida ishimizning keyingi qismida ma`lumot bermoqchimiz.

Asar haqidagi har qanday fikr mulohazalarni mualliflar mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

TILNING SISTEMA EKANLIGI

"Hozirg zamon fani va tajribasi to'la shohidlik beryaptiki, -deydi V. G. Afanasyev, - bizni qurshab turgan muhit (bu ham moddiy, ham ma'naviy) o'zaro ajralgan alohida -alohida predmet, hodisa, jarayonlardan tashkil topgan emas, balki o'zaro bog'langan ob'ektlar yig'indisidan tashkil topgan bo'lib, bir butun, sistem tuzilmaning ma'lum bir turidir". SHuning uchun ham muallif hozirgi zamon filosofiyasi, jamiyatshunosligi va tabiatshunosligi oldida har bir sistema birliklarini o'z ichida va bu sistemani boshqa sistemalar bilan munosabatda o'rganish, sistema mohiyatini, uning turli xil ko'rinishlarini ochish, tasniflash, farqli va umumiy tomonlarini qidirish, uping tashqi muhit bilan munosabatini belgilash kabi muhim vazifa turganligini ko'rsatadi. Bu vazifalar lingvistikaga ham taalluqlidir. Shu tufayli hozir tilning sistemaliligi haqidagi nazariya qat'iy o'rin oldi.

Umumiy sistema tushunchasi ma'lum ob'ektlarning birlashuvi va bu ob'ektlarning o'zaro munosabatini o'z ichiga oladi. Sistema ichiga kirgan ob'ekt shu sistemaning elementi hisoblanadi.

Sistem yondashish o'zining uzoq tarixiga ega. Qur'oni Karimda, Ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug'bek asarlarida olamga sistemaviy yondashish elementlari mavjud. O'tgan asrning yarmida yaratilgan eng yirik konkret ilmiy asarlar o'zining mazmuniga ko'ra sistem tarzda bo'lgan. Qozon tilshunoslik maktabi vakillari I. Boduen de Kurtene, N. V. Krushevskiy, V. A. Boyuroditskiylar o'tgan asrning 70- yillarida tilning sistema ekanligini bayon qildilar. XX asr yarmidan boshlab mashhur avstriya biolog L. Bertalanfi tashabbusi bilan bu masalaning metodologik aspekti izchil o'rganila boshlandi. Hozirgi kunda sistema muammosi faqat metodologik ahamiyatgagina emas, balki dialektikaning bir qirrasini sifatida

katta amaliy ahamiyatga ham molikdir.

Shu vaqtga qadar ilmiy adabiyotlarda sistemaning qirqa yaqin ta'rifi mavjuddir. Jumladan, L. Bertalanfi fikricha, o'zaro munosabatda bo'lgan elementlar kompleksi sistemadir. V. M. Solntsev esa "Sistema o'zaro munosabatda bo'lgan elementlardan tashkil topgan bir butun ob'ektidir". - deydi. Sistemaning mavjud hamma talqinlaridan quyidagi asosiy belgilar: 1) bir butun ob'ekt; 2) bir butun ob'ekt elementlari; 3) elementlar o'rtasidagi munosabatlar aks etadi.

Lekin amaliyot ko'rsatadiki, har qanday o'zaro munosabatda bo'lgan elementlardan tashkil topgan bir butunlik sistemani tashkil qilavermaydi. Sistemani tashkil qiluvchi bir butunlik o'zaro munosabatda bo'lgan elementlarning oddiy yig'indisi emas. Bir butunlik uning elementlarida mavjud bo'lmagan yangi sifatga ham ega bo'ladi, Masalan, suv molekulari vodorod va kislorod atomlaridan tashkil topadi. Ammo bir butunlik sifatida tarkibiy elementlardan farq qilishdan tashqari, ular qarama-qarshi xususiyatga ham egadir.

Bir butun sistema uni tashkil etgan komponentlarga aktiv ta'sir qiladi, o'z tabiatiga mos holda ularni qayta shakllantiradi. Natijada komponentlar ma'lum o'zgarishlarga uchraydi. Bir butun sistemaga kirgunga qadar bo'lgan ayrim xususiyatlarini yo'qotadi, ba'zi xususiyatlari esa aktuallashadt, ayrim yangi xususiyatlarga ega bo'ladi.

Masalan, atom yadrosi neytron va protonlardan hosil bo'lgan. Ammo bu elementlar bir butun tarkibida yangi sifatga ega bo'ladi. Xususan, erkin neytron beqaror bo'lib nisbatan qisqa yashaydi. Atom yadrosi tarkibida esa u barqaror xususiyat kasb etadi.

Tabiat va jamiyatdagi sistemani tashkil etuvchi elementlar xususiyati va element bilan bir butun o'rtasidagi munosabat xarakterini

hisobga olib, sistema o'zaro munosabatda bo'lgan, shartlangan elementlardan tashkil topuvchi integral xususiyatga ega bo'lgan bir butunlikdir, deyish mumkin. Sistemani tashkil etgan elementlar xususiyatiga ko'ra, ikki asosiy sistema turi mavjud: moddiy sistema va ideal sistema.

O'zaro ma'lum munosabatda bo'lgan moddiy elementlardan tashkil topgan sistema moddiy sistema hisoblanadi. Moddiy sistema o'zining xususiyatiga ko'ra cheksiz xilma-xildir. Chunki bu sistemani tashkil etgan elementlar hamda elementlar o'rtasida mavjud bo'lgan aloqa va munosabatlar turli-tumandir. Moddiy sistemaga bir necha elementlardan (molekulalardan) va bu elementlarning o'zaro munosabati (molekulyar aloqasi) dan tashkil topgan tashkili, o'zaro munosabatda bo'lgan va o'zaro shartlangan qismlar (elementlar) birligidan tashkil topgan har qanday binoni, har qanday jonli organizmni misol qilib keltirish mumkin.

Sistemani tashkil etgan moddiy elementlar yig'indisi shu sistemani moddiy substansiyasini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda moddiy sistema substansiyasi shu sistemaning elementlari orqali ifodalanadi. SHuning uchun ham moddiy sistema elementlari haqida gapirganda, ma'lum darajada uning substansiyasini yoki substansiya haqida gapirganda, ma'lum darajada uning elementlarini ko'zda tutish mumkin. Moddiy sistemada bu sistemani tashkil etgan elementlar o'zlarining fizik, substansional xususiyatlari evaziga sistema uchun qimmatga ega bo'ladi. Bunday moddiy sistema birlamchi moddiy sistema hisoblanadi. Ular insonning individual yoki ijtimoiy ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'ladi.

Moddiy sistemadan farqli ravishda ideal sistema shunday sistemaki, uning elementlari o'zaro ma'lum munosabatlar bilan bog'langan

ideal ob'ektlardir. Masalan, ma'lum fandagi tushunchalar sistemasi ideal sistemani tashkil etadi. Ideal sistema moddiy sistemadan farqli ravishda mustaqil, inson faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'la olmaydi. U tashqi olamning aks etish formasi bo'lib, doimo inson faoliyati tufayli, aniqrog'i, inson tafakkur faoliyati tufayligina maydonga keladi.

SHunday qilib, ideal sistema biron moddiy substantsiyadan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Ideal sistema moddiy substantsiyada mujassamlanadi. Ideal sistemani yaratuvchi moddiy substantsiya murakkab birlamchi moddiy sistemani - inson ongini o'zida aks ettiradi.

Tarkibidagi moddiy elementlari o'zining substantsional xususiyatlari tufayligina emas, balki ularga yuklatilgan (qo'shilgan) xususiyatlari tufayli sistema uchun qimmatli bo'lgan moddiy sistema ikkilamchi moddiy sistema hisoblanadi. Ular faqat inson faoliyati tufayligina semantik axborot (g'oyalar yoki tushunchalar sistemasi) ifodalash vositasi sifatida va ayni vaqtda, insonning aloqa vositasi sifatida vujudga keladi. Bunday sistemalar belgili yoki semiotik sistemalar hisoblanadi. Til ham belgili sistemalar sirasiga kiradi. XX asning boshida esa tilning sistema ekanligi, uning sistema sifatida xarakterli xususiyati atroflicha ochib berildi. R. A. Budagovning ta'kiddashicha, XX asrda tilning sistem xarakterining joriy qilinishi lingvistika oldida yangidan-yangi istiqbol ochdi.

Yuqorida bayon qilingan sistema haqidagi fikrlar til sistemasiga ham taalluqlidir. Masalan, so'z bir butun sifatida o'zaro munosabatda bo'lgan bir necha elementlar (morfemalar yoki tovushlar) birligidan; gap bir butun sifatida o'zaro munosabatda bo'lgan bir necha elementlar (so'zformalar) birligidan iborat va boshqalar. Bu elementlar bu butun ichida butunga kirgunga qadar shu elementga xos bo'lmagan yangi sifatga

ham ega bo'lishi mumkin. SHuning uchun ham e. Benvenist gap haqida gapirar ekan, shunday deydi: "Gap so'zlar vositasida reallashadi. Ammo so'z gapning oddiy bir bo'lagi emas. Gap-bu o'zining qismlari yig'indisidan kelib chiqmaydigan bir butunlikdir".

So'z-gap komponenti, unda butun gap mazmunining bir qismi aks etadi. Ammo so'z - gap tarkibida unga kirgunga qadar bo'lgan mustaqil birlik (virtual birlik) sifatidagi ma'nosi bilan qatnashishi shart emas.

Til elementlari o'zaro turli xil: paradigmatic (assotsiativ), sintagmatik (elementlarning aktual munosabati), darajali (o'zidan murakkabroq birlikka kirish munosabati) munosabatda bo'ladi.

Paradigmatik va sintagmatik munosabatlar tushunchalari F. de Sossyur nomi bilan bog'liqdir. U til elementlari o'rtasida ikki xil munosabat borligini ko'rsatdi. Bir tomondan element nutq tarkibida bir-biri bilan bog'lanib, o'zaro tilning silsila (ketma-ket) xarakteriga asoslangan munosabatga kirishadi. Bu elementlar nutq oqimida ketma-ket joylashadi. Uning fikricha, ma'lum cho'ziqlikka ega bo'lgan bunday bog'lanish sintagma, sintagma elementlari o'rtasidagi munosabat sintagmatik munosabat hisoblanadi.

Ikkinchi tomondan, nutq jarayonidan tashqarida ma'lum bir umumiylikka ega bo'lgan elementlar individ ongida shunday assotsialashadiki, o'z ichida o'zaro turli munosabatda bo'lgan guruh hosil bo'ladi. Ular cho'ziqlikka ega bo'lmay, individ ongida joylashadi. Bunday munosabat assotsiativ munosabat (paradigmatik munosabat) sanaladi.

SHu bilap birga elementlar oddiydan murakkabga qarab darajali joylashgandir. Turlicha murakkablikdagi birliklar munosabati darajalilikni ta'min etadi: uncha murakkab bo'lmagan elementlar murakkabroq elementlar sostaviga uning bir qismi sifatida kiradi. Har bir uncha

murakkab bo'lmagan birlik murakkabroq birlikning chegara elementi sifatida potentsial qo'llanilishi mumkin. Darajali munosabat bu doimo murakkablik darajasiga ko'ra munosabatdir. Masalan, og'izning ochilish darajasiga ko'ra farqlanuvchi unlilar: i, o', o, a; harorat darajasini bildiruvchi so'zlar: sovuq, iliq, issiq kabi. Murakkablik darajasi nuqtai nazardap bir xil birliklar bir sinfga yoki bir paradigмага birlashadilar. Bir sinfn ing (paradigmaning) o'zidan murakkabroq sinfga (paradigмага) munosabati ham darajani munosabatni tashkil etadi. Masalan, morfema va so'z o'rtasidagi munosabat darajali munosabat hisoblansa, morfemalar ust sinfi yoki ust paradigmasini hosil qilgan barcha morfemalar bilan so'zlar sinfi yoki paradigmasini hosil qiluvchi so'zlar o'rtasidagi munosabat ham darajali munosabat hisoblanadi.

Elementlarning bunday munosabati silsilali sintagmatik munosabatdan tubdan farq qiladi, Murakkablik darajasi jihatidan bir xil bo'lmagan elementlar hech qachon sintagmatik munosabatga kirisha olmaydi. Masalan, morfema so'z bilan sintagmatik munosabatda bo'la olmaydi, Ularning munosabati darajalidir. Morfema ikkinchi morfema bilan so'z ichida sintagmatik munosabatga kirishishi mumkin.

Katta paradigma murakkablik darajasi nuqtai nazaridan bir xil birliklar yig'indisidan iboratdir. Bunday bir xil birliklar yig'indisi yoki katta paradigma tilshunoslikda til sistemasi sathi hisoblanadi.

Sath tushunchasi deskriptiv lingvistika tarafdorlari tomonidan kiritilgan bo'lib, hozirga kunda, garchi o'zining aniq ta'rifiga ega bo'lmasa ham, tilshunoslikda keng o'rin oldi. Sath tushunchasi til antologiyasiga va tilni tavsiflash va sistemalash usuliga nisbatan qo'llaniladi. Til antologiyasi nuqtai nazaridan til sathi ayrim birliklar yig'indisi mavjudligi bilan belgilanadi. Bunga ko'ra, ma'lum til birligi borligining tan olinishi, unga

mos keladigan til sathining ham ajratilishiga asos bo`ladi.

Masalan, fonema til birligi sifatida mavjudligi uchun fonologik sath ajratiladi: leksema til birligi sifatida borligi uchun leksik sath ajratiladi va boshqalar.

Sath tushunchasining lingvistik birliklar bilan aloqasi shubhasiz. SHunday bo`lishiga qaramay, faqat lingvistik birliklarga tayanib sath belgilash ko`pincha kutilgan natijani bermaydi.

"Sath tushunchasini birlikning shunday belgisi bilan bog`lash kerakki, -deydi V. M. Solntsev, -bu belgi barqaror sathlarni ajratishga va bu sathlarning boshqa sathlarga nisbatan o`rmini belgilashga imkon bersin. Xuddi shunday xususiyat birliklarning darajali xususiyati hisoblanadi.

Deskriptiv lingvistika oqimiga va ko`pgina boshqa tilshunoslik maktabiga oid tilshunoslar ishlarida xuddi shu belgi sath tushunchasini aniqlashda tayanch bo`ladi. SHunday qilib, til sathi deganda o`zaro darajali munosabatda emas, balki boshqa o`zidan kattaroq yoki o`zidan kichikroq birliklar bilan darajali munosabatda bo`lgan nisbiy bir xil birliklar yig`indisi tushuniladi. Bunday birliklar yig`indisi bir xil birliklarga nisbatan ustparadigma hosil qiladi (masalan, ma`lum tilning hamma fonemalari, hamma morfemalari, hamma so`zlari va boshqalar). Sath yoki ustparadigmani hosil qiluvchi birliklar bir biriga nisbatan paradigmatic va sintagmatik munosabatda bo`ladi: ular ma`lum sinflarga yoki paradigmalarga guruhlanadi (masalan, fonemaning turli sinflari, morfemaning turli sinflari, so`zning turli sinflari (hamda o`zaro ketma-ket sintagmatik)zanjir bo`lib bog`lanadilar (masalan, fonemalar zanjiri, morfemalar zanjiri, so`zlar zanjiri). Turli sath birliklari esa o`zaro paradigmatic munosabatga ham, sintagmatik munosabatga ham kirishmaydi.

Demak, turli sathga oid birliklar faqat darajali munosabatda bo`ladi. Bu munosabatni ". . . dan tashkil topadi", ". . . ga kiradi" deb ko`rsatish mumkin.

Ustparadigma yoki katta sinf sifatida ajratilgan sath boshqa hech qanday yirikroq sinfni tashkil qilmaydi. Birliklar o`rtasida darajali munosabatning mavjudligi ular o`rtasida paradigmatic yoki sintagmatic munosabatning bo`lishini istisno qiladi. Birliklar o`rtasida paradigmatic yoki sintagmatic munosabatning bo`lishi esa ularning bir sathga mansubligidan guvohlik beradi. Til sathi ustparadigma sifatida bir necha kichik paradigmalardan tashkil topishi mumkin. Demak ma`lum birliklar yig`indisining paradigmatic xususiyatlarining "tugashi" natijasi sath deb qaralishi mumkin. Sath birliklar yig`indisi va aloqa tugunlari (struktura)ga ega umumiy nisbiy avtonom sistemadir. Sathni til umumiy sistemasining kichik sistemasi deb belgilash mumkin. Sath kichik sistemasi til umumiy sistemasining qismi hisoblanadi.

Yuqori sath birliklari quyi sath birliklariga nisbatan murakkabroq shakllanishga ega. Bu murakkab shakllanish sistemani hosil qilib, quyi sath birliklari unda element sifatida qatnashadi. Jumladan, gap sistema bo`lib, uning elementlari so`tlardir: so`z sistema bo`lib, uning elementlari fonemalardir. elementlardan tashkil topgan sistema doimo yangi sifatga ham ega bo`ladi: morfema tarkibidagi fonema o`z tarkibidagi fonemalarga nisbatan boshqa sifatga ega (fonema ma`noga ega emas, morfema ega): so`z tarkibidagi morfemalarga nisbatan boshqa sifatga ega: gap tarkibidagi so`zlarga nisbatan boshqa sifatga ega (predikativlik, kommunikativlik).

Shunday qilib, bir sathga mansub nisbiy bir xil elementlar, bir tomondan, o`z sathi doirasida turli sinflarni (paradigmalarni) hosil qilib: o`zlarining paradigmatic xususiyatlarini ishga solsa, boshqa tomondan,

o'zaro ketma-ket bog'lanib, o'zlarining sintagmatik xususiyatlarini reallashtiradi. Sath elementlarining sintagmatik kombinatsiyalari boshqa sathning birliga hisoblanadigan ayrim sistemalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

SAVOLLAR VA TOLSHIRIQLAR

- 1. Sistema nima?**
- 2. Til nima uchun sistema deb ataladi?**
- 3. Til elementlarining muposabatlari qanday?**
- 4. Paradigmatik munosabat deganda nimani tushunamiz?**
- 5. Sintagmatik munosabat deganda nimani tushunasiz?**

ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. Tilshunoslikka kirish (ma'ruzalar matni), - Toshkent: «Universitet», 1999, 1-2-qismlar.
2. Aliyev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan-Toshkent: «O'zbekiston»,1994.
3. Begmatov E. O'zbek adabiy tilining mustaqillik davri rivojiga doir. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. 2006 yil. 1-son.
4. Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, "Talqin", 2005 yil. 272 bet.
5. Mirzaqulov M. Grammatika o'qitishning lingvistik asoslari. - Toshkent: «O'qituvchi» 1994.
6. O'zbek filologiyasining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy nazariy anjumani materiallari. Namangan. 2006 yil.
7. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent, 2005 yil.

8. Sobirova M. O'zbek tili fani o'qitilishining dolzarb masalalari. Til va yarjima muammolari. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Toshkent, "Fan" nashriyoti. 2007 yil XXI asrda o'zbek tili ta'limi masalalari.
9. O'zbek tili doimiy anjumani 9-yig'ini materiallari. Toshkent, O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007 yil.
10. Zamonaviy tilshunoslik va xorijiy tillar o'qitishning dolzarb masalalari. Xalqaro konferensiya materiallari. Toshkent. O'zDJTU, 2008 yil.
11. Afanasyev V. G. Sistemnosti obshestvo, M., 1980;
12. Benvenist E. Urovni lingvistichskogo analiza. - V kn.: Obshaya lingvistika. M., 1974;
13. Katsnelson S. D. O ponyatii urovnya v sovremennom yazikoznanii "Tezisi dokladov na diskussii o probleme sistemnosti v yazike". L., 1962;
14. Katsnelson S. D. O teorii lingvisticheskix urovney, / Sb. Voprosi obshego yazikoznaniya", M., 1964;
15. Mel'nikov G.P. Sistemnaya lingvistika i ee otnoshenie k strukturnoy, - Sb.: «Problemi yazikoznaniya» (Dokladi i soobsheniya sovetskix uchenix na X Mejdunarodnom kongresse lingvistov). M., 1967;
16. Nurmanov A. N. Problemi sistemnogo issledovaniya sintaksisa uzbekskogo yazika. Tashkent, 1982;
17. Solntsev V. M. Yazik kak sistemno-strukturnoe obrazovanie. M., 1071;
18. Sossyur F. Kurs obhey lingvistiki. - V kn.: Trudi po obshemu yazikoznaniyu, M., 1977;

19. Stepanov Yu. S. Metodi i printsipi sovremennoy lingvistiki. M., 1975;
20. Sistemno`y analiz i nauchnoe znanie. M., 1978;
21. Tyuxtin V.S. Sistemno-strukturno`y podxod i spetsifika filosofskogo znaniya. Voprosi filosofii, 1968. № 11.

Tilning belgilar sistemasi ekanligi

Til kishilar o`rtasidagi eng muhim aloqa vositasidir. U ob`ektiv borliqdagi ma`lum voqea-hodisa haqida axborot tashuvchi asosiy vositadir. Bundan axborot tashishning boshqa yo`llari ham borligi ma`lum bo`ladi. Masalan yo`l harakatidan ma`lumot beruvchi vositalar, yo`ldan o`tish-o`tmaslik xabarini beruvchi vositalar va boshqalar. Bu jihatdan til ham axborot berish uchun xizmat qiladigan yuqoridagi vositalar sirasida turadi. Ularning hammasi uchun umumiy narsa, avvalo, o`zi haqida va shu bilan birga borliqdagi ma`lum narsa-hodisalar haqida ma`lumot berishdir. Bunday vositalar belgilar deb nomlanadi. Inson o`zini qurshab turgan olamni bilish jarayonida olam unsurlarini obrazlar orqali ongida aks ettiradi va bu ongda aks etgan olam unsurlari belgi orqali ifodalanadi. Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi.

Tilning belgilar sistemasi ekanliga uning asosiy xususiyati va universal tomonidir.

XIX asr oxiriga qadar belgi nazariyasi bilan asosan faylasuflar shug`ullandilar. Faqat XIX asr oxiridan boshlab bu masala ruxshunoslarning ham diqqatini jalb qildi. Belgi haqidagi falsafiy nazariya o`zining uzoq tarixiga ega.

Qadimgi ellinlar narsaning mohiyati va ularning nomlanishi

yuzasidan ilmiy baxslaridayoq yashirin holda belgi tushunchasiga asoslangan edilar.

Faylasuflar ta'sirida XIX asrdan boshlab tilning umumiy nazariyasiga bag'ishlangan deyarli barcha lingvistik asarlarda so'z ikki tomonlama harakatsrga ega bo'lgan belgi sifatida talqin qilina boshlanadi. V. Gumbol'dt, A.SHleyxer, SHteyental', L. Breal, A. Meye, F. Fortunatov, I. A. Boduen de Kurtene, N. Krutlevskiy asarlarida so'zga belgi nuqtai nazaridan yondashiladi. Lekin F. de Sossyur tilning belgili tabiatini aniq-ravshan yoritib beradi. Xatto belgi nazariyasi bilan shug'ullanuvchi alohida fan – semiologiya fani mavjud bo'lishini va lingvistika ham semiologiya tarkibiga kirishi lozimligini ta'kidladi.

Bir tomondan, strukturalizmning muvaffaqiyatli, ikkinchi tomondan, semiotika fanining rivojlanishi tufayli, 50-yillardan boshlab belgi muammosiga qiziqish yanada ortdi. Lingvistik muammolari semiotik aspektda o'rganish lingvistikaning o'zining ham o'rnini o'zgarishiga olib keldi. U ham "inson bilimlari" sistemasida markaziy o'rin oluvchi fanga aylandi.

Hozirgi kunda belgining turli aspektlarini hisobga oluvchi turli ta'riflari mavjud. Uning hamma qirralarini hisobga olgan holda YU. S. Maslov shunday ta'rif beradi: "Belgi - bu idrok qilanadigan narsa bo'lib, idrok qiluvchiga o'zi xaqida va ushbu belgadan tashqarida bo'lgan boshqa narsa haqida ma'lumot beruvchi vositadir".

Belgini aniqlashda, uning ikki xususiyati ko'rsatiladi: Belgining birinchi belgisi idrok qilinishdir. Demak, u idrok qilinishi uchun ma'lum moddiy asosga ega bo'lishi kerak. Belgining moddiy asosi turlicha bo'lishi mumkin; tovush (akustik), qo'rish (optik), maza (gustator) va boshqalar.

Belgining ikkinchi xususiyati o'zi haqida va boshqa ob'ekt haqida

ma'lumot berishdir. Anglashiladiki, har qanday belgida o'zaro ma'lum munosabatda bo'lgan ikki ob'ekt mavjud bo'ladi, Ob'ektlar o'rtasidagi munosabat ikki xil: sabab-natijali munosabat va shartli munosabat. Sabab-natijali munosabatda o'zaro munosabatda bo'lgan ob'ektlar motivlangan, shartli munosabatda esa motivlanmagan bo'ladi. Ob'ektlar o'rtasida bu ikki munosabatni quyidagi sxemalar orqali ifodalash mumkin.

Demak, belgilar ob'ektiv reallikdagi o'zi aks ettirgan ob'ektga munosabatiga ko'ra motivlangan va motivlanmagan belgilarga bo'linadi. Masalan, tutunni ko'rib, yong'in yoki olov haqida, o'rik gullaganini ko'rib, bahor fasli haqida: suv jimirlaganini ko'rib, baliq haqida; tosh so'zini eshitib, qattiq jism haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Birinchi ob'ektlar (tutun, o'rik guli, suv jimirlashi, tosh so'zi), ikkinchi ob'ektlar (olov yoki yong'in, bahor, baliq, qattiq jism) haqida axborot berish uchun xizmat qilyapti. Bulardan dastlabki uch ob'ektlar o'rtasida (tutun va olov, o'rik guli va bahor, suv jimirlashi va baliq) tabiiy bog'lanish, sabab-natija munosabati, ya'ni ob'ektlari aloqasida motivlanish (motivatsiya) bor. Oxirgi ob'ektlar (tosh so'zi va qattiq jism) munosabatida esa tabiiy bog'lanish, sabab-natija munosabati (motivatsiya) yo'q. Ular o'rtasidagi munosabat shartli.


Mashhur Amerika olimi K. Fon Frishning ma'lumotiga ko'ra asalarilar o'yini ham belgi vazifasini bajaradi. Asalari o'yinining shakli va chastotasi ozuqa manbaining masofasi va yo'nalishi haqida ma'lumot beradi. Doira shaklidagi o'yini ozuqa maibaining asalari uyasidan uzoq emasligini, yuz metr atrofida ekanligini, sakkiz shaklidagi uyini esa birdaniga ikki axborot- ozuqa manbaining masofasi yuz metrdan ancha ortiqligi va yo'nalishini bildiradi. Masofa ma'lum vaqt ichida bajarilgan o'yin shaklining miqdoriga bog'liq. Masofa uzunligi asalari uyini

chastotasiga teskari proportsionaldir. To'qqiz-o'nta sakkizlik bo'lsa yuz metr atrofidagi masofani, ettita sakkizlik shakli 200 metr masofani, to'rt yarim sakkizlik shakli bir kilometr masofani, ikki sakkizlik esa olti kilometr masofani ko'rsatadi. Masofa qancha uzoq bo'lsa, o'yin shuncha sekin bo'ladi. Yo'nalish esa "sakkizlik" o'qining nisbatiga ko'ra belgilanadi. Quyoshga nisbatan "sakkizlik" o'qining o'nga yoki chapga burilish burchagi yo'nalish tomonini aniq ko'rsatadi.

Asalari o'yinining shakli va chastotasi bilan ular ifodalagan axborot o'rtasida ham shartli, motivlanmagan munosabat bor.

SHuni ham ta'kidlash lozimki, biri ikkinchisi bilan almashinib keladigan har qanday ikki ob'ektning biri belgi bo'la bermaydi. Faqat biri o'rnida ikkinchisi muttasil almashinadigan va bu almashinuv inson ongida aks etgandagina belgilashadi. Masalan, tutun olovning belgasidir. Ammo uning belgiligi ob'ektlar o'rtasidagi tabiiy sabab-natija (sabab-olov, natija tutun) munosabati emas, balki bu munosabatning inson ongida aks etganligi, konvetsionalligi uchundir. Aks holda tabiatdagi har qanday sabab-natija munosabatida bo'lgan ob'ektlar o'zlariga tabiiy ravishda belgi yaratib olardilar.

Sabab-natija munosabatli (motivlangan) belgilar tabiatdagi ob'ektlar o'rtasidagi munosabatning inson ongida aks etishidan vujudga keladi. SHartli munosabatli (motivlanmagan) belgilarda esa ob'ektlar o'rtasidagi munosabat inson tomonidan hosil qilinadi. Ana shu sub'ektiv hosil qilingan aloqa belgi mazmuni (kontsept yoki signifikat) hisoblanadi. Belgi orqali ifodalangan ob'ekt esa denotat yoki referent terminlari bilan nomlanadi.



Belgi turlari

XIX asrdagi belgilar sistemasiga bag'ishlangan falsafiy asarlar orasida CH. S. Pirsning asari alohida ajralib turadi. Semiotikaning asoschisi sanaluvchi CH. Morrisning CH. S. Pirs qarashlariga tayanishi ham bejiz emas. Garchi F, de Sossyurning "Umumiy lingvistika kursi" asarida CH. S. Pirs asarlariga ishora sezilmasa ham, ammo bu ikki olimning belgilar haqidagi qarashlarida bir-biriga juda o`xshashlik bor. SHuning uchum ham R.O. YAKobson "Ikki olimning (Sossyur va Pirsning A. N.) belgilar sistemasini o`rganishdagi harakatida qandaydir genetik aloqa bormi yoki, fikriy munofiqlikni uchratamizmi, degan masalani hal qilish juda qiziqarli bo`lar edi", - degan edi.

CH. Pirs belgilarni birinchi marotaba tasnif qiladi. U belgilarni tasnif qilishda belgining moddiy tomoni (ifodalovchi) bilan ma`no tomoni bo`lgan ifodalanmish o`rtasidagi farqlanishga asoslanadi. Ana shu belgi asosida CH. Pirs belgilari uch katta gruppaga ajratadi.

1. Sanam belgilar. Bunday belgilarda ifodalovchi ma`lum darajada ifodalanmish bilan o`xshashlikka ega bo`ladi: (Masalan, hayvonlarning tasvir belgisi sifatida aks ettirilishi).

2. Indeks-belgilar. Bunday belgilarda ifodalovchi ifodalanmish bilan sabab-natija yoki boshqa munosabat (yaqinlik, makon va zamondagi bog`liqlik va boshqalar) orqali bog`lanadi. Masalan, tugun olovning indeks belgisi sanaladi.

3. Simvol-belgilar. Bunday belgilarda ifodalovchi bilan ifodalanmish o`rtasida shartli, konventsional, motivlanmagan munosabat mavjud bo`ladi. Bu munosabat erkin va ma`lum qoida asosida vujudga keladi.

Lingvistik belgilar simvol-belgilarga mansubdir.

Lingvistik belgilarning o`ziga xos xususiyatlari.

Motivlanmagan belgilar ichida lingvistik belgi alohida o`rin egalaydi. Lingvistik belgilar konventsionalligi bilan motivlanmagan barcha belgilar bilan umumiylikni hosil qilsa ham, ammo axborot tashish imkoniyatining kengligi, diskretligi, akustikligi, ko`psathlilik va bu sath birliklari o`rtasida pog`onali (darajali) munosabatning mavjudligi bilan boshqa motivlanmagan belgilardan farq qiladi. SHuning uchun ham lingvistik belgi alohida tipdagi belgidir.

F. de Sossyur ham lingvistik belgining qurilish modelini tavsiya etib, uning ikki asosiy tamoyilini belgilaydi: ifodalanmishning erkinligi va silsilaligi.

Birinchi tamoyil ifodalovchi va ifodalanmish o`rtasidagi munosabat asosida belgilanadi.

Lingvistik belgining bu ikki plani o`rtasidaga munosabat antik davrdan buyon faylasuflar, ruxshunoslar va lingvistlar o`rtasida qizg`in bahslarga sabab bo`lib kelmoqda.

Qadimgi grek filosoflari Geraklit nom bilan u ifodalagan predmet o`rtasida bog`liqlik bor degan tezisni olg`a surgan bo`lsa, Demokrit bu qarashni inkor qiladi va nom bilan u ifodalangan predmet o`rtasidagi munosabat erkindir, deydi. U nom bilan predmet o`rtasidagi nomutanosiblikni quyidagi dalillar bilan isbotlaydi: 1) bir predmet bir necha nom bilan atalishi mumkin (nom predmetga nisbatan ko`p, ortiqcha): 2) bir necha predmet bir nom bilan ataladi (nom predmetga nisbatan kam, etishmaydi): 3) ma`lum predmetlarning nomlari davrlar o`tishi bilan o`zgarishi mumkin.

Bu masala bugungi kunda ham dolzarbligini yo`qotgani yo`q (ushbu muammo yuzasidan batafsil ma`lumot olish uchun "Belgining tuzilishi bo`limiga qarang").

Lingvistik belgining ikkinchi tamoyili ifodalovchining silsilaligidir. F. de Sossyur asarida bu tamoyil birinchi tamoyilga nisbatan kamroq o`rin olgan bo`lsa ham, lekin unga katta ahamiyat berildi.

Lingvistik belgining silsilaligi uning boshqa belgilar bilan sintagmatik munosabatini ko`rsatadi. Lingvistik belgining bu xususiyati til va nutq aloqasiga ham ishora qiladi.

Lingvistik belgining uchinchi xususiyati uning diskretligi, ya`ni mayda elementlarga ajralish xususiyatidir.

Belgi tuzilishi

Tilshunoslikda tilning belgilar sistemasi ekanligiga ikki xil yondashuv bor. Ularning birinchisi tilning belgilar sistemasi ekanligini, umuman, rad etadilar. Bu nazariya filosofiyaga zid nazariya sifatida baholanadi. Xususan L. O. Reznikovning dastlabki asarlarida bu nuqtai nazar yorqin aks etadi. Uning fikricha, tilshunoslikda agnostitsizm birinchi navbatda, tilning belgilar sistemasi ekanligi haqidagi nazariyada ifodalanadi. Dialektik materialistik ta`limot agnostitsizmning bu ko`rinishini keskin tanqid qilish lozimligini ta`kidlaydi. Lingvistik belgi haqidagi nazariya g`ayri ilmiy nazariyadir. U tilshunoslikka eng zararli agnostik qarashlarning kirib qolish vositasidir, shuning uchun ham uni fosh qilish va rad etish zarur, deydi.

R. A. Budagov ham lingvistik belgi haqidagi nazariyani inkor etadi. U har qanday milliy til ma`lum ifodalar sistemasigina emas, balki bu

tilda muloqot qiluvchilarning barcha faoliyatini o'ziga xos aks ettirish natijasi hamdir, deydi. Uning ta'kidlashicha, tilning belgili tabiati kontseptsiyasi milliy tillar tabiatini va shu bilan birga lingvistikani ham nihoyatda kambag'allashtiradi.

Lingvistik belgi nazariyasini inkor etuvchilarning hammasi lingvistik belgi tabiati haqidagi bir yo'nalish-monoletaristik (belgining bir yoqlamaliligi) yo'nalishga nisbatan fikr yuritadilar. Belgini faqat shakldan iborat, degan fikrga asoslanadilar. B. A. Serebrennikov to'g'ri ta'kidlaganidek, lingvistik belgi nazariyasini, umuman, rad etuvchi olimlar ikki narsani – kommunikatsiya vositasi sifatidagi lingvistik belgi tabiati va belgi –ma'no-narsa (hodisa) munosabati muammolarini aralashtiradilar.

Davrlar o'tishi bilan tilning belgilar sistemasi ekanligi haqidagi nazariya asta-sekin e'tirof etila bashlandi. Lekin lingvistik belgi tuzilishi masalasida ikki xil oqim vujudga keldi.

Birinchi oqim tarafdorlari lingvistik belgi tuzilishiga faqat ifodalovchini kiritadilar. Xususan, E. M. Galkina-Fedorukning fikricha, tovush kompleksi ob'ektiv borliqdagi ma'lum predmet haqidagi umumxalq tushunchasining ifodalovchisidir. SHuning uchun ham so'z orqali ifodalangan tushunchani emas, balki faqat so'zning tovush kompleksinigina belgi deyish mumkin. So'zning "ma'nosi"da ham "belgi"ni qurishning har qanday imkoniyatini mutlaqo yo'qotish kerak. So'z o'zining tovush sostavi bilan borliqdagi hodisalarning ongdagi in'ikosi bo'lgan tushunchalarni ifodalaydi, shu bilan birga, tushunchalarni shakllantirib nomlaydi. Demak, so'z predmetlar nusxasi ham emas, ularning belgisi ham emas.

Ilgari lingvistik belgini mutlaqo inkor etgan L. O. Reznikov ham keyingi asarlarida bu nazariyani e'tirof eta boshladi va faqat tovush kompleksinigina lingvistik belgi deb hisoblaydi. U so'zning tovush tomoni

moddiy xarakterga ega bo`lib, predmetga nisbatan belgi vazifasini bajaradi, deydi. Uning ta`kidlashicha, ma`no predmetni bevosita emas, balki bilvosita-tovush tomoni orqali aks ettiradi, chunki borliqning umumlashgan ichki mazmuni faqat ikkinchi signal sistemasi orqali, ya`ni umumlashgan ma`noga ega bo`lgan tovushlar kompleksini talaffuz va qabul qilish jarayonida vujudga keladigan maxsus fiziologik aloqalar sistemasi orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bu kontsetsiyaning faol tarafdorlaridan biri V. Z. Panfilovdir. U bir butun til birligini emas, faqat uning material tomonini belgi deb hisoblash kerakligini, til belgisi ikki tomonli emas, balki bir tomonli mohiyat ekanligini ko`rsatadi.

Belgining bir tomonlama ekanligini polyak tilshunosi L. Zavadovskiy quyidagicha ta`riflaydi: "Belgining ikki tomonlama tabiati tarafdorlari tayangan asos to`g`ri. Belgi, darhaqiqat, shuning uchun belgiki, u ma`noga ega. Lekin bundan belgi ikki elementdan tashkil topgan bir butunlik, kombinatsiya degan xulosaga kelmaslik kerak. Axir bog` egasini kishi plyus bog` tarzida ikki tomonlama mohiyat sifatida talqin etish kerakmi?"

V. M. Solntsev ham belgining bir tomonlama ekanligini ma`qullaydi. U to`g`ri ta`kidlagani kabi, ma`noni belgi tarkibiga kiritish yoki kiritmaslik, boshqacha aytganda, belgining bir yoqlama yoki ikki yoqlama mohiyat ekanligini tan olish ko`p jihatdan ma`no tabiatini turlicha tushunishga bog`liq. Hozirgi kunda ma`noni ikki xil tushunish mavjud.

1) munosabat turi sifatida (a)belgining ifodalanmish predmetga munosabati, (b)tushunchaga munosabati sifatida. Birinchi qarash bo`yicha belgiga ikki tomonlama mohiyat sifatida yondashishga asos bor. Ikkinchi qarash bo`yicha esa - yo`q. SHuning uchun ham belgining ikki tomonli

ekanligini himoya qiluvchilar belgi haqidagi ikkinchi qarashni tanqid qiladilar.

Ma`noni tushuncha bilan bir xil holda in`ikos kategoriyasi sifatida, ayni paytda, ong fakti sifatida tan olish ma`noni, belgi tarkibiga kiritishga monelik qiladi va belgini bir tomonlama mohiyat deb qarashga asos bo`lib xizmat qiladi.

Ma`no ong fakti sifatida "ideal narsa" (xarakat, belgi, miqdor va boshqalar), "aqliy predmetdir".

Ma`no "aqliy predmet" sifatida xuddi tushuncha kabi turli bo`lishi mumkin a) tashqi odamning (turli darajadagi aniqlik va adekvatlik bilan) nusxasi. Masalan, "daraxt ma`nosi" ongda konkret predmetlar sinfining, "yurmoq" ma`nosi real harakatlar sinfining aks etishdir: b) tashqi olamni buzilgan holda aks ettirish yoki ijodiy fantaziya natijasi: dev, suv parisi va boshqalar.

Ma`noning birinchi tipida d-a-r-a-x-t tovushi qatori qandaydir real predmetni aks ettirish uchun qo`llanilishi mumkin, bu holda belgi, ya`ni d-a-r-a-x-t tovush qatori o`zidan tashqaridagi ma`lum narsa haqida ma`lumot beradi.

Belgi ikki tomonlama mohiyat sifatida yondashuvchilar, odatda, "daraxt" ma`nosiga ega bo`lgan belgi real borliqdaga predmetni ifodalash uchun xizmat qiladi, deyдилar.

V. M. Solntsev talqiniga ko`ra esa d-a-r-a-x-t tovush qatori, ya`ni belgi eng avvalo, ma`noga, aqliy predmetga, "umuman daraxt"ga ishora qiladi, shuning uchun u har qanday konkret "daraxt" bilan muvofiq kelishi mumkin. "Aqliy predmet", "aqliy harakat", ya`ni umumlashmalar ortida real predmetlar, harakatlar turadi va bu umumlashmalar har qanday holda belgi bilan ifodalanishi mumkin.

Ikkinchi tipdagi ma`noda esa (dev, suv parisi) real predmetlar bo`lmaganligi uchun belgi (tovush qatori) fantaziya mahsuloti sifatida faqat ongda mavjud bo`lgan "aqliy predmet"largagina ishora qiladi.

Uning fikricha, belgi ishora qilgan narsa belgi tarkibiga kirmasligi kerak. Ma`no ong fakti, miya vazifasi sifatida faqat kishilar ongida mavjud bo`ladi. Belgi esa moddiy predmet sifatida insondan tashqarida yashaydi.

Ma`no belgidan ajralmasdir. Lekin, ayni paytda, u to`lalgicha belgiga teng emas.

Belgining ikki tomonlamaliligi kontseptsiyasida ma`no belgining ifodalanayotgan predmetga munosabati sifatida talqin qilinadi. Belgining bir tomonlamaliligi kontseptsiyasida esa ma`noga munosabat sifatida yondashuvning to`g`ri emasligi ta`kidlanadi.

V. M. Solntsevning fikricha, ifoda va ma`no birligi til birligini hosil qiladi. Masalan, so`z morfema. Uning ta`kidlashiga ko`ra, til birliga haqida gap yotganda, albatta uning tarkibiga ma`noni qo`shish kerak. Til birliginish ma`nosida shu tilda so`zlashuvchi xalqning tajribasi aks etgan. Til birligi bir butui sifatida o`zining ma`nosi orqali tashqi olam bilan bog`lanadi. Til birligi bugun sifatida belgi emas. U belgi va ma`nodan tashkil topgan.

Ayrim olimlar ong elementlarini ham belgi hisoblash tarafdorlaridir. Bunday qarash A. A. Ufimtsev, N. D. Arutyunovalar tomonidan olg`a surilmoqda. Xususan, A. A. Ufimtseva borliqdagi predmet va hodisalarning ideal aks etishi belgilar dunyosini vujudga keltiradi, deydi.

N. D. Arutyunova esa "Grammatik sistemaning minimal birligi haqida" maqolasida til ikki belgilar sistemasidan iborat, degan xulosaga keladi. Biri tovush belgilaridan iborat bo`lib, tushunchani ifodalaydi, ikkinchisi esa borliqdagi predmet, hodisalarni aks ettiruvchi

tushunchalardan tashkil topadi.

Ikkinchi oqim vakillari esa belgining ikki tomonlama mohiyatidan kelib chiqib, uning ifodalovchi va ifodalanmish birligadan tashkil topgan, deyдилar (Kasserier, Rassel, Sossyur, Vandries, Sepir, El'mslev, Blumfild, Vo'gotskiy , Voloshinov, Serebrennikov va boshqalar).

F. de Sossyur "Umumiy lingvistika kursi" asarida belgini ifodalovchi (akustik obraz) va ifodlanmish (tushuncha) birliga sifatida talqin etadi. Fanda bu oqim " bilateralistik oqim" nomi bilan mashhur bo'ldi. B. A. Serebrennikovning fikricha, belgining ikki tomonlamaliligi kontseptsiyasi haqiqatni to'g'riroq aks ettiradi. Chunki ma'nodan tashqari belgining bo'lishi mumkin emas. Tovush qobigini ma'nodan ajratish, katta metodik xatodir".

Belgining monolateraliligini yoqlovchilar ma'noni borliqning aks etishi, belgi orqali ifoda qilingan ob'ektiv fakt deb izoxlaydilar. SHu bilan birga borliqning in'ikosi bo'lgan tushuncha ham mavjud. U holda in'ikos etilshning bu ikki turi o'rtasida, ya'ni ma'no va tushuncha o'rtasida qanday farq bor? E. M. Galkina - Fedoruk tushunchani mantiq kategoriyasi ma'noni esa lingvistik kategoriya ekanligini ta'kidlaydi. Lekin B. A. Serebrennikov ko'rsatganidek, bu ikki hodisaning yuqoridagi kabi farqlanishi nutkda bir vaqtning o'zida ikki aks ettirish mavjud ekanligini tushuntirib berolmaydi. E. M. Galkina-Fedoruk tomonidan so'zning leksik ma'nosi so'zlashuvchi kollektiv tomondan borliqning u yoki bu hodisasi bilan bog'lanishi sifatida talqin qilinadi.

Darhaqiqat, tushuncha va ma'no o'rtasida katta farq bor. Predmetning in'ikosi inson ongida tabiiy ravishda ro'y beradi. Predmet belgilarining umumlashmasi sifatida predmet obrazi gavdalanadi.

Tovush kompleksi va reallikdagi predmet o'rtasida dastlab hech

qanday aloqa mavjud bo'lmaydi. Bu erda aks ettirish deb nomlanishi mumkin bo'lgan hodisa yo'q. Tovush kompleksi bilan predmet o'rtasidagi aloqa inson tomonidan o'rnatilgan.

Tovush kompleksi bilan predmet o'rtasidagi bunday shartli munosabat bo'lganda tovush kompleksi ko'rsatish, ishora qilish vazifasini bajaradi. Ma'no tushunchadan farqli ravishda doimo hosil qilinadi, tabiiy asosda kelib chiqadi.

B. A. Serebrennikov ma'no va tushunchani bir biridan farqlagan holda ma'noni in'ikos kategoriyasi ekanligini inkor qiladi. Uning ta'kidlashicha, shartli va sun'iy ravishda tiklangan aloqaga hech qachon aks ettirish sifatida qarash mumkin emas, Aslida ma'no - bu tovush kompleksining tushuncha bilan inson tomonidan o'rnatilgan shartli aloqasi. P. V. Chesnokov ham ma'no munosabatda mavjud emas, faqat shu munosabatda hosil qilinishini ta'kidlaydi.

I. P. Susov fikriga ko'ra, ifodalanmishning tildagi qarama - qarshi a'zosi bir butun belgining barcha tomonini emas, balki uning faqat bir tomonini - substantsional tomonini tashkil etadi. Belgining boshqa tomoni ma'no hisoblanadi, ma'no til ifodasining tildan tashqaridagi ifodalanmishga munosabatini ko'rsatadi. Bunga muvofiq, ma'no til substantsiyasiga funktsional qo'shimcha sifatida ishtirok etadi, substantsiyaga hayot bag'ishlaydi, belgining substantsional va funktsional gomonlarini bir butun sifatida shakllantiradi.

A. A. Ufimtseva lingvistik belgi ma'nosini aniqlashning murakkab ekanligini, chunki lingvistik belgining bir vaqtning o'zida bir qancha funktsiyada kelishini ta'kidlaydi. U belgi shaklining ifodalanmish bilan munosabati ikki tomonlama ekanligini ko'rsatadi: 1) ifodalanmishning belgi shakliga munosabati; 2) ifodalanmishning predmetga (ob'ektiv

faktga) munosabati. Bulardan birinchisi ma`no ikkinchisi esa ifoda hisoblanadi. Belga ma`nosining shakllanishida o`zaro bog`langan yuqoridagi uch qism (belgi- predmet haqidagi tushuncha - predmet) ma`lum darajada aks etadi. A. A Ufimtseva o`z fikrini yanada konkretroq qilib, ma`noni belgi vaziyati qismlari o`rtasidagi alohida munosabat sifatida xarakterlash mumkinligini ko`rsatadi. Belgi bilan ifoda predmeti o`rtasidagi alohida munosabat ostida inson orqali yuzaga chiqadigan aloqa tushuniladi.

SHunday qilib, belgi ma`nosi ob`ektiv qatordagi ifodalanmish bilan ham, sub`ektiv qatordagi ifodalanmish denotat bilan ham teng emas. Ifodalanmish belgidan va tildan tashqarida qoladi. Ma`no esa belgining bir tomonini tashkil etadi va til maqomiga ega bo`ladi.

Bizning nazarimizda belgining bir yoqlamaliligi va ikki yoqlamaligi muammosi ma`noga ikki xil yondashuv bilan bog`liq. Belgiga bir yoqlama mohiyat sifatida yondashuvchilar in`ikos jarayonini uch bosqichdan iborat deb talqin qiladilar: narsa – narsa belgilarining umumlashmasi, narsa obrazi, ya`ni narsa haqidagi tushuncha – akustik xossa (ifodalovchi). Ikkinchi bosqich- narsaning aks ettirish bosqichi, ong fakti sifatida belgidan tashqarida qoldiriladi. Bu bosqich borliqdagi narsaning aks ettirish bosqichi sifatida belgiga ikki yoqlama mohiyat deb yondashuvchilar tomonidan ham belgi tarkibiga kiritilmaydi. Bu jihatdan yuqoridagi ikki oqim hamfikrdirlar. Lekin ikkinchi oqim tarafdorlari in`ikos jarayonini uch bosqichga emas, balki to`rt bosqichga bo`ladilar. Ma`no bilan tushunchani bir-biridan farqlaydilar: narsa-tushuncha-munosabat (ma`no) – akustik xossa (ifodalovchi). Bunga muvofiq, ifodalovchi bilan narsaning umumlashgan obrazi, ya`ni tushuncha o`rtasidagi munosabat ma`no sanaladi. SHuning uchun ham ma`no belgi tarkibiga kiritiladi.

Biz ushbu ishda belgining ikki tomonlamaliligi haqidagi qarashni maqullaymiz va in`ikos jarayonini to`rt bosqichli ekanligini e`tirof etamiz. Lekin ma`noni boshqacha talqin etamiz. Bunga muvofiq, lingvistik birlik mohiyati moddiy tomoni bilan (belgi bilan) g`oya tomoni (ma`no)ning birligidan iboratdir.

I. P. Susov ma`no mohiyatini anglash va uning xarakterini belgilash uchun ifodalovchi va ifodalanmish tahliliga tayanish kerakligani aytadi. Ifodalanmish ma`no (smo`sl') semantik predmet (signifikat), real predmet (denotat)larning birligidan iborat. Ma`no semantik predmetning ajralishiga asos bo`lgan belgilar majmuasidir. Belgilar majmuasi bilan ajraladigan aniqlanuvchi predmet semantik predmet hisoblanadi. Masalan, tog`a so`zi o`zida quyidagi besh belgini (semanti) mujassam etgay ma`nodan iborat: 1) erkak jinsiga ega bo`lgan shaxs; 2) qarindosh; 3) o`gaylik belgisi bo`lmagan qarindosh; 4) nisbiy qarindosh (ona orqali), 5) bir avlod katta. YUqoridagi belgi asosida ajraladigan shaxs tog`a so`zining semantik predmeti sanaladi. Semantik predmet ham ob`ektiv borliqning aks etishini ko`rsatadi. Semantik predmet real predmetning ongndagi in`ikosi sanaladi. YUqoridagi tog`a so`zi ob`ektiv reallikdagi ongndan tashqarida mavjud bo`lgan, real predmetni aks ettiradi. Semantik predmet ham, real predmet ham ifodalanmish tarkibiga kiradi. Ular o`rtasidagn farq shundaki, birinchisi aks ettiruvchi, ikkinchisi esa aks etuvchi hisoblanadi, Semantik predmet semantik belgilar, semalar-kon'yunktsiyasi orqali, denotat esa (agar u turdosh ot bo`lsa) real predmetlar diz'yunktsiyasi orqali, ajratiladi. Bu jihatdan atoqli va turdosh otlar denotati bir-birlaridan farq qiladi. Atoqli otlar denotati ob`ektiv borliqdagi yolgiz predmetlar bo`lsa, turdosh otlar denotati esa borliqdagi real predmetlar diz'yunktsiyasidir. SHuday qilib, nomlash nazariyasi so`z, semantik predmet, real predmet (denotat) va

ma`no bo`lishini taqazo qiladi. Tilshunoslikda quyidagilar haqida fikr yuritishga to`g`ri keladi: 1) tabiiy til so`zi haqida; 2) bu so`zning semantik ishtirokchilari ya`ni material olamining inson ongida aks etishi va so`z orqali ifodalanishi haqida; 3) inson ongida aks etadigan va so`z orqali ifodalanadigan ob`ektiv olam predmetlari, hodisalari haqida. Denotativ ma`no inson ongidan tashqari bo`lgan ob`ektiv olamdagi narsa, hodisalar va ular o`rtasidagi aloqalarning ongda aks etishidir. Semantik predmet bilan real predmet o`rtasidagi printsipial farq shundaki, birinchisi aks etadi, ikkinchisi aks ettiriladi. Signifikativ ma`no denotativ ma`noga nisbatan ikkilamchi xarakterga ega. Chunki olamni bilish jarayonida ob`ektiv olam elementlarining eng muhim belgilari inson ongida aks etadi va ongda aks etgan ob`ektiv olamdagi bir qancha narsalar, hodisalar haqidagi bu psixofiziologik substrat til belgisi orqali ifodalanadi. Anglashiladiki, lingvistik belgining asosiy qismi bir vaqtning o`zida ham denotativ, ham signifikativ ma`noga ega bo`ladi. Bunday vaqtda lingvistik belgining denotat bilan aloqasi signifikat orqali ro`yobga chiqadi. Bunga muvofiq til quyidagi uch hodisani o`zida mujassamlantiradi: 1) material olam hodisasi sifatida belgini; 2) ob`ektiv olamni aks ettiruvchi ideal hodisani; 3) mavjudligi ideal hodisaga va uning belgisining mavjud bo`lishiga bog`liq bo`lmagan ob`ektiv borliqni. T. P. Lomtevning ta`kidlashicha, lingvistik belgining mohiyatini belgi va uning ma`nosining (signifikat) konvetsionalligini emas, balki ob`ektivligini e`tirof etishdir. Belgi ma`nosi va ob`ekt o`rtasida aks ettirish munosabati mavjud. Ko`p hollarda signifikat ob`ektiv olamda korrelyati bo`lmagan, inson tomonidan sun`iy ravishda hosil qilingan obrazni bildirishi mumkin; xudo, dev, pari va boshqalar. Bu vaqtlarda belgida olam qiyofasini ong tomonidan ijodiy to`ldirilgan hayoliy predmetlar aks etadi. Bunday predmetlar yolg`on denotat (psevdodenotat)

deyilishi mumkin.

Bilishning dialektik nazariyasi inson ongidan tashqarida, unga bog`liq bo`lmagan ob`ektiv olam va bu ob`ektiv olamning inson ongida aks etishini e`tirof qiladi. Insonning ob`ektiv olam haqidaga bilimlari tabiiy til belgilari asosida shakllanadi va ifodalanadi. Lingvistik belgining ob`ektiv reallik bilan munosabati yuzasidan tilshunoslikda ikki xil yo`nalish mavjud: 1) **bavosita** va 2) **bevosita** munosabat.

Birinchi yo`nalish tarafdorlari in`ikos pritsipiga tayanadilar. Lingvistik belgi ob`ektiv reallik bilan bevosita emas, balki ong orqali bog`lanadi. Tabiiy til belgisining ma`nosi ob`ektiv olamdagi aks ettirilgan fikriy “narsalar” olamidir. Dialektik bilish nazariyasi asosida mavjudligi va uning inson ongida aks etishi yotadi”.

Ko`p hollarda ma`lum ob`ektiv faktga ob`ektiv olamda haqiqiy predmet tarzida ham, xayoliy predmet tarzida ham korreliyati bo`lmagan ob`ektiv momentlar qo`shiladi: Modallik, peredikativlik, emotsional-ekspressiv baho va boshqalar. Natijada ob`ektiv fakt murakkab sub`ektiv obrazning faqat bir qismini tashkil qiladi. Bunday momentlarning bo`lishi signifikativ ma`noni ham ikki qismga bo`lishga olib keladi: 1) denotatga muvofiq keladigan referent ma`no (markaziy ma`no); 2) referent ma`no ustiga qo`shilgan modifikatsion ma`no (chegara ma`no).

Aksariyat lingvistik belgilar semantik strukturasi denotativ, referentsional signifikativ hamda modifikatsion signifikativ ma`nolardan tashkil topadi. Bu belilar o`zicha nisbiy mustaqil qo`llana oladigan avtosemantik xarakterga egadir. Ayrim belgilar borki ular faqat modifikativ ma`noga ega bo`lib, nisbiy mustaqil qo`llana olish imkoniyatiga ega emas. Ular birinchi tipdagi belgilar bilan birga qo`llaniladi. Sinsemantik xususiyatga ega.

SHunday qilib, denotativ hamda referentsional signifikativ ma`no lingvistik belgi semantik strukturasi asosini tashkil qiladi.

Ma`no aks ettirmaydi, faqat tushuncha aks ettirish xususiyatiga ega. Ma`no esa tovush kompleksining predmet eki hodisa bilan inson tomonidan o`rnatilgan shartli aloqasidir.

Lingvistik belginiig moddiyligi

Har qanday lingvistik belgi akustik xossaga ega. Uning akustik xossasi, kishilar xotirasida saqlanadi va nutq jarayonida ma`lum chiziqdagi tovush to`lqini sifatida namoyon bo`ladi. Uning moddiy mavjudligi tovush to`lqinining cho`ziqligiga teng. Kipshlar xotirasida mavjud bo`lgan u yoki bu belgidan foydalanish jarayonida har qaysi belgi so`zlovchi tomonidan xar safar yangidan hosil qilinadi. So`zlovchi xotirasida ma`lum belgi akustik xossasi haqida oldindan ma`lumotning mavjudligi va so`zlovchi uni talaffuz qilish ko`nikmasita ega bo`lishi bu belgining xar safar hosil qilish imkoniyatini yaratadi, shuning uchun ham har bir belgi bir necha "nusxa"da namoyon bo`lish xususiyatiga ega. Til belgisining "ko`p nusxaliligi" alohida "nusxalar"ni (konkret belgilarni) shu belgining variantlari deb qarashga imkon beradi. Bu belgining umumlashgan obrazi har qaysi variantlarda, albatta, takrorlanadigan umumiy xususiyatlarni aks ettiruvchi invariant sifatida gavdalanadi. Lingvistik belgi invarianti ideal predmet, "aqliy narsa", mohiyatidir. U shu belgining mavhum shakli hisoblanishi mumkin. Masalan, o`zbek tilida q-a-l-n-m tovush qatori yozish quroli haqida ma`lumot beruvchi belgidir. Bu belgi turli shaxslar tomonidan nutq tempi va balandligi, so`zlovchi nutq apparatining o`ziga xosligiga ko`ra turli sharoitda talaffuz qilinganda, uning

tovush qiyofasi muayyan chegaragacha turli darajada o'zgarishga uchraydi. Lekin so'zlashuvchilar talaffuzning har qaysi holatida ham ularning bir belgi ekanligini anglaydilar. Buning sababi so'zlovchilarda shu belgining umumlashgan obrazi haqida oldindan ko'nikmaning mavjud bo'lishidir.

Ko'pchilik lingvistik adabiyotlarda mavhum belgi til birligi, konkret belgilar, yoki mavxum belgilarning "turli nusxalari", variantlari nutq birligi sifatida talqin qilinadi. Mavhum va konkret birliklar o'rtasida gavdalantirish va namoyon bo'lish munosabati borligi aytiladi. Konkret birliklar mavxum birlikni namoyon qiladi. Mavhum birliklar konkret birliklarni gavdalantiradi.

V. M. Solntsev lingvistik belgani mavhum va konkret belgilarga ajratishga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Uning fikricha mavhum belgi quruqdir. Chunki uning yordamida aloqa qilish mumkin emas. SHuning uchun ham agar til mavhum birliklarni o'z ichiga oladi deb hisoblansa, u vaqtda tilga aloqa vositasi sifatida qarab bo'lmaydi.

Nutq aloqa jarayoni sanaladi. Doimo til vositalari yordamida nutqni hosil qilamiz. YA'ni gap hosil qilishda bizga ma'lum bo'lgan so'z, konstruktsiya, qoidalarlardan foydalanamiz. SHuning uchun ham nutq harakatdagi, amaldagi tildir, til mohiyat, nutq hodisa deyish mumkin. V. M. Solntsev ta'kidlaganidek, til va nutq munosabati vosita va bu vositaning qo'llanish munosabatidir. SHuning uchun ham aloqa jarayonida yaratiladigan (talaffuz qilinadigan) konkret moddiy belgi real aloqa vositasi sanalib, bir vaqtning o'zida belgining moddiy sistemasi sifatidagi tilga ham taalluqli bo'ladi.

Til belgisida uzluksiz makon va zamonda mavjud bo'lish xususiyatining yo'qligi uning "saqlanishi" ga qulaylik tug'diradi. Biz xotiramizda sezgi a'zolarimiz bilan sezadigan moddiy belgining o'zini

emas, balki bu belgining umumlashgan ideal obrazini hamda bu belgini zarur vaqtda "hosil qilish" ko`nikma va malakasini saqlaymiz.

Boshqacha aytganda, real belgilarning o`zini emas, uning mavhum shaklini, u haqdagi bilimimizni xotirada saqlaymiz.

Lingvistik belgida motivatsiya masalasi

Lingvistik belgida ifodalovchi va ifodalanmish o`rtasidagi munosabat tilshunoslikniig eng qadimgi muammolaridan biridir. Ilmiy lingvistik ta`limotning ilk davridayoq bu masala eng qizg`in baxslarga sababchi bo`ldi. Antik davr olimlari ifodalovchi va ifodalanmish o`rtasida tabiiy bog`liqlikning borligi yoki yo`qligi masalasida ikki guruhga (realistlar va nominalistlar) bo`lindilar. Ularning birinchisi - (Geraklit va boshq) har qanday nom o`zi ifodalagan predmet bilan tabiiy bog`langan desalar, ikkinchisi (Demokrit va boshq) uni rad etadilar va nom bilan u ifodalagan predmet o`rtasida shartli munosabat mavjud ekanligini bayon qiladilar.

Har ikki yo`nalishni kelishtirishga harakat qilgan Platon realistlar fikrini tasdiqlamoq uchun so`z ma`nosi bilan shakl o`rtasidagi muvofiqlikni va so`z shaklini u ifodalagan predmet bilan bog`langanligani misollar orqali ko`rsatmoqchi bo`ladi. Uning fikricha, R har qanday harakat vositasidek tasavvur qilinadi, shu tufayli dastlab nom qo`yuvchilar uchun xarakat, uzilish hodisasini ifodalashda R tovushi ajoyib vosita bo`lib ko`rindi va shu maqsadda bu tovushdan bir necha marta foydalandilar: rayn "oqmoq" (daryo), eraykayn "o`zish", srintayn "kovlash", eroyayn "bo`lish", normatidzayn "maydalash va boshqalar. SHuningdek, i tovushi noziklikni, a tovushi kattalikni ifodalash uchun xoslanganini ta`kidlaydi.

Xuddi shunday fikr M. V. Lomonosov tomonidan ham bayon

qilinadi; e, i, yu mayinlik, erkalanish; kichiklikni; ya mayinlik, yoqimlilikni; o, o` qo`rqinchli va kuchli narsalarni (qaxr, qo`rqinch, g`am) ifodalash uchun xoslanganini ko`rsatadi.

Lipgivistik belgining ifodalovchi va ifodalanmish munosabatiga bunday qarash keyingi davrlarda ham rivojlantirildi. Xususan, Leybnits, Gumbol`dt, e. Benvenist, R. YAkobson asarlarida belgi va predmet o`rtasida motivatsiyaning borligi e`tirof etiladi. e. Benvenist ifodalovchi va ifodalanmish o`rtasidagi munosabat erkin emas, aksincha-zaruriydir, deydi. "Xo`kiz" tushunchasi mening ongimda albatta bog` tovush kompleksi (ifodalanmish) bilan tenglashtiriladi, har ikkisi yaxlit holda mening ongimda o`rnashgan. Darhaqiqat, bir qator so`zlarning tovush qobig`i dunyo tillarida bir-biriga o`xshaydi. Masalan o`zb. **kakku**, rus. **kukushka**, o`zbekcha **kukulaydi**, ruscha **kukuet**, ruscha **reka**, grekcha **rein**.

Ifodalovchi na ifodalanmish o`rtasida motivatsiyaning borligi yoki yo`kligi masalasi bugungi kunimizgacha turli baxslarga sabab bo`lmoqda.

Hozirgi kunda ifodalovchi va ifodalanmish o`rtasida motivatsiyaning borligini psixolingvistlar izchillik bilan targ`ib qilmoqdalar. Tilshunosliqda bu g`oyani olg`a suruvchi alohida nazariya - tovush simvolizmi nazariyasi vujudga keldi.

Faylasuf E. YA. Basin lingvistik belgining erkinligi haqidagi fikr metafizik fikr ekanligini bayon qiladi va bundan qutilishning yo`lini tovush simvolizmi ta`limotida ko`radi.

L. O. Reznikov belgining asosan erkinligini tan olgan holda, dastlabki davrda motivlangan holatlarning bo`lishi mumkinligini inkor etmaydi.

A. G. Spirkin ham lingvistik belgiga nisbatan shunga o`xshash fikr ifodalaydi. Uning ta`kidlashicha, hozirgi vaqtda u yoki bu predmet nima

uchun boshqacha emas, balki xuddi shunday bilan atalgan degan masalani ko`tarishdan hech qanday ma`no yo`q. SHu bilan birga etimologik tahlil predmet nomi motivlanish xarakteriga ega ekanligidan guvohlik bermoqda.

L. O. Reznikovning fikriga ko`ra, belgilar shakllanishining dastlabki davrida shakl va mazmun muvofiqligi bo`lgan. Keyinchalik tarixiy taraqqiyot jarayonida belgi uchun ma`lum ma`no qat`iylashishi bilan ifodalanmish bilan o`xshashlik darajasi tobora sxematik, simvolik xarakter kasb eta boshlagan.

A. P. Juravlev bu fikr bilan kelishish mumkinligini ta`kidlaydi. CHunki D. Vesterman, B. V, Jurkovskiy, A. M. Gazizov Ginzbergning kuzatishiga qaraganda, darhaqiqat, taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi tillardan olingan materiallar ularda ifodalovchi va ifodalanmish aloqasi ancha erkinligidan guvohlik beradi.

Adabiyotlarda barcha belgilar singari lingvistik belgida bir necha motivatsiya borligi ko`rsatiladi. Xususan, S. Ul`mann uch xil motivatsiya tipini ajratadi; semantik, morfologik va fonetik. Qalbga yo`l ochish, gapning tuzi singari birikmalardagi yo`l, tuz so`zlarida semantik motivatsiya; kukushka, xryukat`, svist, shelest, shorox, shepot, rev, ro`k, gul, jurchanie, trest, grom, baraban, lira kabi so`zlarda fonetik motivatsiya; yangi ma`no morfema ma`nolari asosida hosil bo`lgan stengazeta, perexod kabi so`zlarda morfologik motivatsiya borligi ko`rsatiladi. SHu bilan bir qatorda ayrim so`zlarning hosil bo`lishiga asos bo`lgan obraz markazi mavjud. Predmetlarning turli belgilaridan bittasi nom uchun asos bo`ladi. Asos bo`lgan belgi Potebnya termini bilan aytganda, obraz markazi bo`ladi. Lekin turli tillarda nom turli obraz markaziga asoslanishi mumkin. Masalan, rus tilida medved` "ayiq" so`zi uchun shu nom ifodalangan predmetning asal eyish xususiyati asos bo`ladi. Lekin o`zbek tilidagi

ayiqning ana shunday obraz markazini belgilab bo`lmaydi. Ko`pgina so`zlarda obraz markazini topib bo`lmaydi. Obraz markazi ko`pincha tretium komparatium (Potebnya) asosida hosil bo`lgan ikkilamchi nomlarga xosdir. SHuning uchun ham belgining erkinligi va konventsioalligi haqidagi tezis yangi davrda V.D. Uitni tomonidan olg`a surildi va F. de. Sossyur tomonidan rivojlantirildi.

Lingvistik belgining erkinligi Sossyur lingvistik ta`limotining asosiy printsipidan biridir. 1916 yilda "Kurs" bosilib chiqishi natijasida bu asarda olga tashlangan ifodalovchi va ifodalanmish o`rtasida ichki motivatsiyaning yo`qligi g`oyasi ko`pchilik tilshunoslarning lingvistik belgi tabiati haqidagi qarashlarini belgilab beradi.

P. V. Gamkrelidze tilshunoslikdagi lingvistik belgining motivlangan yoki motivlanmaganligi to`g`risidagi baxslar belgi struktur elementlari munosabatiga turlicha yondashish bilan bog`liq ekanligini ta`kidlaydi.

U hozirgi zamon belgilar sistemasi nazariyasining sistemani uch sathda-semantik, sintaktik va pragmatik aspektda o`rganish haqidagi printsiplari til sistemasiga ham va til bslgisiga ham aloqador ekanligini ko`rsatadi. Sistemani semantik va sintaktik aspektda o`rganish pragmatik aspektda o`rganish natijasiga muvofiq kelmasligi mumkin. SHuning uchun ham til belgisi, boshqa har qanday semantik belgi singari, faqat ifodalovchi va ifodalanmish munosabati asosidagina emas, balki ma`lum belgini sistemadagi boshqa belgi bilan (ifodalovchi sathida ham, ifodalanmish sathida ham) munosabati orqali aniqlanishi lozimligini bayon qiladi. Boshqacha aytganda, semiotik sistema belgisini aniqlashda belgi ishtirokchilarining (ifodalovchi va ifodalanmish) "vertikal" munosabati hamda "gorizontal" munosabati (ifodalovchilar o`rtasidagi hamda

ifodalanmishlar o`rtasidagi munosabatlar) e`tiborga olinishi lozim bo`ladi. "Gorizontal" munosabat "vertikal" munosabatdan farqli ravishda ikki planli xususiyatga ega. Chunki u lingvistik belgi ishtirokchilarining ikki tomoni o`rtasida- ifodalovchilar o`rtasida va ifodalanmishlar o`rtasidagi munosabatlarni taqozo etadi. Muallif "Gorizontal" munosabatdagi ikki planlilikni quyidagi sxema orqali aks ettiradi:

<i>A belgi</i>	<i>B belgi</i>
ifodalanmish	ifodalanmish
ifodalovchi	ifodalovchi

T. V. Gamkrelidzening fikricha, lingvistik belgi yuqoridagi ikki xil munosabat orqali aniqlanadigan mohiyatdir. SHuning uchun unga har ikki munosabatni hisobga olmasdan, faqat yuqoridagi munosabatlardan biri orqali berilgan xarakteristika doimo bir yoqlama bo`lib qoladi. F. de, Nossyurning lingvistik belgida motivatsiya munosabati yo`q degan fikri lingvistik belgining faqat vertikal munosabatiga asoslangan. Vertikal munosabatda motivatsiya bo`lmasa, gorizontal munosabatda bo`lishi **mumkin**. Masalan, **devyat' - desyat', fater, mater, brater** o`rtasidagi **fonetik** o`xshashlik gorizontal munosabatda motivatsiya borligini **ko`rsatadi**.

Belgi va til birliklari

Til belgilar sistemasi bo`lishi bilan birgalikda, ayni paytda unda belgilar sistemasiga xos bo`lmagan xususiyatlar ham bor. Demak, til belgisi yuzasidan gapirilganda; eng avvalo, tilning qaysi birliklari nazarda tutilayotganligi xaqida to`xtalishga to`g`ri keladi.

Qaysi til birliklarini belgi deb hisoblash mumkin? Til birligi termini qaysi lingvistik tushunchalarni o`z ichiga oladi? Bu savollarga ham

tilshunoslar turlicha javob beradilar. SHuning uchun ham, avvalo tilda umumiylik – xususiylik dialektikasining namoyon bo`lishi, til va nutq birliklari masalasiga to`xtataylik.

TIL VA NUTQ

Tilshunoslikda til va nutq o`zaro farqlangandan buyon ularning birliklari ham bir-biri bilan o`zaro doimo aloqada bo`lgan alohida-alohida birliklar sifatida ajratiladigan bo`ldi.

N.A.Slyusareva ta`kidlaganidek, F.de Sossyur ta`limotining mohiyati, eng qisqa shaklda ifodalanganda, bu til (lang) va nutq (parol) farqlanishidir. Uning boshqa barcha nazariyalari mantiqan shu asosiy tezisdan kelib chiqadi.

V.YA.Zvegintsev F.de Sossyurning til-nutq qarama-qarshiligi asosida bu hodisalarning quyidagi farqli belgilarini ko`rsatadi .

1. Nutq individual, til umumiy hodisadir. Umumxalq tili doimo albatta alohida nutqiy ko`nikmalarda til sistemasi chegarasida ma`lum o`zgarishga uchraydi.

2. Nutq xarakatchan, dinamik, til esa stabillikka, statiklikka intiladi.

4. Nutq tarixiy, til axronik xususiyatga ega.

5. Nutqiy elementlar o`rtasida sababiy tobelilik, til elementlari o`rtasida funktsional tobelilik mavjud.

6. Til lingvistik qonuniyatlarga bo`ysunadi. U lingvistik "regulyar", nutq esa lingvistik noregulyar, sporodik harakterga aga.

7. Nutq doimo moddiylikka xos. U o`zining funktsiyasi real moddiy sifatga ega bo`lgan birliklar sifatida bajara oladi. Til abstrakt sistema sifatida mavjud. Bunday farqlanish substantsiya va forma o`rtasidagi farqlanish kabidir.

N. A. Slyusareva shu kunga qadar til va nutq qarama-qarshiligiga bag`ishlangan ishlarni umumlashtirgan holda, til va nutqni qutbiy ziddiyat (binar oppozitsiya) asosida uch xil yo`l bilan aniqlash mumkin ekanligini ko`rsatadi:

1) bilish nazariyasi nuqtai nazaridan - gnoseologak aniqlash; 2) til va nutqning xususiyati nuqtai nazaridan-antologik aniqlash; 3) qo'llanish doirasi va foydalanish tarzi nuqtai nazaridan-pragmatik aniqlash. Bu uch xil yo'l bir-birini to'ldiradi.

Gnoseologik jihatdan til va nutq quyidagi belgilar asosida farqlanadi: 1) umumiylik - xususiylilik; 2) abstraktlik - konkretlik; 3) muhim-nomuhimlik; 4) mohiyat - hodisa; 5) zaruriylik - tasodiflik; 6) sifat-miqdor.

Antologik jihatdan etti belgi asosida farqlanishi va har qaysi belgi o'z ichida mayda belgilarga bo'linishi mumkin: 1) psixik - fizik - fizologik; virtual - aktual; imkoniyat - akt va boshqalar; 2) sistema - tekst; sistsma - funktsiya; paradigmatika - sintagmatika; 3) bir xillik - har xillik; 4) invariant - variantlar; o'zgarmas- o'zgaruvchanlik; barqarorlik -daqiqalik va boshqa; 5) butun- qism; 6) jarayon - kvant jarayon; 7) ong - tafakkur.

Pragmatik jihatdan quyidagi uch belgi asosida farqlanadi:

1) sotsial-individual; aloqa vositasi- aloqa jarayoni; vositalar sistemasi - bu vositalarga amaliy egalik qilish; avtomatizma - erkinlik;

2) uzual - akkozional;

3) kod - xabar.

Tilshunoslikda lingvistik birliklar til va nutq oppozitsiyasiga ko'ra ikki xil - "emik" (til sathiga mansub) va "etik" (nutqiy birlik) birliklarga bo'linadi.

Fonema, morfema, leksema singari **ema** elementi bilan tugaydigan birliklar emik birliklar (til birliklari), **allafon, allomorf, alloseks** kabi ala elementi qo'shilgan birliklar etik birliklar (nutq birliklar) sanaladi. Bu lingvistik birliklarning qaysi birlari belgi bo'la oladi va qaysilari asosiy til birligi sanaladi? Bu savolga ham hozirgi tilshunoslikda

turlicha javob berilmoqda.

Agar lingvistik belgining ikki tomonlama mohiyat ekanligidan kelib chiqsak, birinchi navbatda, morfema va soʻzni (leksik soʻz) asosiy til birligi sifatida tan olishga toʻgʻri keladi. Lekin soʻz (leksik soʻz) va morfemani til birligi, alohida belgi sifatida qarash bir xil emas. Ayrim tilshunoslar soʻzni (leksik soʻz) asosiy til birligi, belgi sifatida tan olsalar, boshqalari uning asosiy til birligi ekanligini rad etgani holda morfemaga asosiy til birligi sifatida qaraydilar. Soʻzning (leksik soʻzning) asosiy til birligi ekanligini inkor etuvchilar F. de Sossyurning "tilning konkret birliklarini soʻzdan qidirmaslik kerak" degan fikriga asoslanadilar. Ular goʻyo F.de Sossyur morfemani til sistemasining asosiy birligi sifatida tan oladi, deb tushundilar. Morfemaga til birligi sifatida qarash, ayniqsa, strukturalizmning rivojlangan davrida kuchaydi. Xususan, agglyutinativ va inkorporatsiya tillari materiallari bilan ish koʻrgan Amerika strukturalistlarining ishlarida bunday qarash yorqin namoyon boʻldi.

Deskriptivistlar fikriga koʻra, tilning ichki tuzilishi uch komponentning oʻzaro munosabatidan iborat: ifoda plani (fonologiya, morfologiya, fonomorfologiya), maʼno plani va lugʻat. Maʼno planini oʻrganish ifoda planini oʻrganishga nisbatan samarasiz. SHuning uchum ham uni hozirga qadar ilmiy ssha deb aytish qiyin. Ana shunday asos bilan, odatda, uch markaziy sistema: grammatika yoki morfologiya, fonologiya va morfonogiya, hamda ikki chegara sistema: semantika va fonetika ajratiladi. Xokketning fikricha, yuqoridagi ikki chegara sistemani oʻrganish kelajak oldida turgan vazifadir. Agar morfologiyaning fonologiya bilan uchviy bogʻliqligi hisobga olinsa, deskriptivizmning lingvistik amaliyotida fonologik- morfologik tadqiqotlar qoladi. Fonologiya va morfologiyaning birinchi planga olib chiqilishi natijasida, amalda bu ikki soha anʼanaviy bir

qator tilshunoslik sohalarini qoplaydigan bo'ldi. Xususan, deskriptiv morfologiya faqat bizning tushunchamizdagi morfologiyangina emas, balki sintaksisni ham qamraydi. SHuning uchun ham bu ikki soha yana mayda sohalarni o'ch ichiga oladi. Masalan, morfologiya morfofonemika, morfemika va morfotaktika (morfemalar sintagmatikasi) larga bo'linadi. Bu o'rinda bezis birliga morfema bo'lgan morfologiya va sintaksisning bir sathda tadqiq qilinishi diqqatni tortadi. Morfema grammatik sathning minimal birligi sifatida qaralishi bilan birga, bu birlik leksik sathga ham ko'chiriladi. Amerika strukturalizmi leksika funktsiyasiga ega bo'lgan elementlar birlikni ajratishga ehtiyoj sezmadilar. Bu Amerika strukturalizmiing tilning eng markaziy elementi bo'lgan so'zni inkor qilishining natijasidir. Deskriptiv lingvistikada uchraydigan so'z (vord) termini asosida asosan, morfemalar zanjri, ya'ni morfologik so'z tushuniladi. Ayrim tilshunoslar so'zni (leksema) funktsional birlik, morfemani esa formal birlik sifatida ajratishni tavsiya etadilar.

N.A.Slyusareva F.de Sossyur qo'lyozmalarini o'rganish natijasida, u so'zni til sistemasining markaziy birligi sifatida qaragan, degan fikrga kelish imkoniyatini beradi, deydi. N.A.Slyusareva fikricha, F.de Sossyur so'zning sath xarakterini sezgani holda uning tarkibidagi boshqa birliklarni morfema va fonemalarni aniqlashga intilgan.

Lingvistik belgining tabiati va qanday birliklarni belgi sifatida talqin qilish masalasi xozirga qadar turli baxslarga sababchi bo'lib kelmoqda. So'zni til sistemasining markaziy birligi sifatida ajratilishiga SH.Balli, L.SHcherba ham shubha bildirgan edi. N.D.Arutyunovanning morfemani ikkilanmay belgi deb hisoblashi belgini tilning funktsional birligi sifatida qaramaslikka olib keldi. Bu esa tilning belgilar sistemasi sifatidaga xususiyatiga zid keladi. SHunday ekan, morfemani alohida belgi

sifatida ajratish mumkin emas. CHunki u funktsional birlik emas.

V.Zvegintsev ham so`zni tilning asosiy birligi ekanligini e`tirof etadi. Uning fikricha, so`zdan pastga tushsak, til tomonidan belgilangan diskret munosabatlar tashqarisida qolamiz. V.Zvegintsev har qanday so`zdan quyi birliklar nutq "texnika"sig'a oid ekanligini ko`rsatadi.

So`z (leksema) insonning bilish faoliyati bilan bog`liq. SHunday ekan, so`z belgi sifatida va tilning markaziy birligi sifatida qaralishi lozim. So`zning qiziq tomoni shundaki, u til egasi tomonidan oson ajratiladi, lekin lingvistlar tomonidan qiyin aniklanadi.

So`zning ana shunday qiyin aniqlanishini asos qilib ayrim o`zbek olimlari ham uni til birligi sifatida rad etadilar. So`zga kommunikativ birlik (leksema) sifatida emas, balki morfologik birlik (morfema) sifatida yondashiladi. Ularning fikricha, leksema-so`z (aslida morfologik so`z) nutqiy hodisa bo`lib, morfemalarning nutqdagi kombinatsiyasidan hosil bo`ladi. CHunki so`zdan quyi birliklarni emik va etik birliklarga ajratsa bo`ladi. Lekin so`z bunday xususiyatga ega emas.

Til va nutq birliklarini abstrakt va konkret birlik sifatida qarama-qarshi qo`yish, so`zni shu oppozitsiyaga tushirib bo`lmaslik bu olimlar tomonidan so`zni til birligi sifatida mavjud emasligini asoslovchi dalil qilib keltiriladi. Aslida so`z ham shu oppozitsiyaga tushadi. Til birligi sifatida individ ongida so`zning moddiy qobig`ining umumlashgan obrazi mavjud bo`ladi. Nutqiy jarayonda bu belgi har bir so`zlovchi tomonidan yangidan yaratiladi. Belgining xar safar yangi "nusxalarda" namoyon bo`lishiga so`zlovchining bu belgining bilishi va uni talaffuz qila olishi asos bo`ladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Til nima uchun belgilar sistemasi deyiladi?
2. Belgi nima va lisoniy belgi deganda nimani tushunasiz?
3. Lisoniy belgi strukturasi deganda nimani tushunasiz?
4. Lisoniy belgida ifodalanmish bilan tabiiy aloqa (motivatsiya) bormi? Bu haqdagi qarashlarni bayon qiling.
5. Lisoniy belgining boshqa belgilardan farqi nimada?

ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. Tilshunoslikka kirish (ma'ruzalar matni), - Toshkent: «Universitet», 1999, 1-2-qismlar.
2. Aliyev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan-Toshkent: «O'zbekiston»,1994.
3. Blox M. Ya. Teoreticheskie osnovi grammatiki. M., 1986
4. Budagov R. A. K voprosu o meste sovetskogo yazikoznaniya v sovremennoy lingvistike. - VYA, 1981, № 2
5. Vetrov A. A. Semantika i eyo osnovniye problemi. M., 1968
6. Volkov A. G. Yazik kak sistema znakov. M., 1966
7. Gamkrelidze T. V. K probleme "proizvolnosti" yazikovogo znaka // VYA, 1972, № 6.
8. Zvegintsev V. A. Yazik i lingvisticheskaya teoriya. MGU, 1973
9. Lent'yev A. A. Yazik, rech, rechevaya deyatelnost. M., 1969, s. 43-49
10. Losev A. F. Znak. Simvol. Mif. M., 1982
11. Panov E. N. Znaki, Simvoli. Yaziki. M., 1983
12. Panfilov V.Z.Filosofskie probleme` yazikoznaniya.M.,1977
13. Panfilov V. Z. O gnoseologicheskix aspektax problemi

yazikovogo znaka // VYA, 1977, № 2

14. Savchenko A. N. Yazik i sistema znakov. - VYA, № 6
15. Serebrenikov B. A. O materialisticheskom podxode k yavleniyam yazika. M., 1983
16. Slyusareva N. A. Teoriya F. de Sossyura v svete sovremennoy lingvistiki. M., 1975
17. Solntsev A. M. Yazikovoy znak i ego svoystva.-VYA, 1977, № 2
18. Ne`matov X., Bozorov O. Til va nutq. Toshkent, 1999.

O`ZBEK TILI FONODOGIYASI NUTQ TOVUSHLARINING UCH TOMONI

Nutq faoliyati tovush yoki tovushlar sistemasi orqali ro`yobga chiqadi. Nutq tovushlari o`zida uch aspektni birlashtirgan murakkab hodisadir: birinchidan, u talaffuz organlari bilan boshqariladigan markaziy nerv sistemasining faoliyatidir. SHuning uchun ham uni inson organizmidan tashqari o`rganish mumkin emas. Nutq tovushlarining bu tomoni uni fiziologik (yoki biologik) aspekti hisoblanadi. Ikkinchidan, nutqiy faoliyat bo`lganligidan, u tabiatdagi har qanday tovush kabi akustik (yoki fizik) xossaga ega. Uning bu tomoni akustik (yoki fizik) aspekt sanaladi. Uchinchidan nutq tovushlarining bosh vazifasi kommunikatsiya vositasi bo`lib xizmat qilishdir.

Bu eng muhim tomon funksional aspektni (sotsial yoki lingvistik aspekt ham deyiladi) tashkil etadi.

Funksional tomoni

Nutq tovushlarining haqiqiy funksiyasi, bosh vazifasi funksional aspekt orqali amalga oshadi. SHuning uchun ham ayrim tilshunoslar nutq tovushlarining funksional aspektini boshqa aspektlardan ajratgan holda alohida o`rganish va ularni o`rganuvchi sohani ham ajratishni tavsiya etadilar. Natijada ayni bir ob`ektni turli tomondan o`rganuvchi ikki soha fonetika va fonologiya yuzaga keldi.

Fonetika va fonologiya

Fonologiya termini tilshunoslikda XIX asr oxirida yosh grammatikachilar (mladogrammatiklar) maktabining fonetik qonunlariga javoban, nutq tovushlarining artikulyatsion fiziologik - akustik (fizik) tomonidan funksional (lingvistik) tomonini farqlash extiyoji bilan paydo bo`ldi. Garchi fonologiya termini ko`pchilik tilshunoslar tomonidan e`tirof etilsa ham, ammo bu termin ostida o`rganilishi lozim bo`lgan ob`ekt masalasida bir xillik bo`lmadi. Tilshunoslarning juda ko`p qismi fonologiya termini ostida nutq tovushlarining funksional tomonini, ayrimlari aksincha, artikulyatsion-akustik tomonini tushunadilar. Har ikki holatda ham fonologiya fonetikaga qarama-qarshi qo`yiladi. Xususan, F. de Sossyur shunday deydi: "Tovushlar fiziologiyasi ko`p hollarda fonetika deyiladi. Bu termin, bizningcha, nomuvofiq ko`rinadi. Biz buni fonologiya termini bilan almashtiramiz, chunki fonetika azaldan tovushlar evolyutsiyasi haqidaga ta`limot bo`lib kelgan va shunday bo`lib qolaverishi kerak. . . Fonetika tarixiy fandır: u voqealarni, o`zgarishlarni tahlil etadi, zamonda harakat qiladi. Fonologiya zamondan tashqaridir, chunki, artikulyatsiya mexanizmi doimo o`ziga o`zi o`xshashligacha qolaveradi".

Jahon tilshunosligada fonologiya tilshunoslikning alohida bo`limi

sifatida fonemadarning farqlovchi belgilarini o'rganuvchi soha, deb e'tirof etildi (funktSIONAL tomoni).

YUqorida ta'kidlanganidek, fonologiya fonemalar haqidagi ta'limot sifatida yosh grammatikachilarning fonetikasi ijtimoiy fanlar qatoriga emas, balki tabiiy fanlar qatoriga qo'shish kontseptsiyasiga qarshi yuzaga keldi. Bunday sharoitda an'naviy fonetikaga yangi yaratilgan fonologiyani qarama-qarshi qo'yilishi, so'zsiz, ijobiy hodisa bo'ldi. Ammo keyinchalik bir qator tilshunoslar, xususan, Daniya tilshunosi L.El'mslev va boshqa strukturalizm vakillari asarlarida fonetikadan fonologiyani farqlash shu darajaga etdiki, ular bir-biridan tamoman ajralgan (Fonetika-tabiiy fanlar, fonologiya, ijtimoiy fanlar qatoriga kiradigan) ikki sohaga aylanib qoldi. Natijada fonologiyani birligi bo'lgan fonema so'zining ob'ektiv reallikdagi material asosidan ajratib qo'yildi.

Moskva va Peterburg fonologiya maktablari vakillari esa ularga qarama-qarshi ravishda I.A.Boden de Kurtene va L.V.SHcherbalar an'analarini davom ettirgan holda, bir-biridan ajralgan ikki mustaqil ilmiy predmet-fonetika va fonologiya mavjudligini inkor qiladi. L.V.SHcherba fonologiyani fonetikadan uzib qo'yuvchilarga tamoman qarshilik ko'rsatish lozimligini, ma'lum tilning fonologik sistemasini, har bir fonemaning farqlovchi belgilarini faqat uning shu tildagi konkret talaffuzi asosida tadqiq qilish kerakligini uqtiradi.

R.I.Avanesov ijtimoiy hodisa bo'lgan tilning tovush tomoni bilan til strukturasining elementi sifatidaga nutq tovushlarini o'rganadigan faqat bitta ilmiy predmet muvofiq keyaishini aytadi. Nutq tovushlarini o'rganadigan ikki predmet emas, balki ikki tadqiqot aspekti mavjuddir. Fonologiya fonetikaning yuqoriroq bosqichi sifatida haqiqiy lingvistika predmetiga aylandi va grammatika bilan bir qatorda til strukturasini

o`rganish uchun xizmat qila boshladi. Har qanday fonolog bir vaqtning o`zida fonetistdir. CHunki fonologik oppozitsiyalar konkret tovushlarga asoslanadi. SHu bilan birga har qanday fonetist ma`lum ma`noda fonolog hamdir. CHunki fonetika tadqiqotchisi har qanday tovushlarni emas, balki nutq tovushlarini, ularning ma`lum tildagi farqli belgilarini o`rganadi. SHunday qilib, fonetika va fonologiya o`zaro chambarchas bog`langan. Ularning asosiy o`rganish ob`ekti bitta. Birinchisi eng kichik nutq birliklarini, ikkinchisi esa shu nutq birliklarining farqli (differentsial) belgilarini o`rganadi. Demak, ular o`zlarining ob`ekti jihatidan emas, balki bir ob`ektning turli o`rganish aspekti ekanligi bilan farq qiladi.

Fonologiya birligi

Fonologiya birligi fonemalardir. Fonema - so`z va morfemalarni shakllantiradigan va ularning ma`nolarini farqlash uchun xizmat etuvchi, boshqa mayda bo`lakka bo`linmaydigan tilning eng kichik tovush birligi. Fonemalar haqidagi ta`limot fonologiyadir. Fonologiya ma`lum bir tildagi fonemalar sistemasini, ularning farqli belgilarini o`rganadi. Fonema termini xozirgi tilshunoslikda qat`iy o`rin olgan bo`lsa ham, ammo uning maqomi masalasida xilma-xil qarashlar bor. Fonema tilning eng kichik tovush birligi ekanliga haqidagi dastlabki ma`lumot I.A.Boduen de Kurtenega mansubdir. Lekin bungacha sharq tilshunosligida garchi fonema termini bilan nomlamagan bo`lsa ham, ma`no farqlash uchun xizmat qadigan eng kichik tovush tipi haqidagi tushuncha mavjud edi. Hind tilshunoslari, turkiyshunoslar bu tushunchaga alohida ahamiyat berganlar. Xususan, Mahmud Qoshg`ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar tovushning ma`no farqlash tomoniga katta ahamiyat berganlar. Fonema termini tilshunoslikka eve, Boduenlar tomonidan kiritilgan. Boduen 1870

yildagi "XIX asrgacha bo'lgan qadimga polyak tili haqida" nomli magistrlik dissertatsiyasida fonema haqida fikr yuritadi va uni etimologik - morfologik birlik sifatida talqin etadi. Boduen de Kurtenening fonema haqidagi bu kontseptsiyasi ayni holda uning shogirdi N. V. Krushevskiy tomonidan rivojlantirildi I.A.Boduen de Kurtenening fonema haqidagi tushunchasi o'zgarib bordi. Xususan, "Slavyan tillari qiyosiy grammatikasining ayrim bo'limlari" (1981 y) asarida fonemani, bir tomondan "so'zning fonetik bo'linmas qismi" hisoblasa, ikkinchi tomondan, morfemalar tarkibidagi tovush o'zgarish qonuniyatlarini hisobga olgan holda, boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan tovushlargina emas, balki morfema yoki so'zning tarkibida bo'lakka ajralmaydigan bir butun holdagi ikki va undan ortiq tovushlar ham fonema bo'lishi mumkinligani ko'rsatadi. Masalan, vrahat', vorotit' so'zlaridagi "ra" va "oro" tovushlari bir morfema doirasida bir butun holda almashinadi. Bu bilan u fonemaga fonetik birlik sifatida emas, balki etimologik birlik sifatida qarashini namoyish etdi. SHu bilan birga «xuddi shu erning o'zida fonemaning quyidagi ikki farqli tomoni borligani ham ko'rsatadi: 1) antropofonik (ya'ni akustik-artikulyatsion) xususiyatlarning oddiy umumlashmasi, morfemaning xarakterlanuvchi komponenti va ma'lum morfologik kategoriya belgisi. SHunday qilib, Boduen de Kurtene fonemaning morfologik aspektdan farq qiladigan antropofonetik aspekti ham borligini e'tirof etdi. Keyinchalik esa u o'zining fonema haqidagi tushunchasini o'zgartirdi va unga psixologik nuqtai nazardan yondashdi. Xususan, "Tilshunoslikka kirish" (1917) asarida "Inson psixikasidagi tovush haqidagi tasavvur" fonema hisoblanadi.

Hozirgi kunda uchta yirik fonologik maktab mavjud. Har uch maktab vakillari Boduen de Kurtene fonologik qarashlarini

Peterburg fonologiya maktabida fonema nazariyasi

Peterburg fonologik maktabining asoschisi Boduen de Kurtenening shogirdi L.V.SHcherbadir. U Boduen de Kurtenening fonema soʻz va morfemalarni farqlovchi belgi ekanligi haqidagi taʼlimotini rivojlantirdi. L.V.SHcherba "Sifat va miqdor nuqtai nazaridan rus unlilari" (1912) asarida fonemaga bergan taʼrifdayoq psixologizmdan holi boʻlmasa ham, ammo unda fonemaning funktsional tomoniga eʼtibor sezilib turadi. Uning fikricha, fonema soʻzning fonetik sostavini buzmaganda ajralishi mumkin boʻlgan, soʻzning farqlash va maʼno tasavvuri bilan assotsiatsiyalanish imkoniyatiga ega boʻlgan maʼlum bir tilning umumiy tovush tasavvuridir.

L.V.SHcherba keyinchalik fonemaning funktsional tomoniga, yaʼni maʼno farqlash xususiyatiga asosiy eʼtiborini qaratdi va psixologik talqindan xalos boʻldi. Jumladan, "Frantsuz tili foietikasi" asarida fonemaga sof funktsional tomondan soʻz va uning shakllarini farqlash uchun xizmat qiladigan tovushlar tipi sifatida yondashadi. U fonemani ajratish uchun tovushning artikulyatsion-akustik xususiyati emas, balki maʼno farqlash xususiyati muhim belgi ekanligini taʼkidlaydi. Masalan, soʻroq yuklamasi boʻlgan a? Turlicha akustik-artikulyatsion xususiyatga ega boʻlishi (baland, past, choʻziq yoki tez va boshqa) mumkin. Ammo lingvistik nuqtai nazardan ular bir yuklama, bir tovush tipidir. Shunday qilib, akustik-artikulyatsion jihatdan turlicha tovushlar bir umumiy belgisi bilan boshqa shunday tovush tiplaridan ajralib turadi. L.Shcherba fikricha, ana shunda umumiy belgi uning maʼno farqlash xususiyati orqali ajratildi.

Natijada har bir tilning barcha fonemalari qarama-qarshiliklari sistemasini hosil qiladi. Ko`rinib turibdiki, L.V.Shcherbaning fonologiya kontseptsiyasida fonemaning so`z yoki morfemalarning ma`nosini farqlash uchun xizmat qiladigan farqlovchi belgisi asosiy o`rin egallaydi.

L.V.Shcherba fonologik nazariyasining ikkinchi eng muhim tomoni fonema ottenkalari haqidagi ta`limotdir. Uning fikricha, umumiy (fonema)ning talaffuz qilingan real ko`rinishlari ottenkalardir. Boshqacha qilib aytganda, nutqdagi real talaffuz qilinuvchi tovushlar ottenka hisoblanadi. Demak, fonema va uning ottenkalari o`rtasidagi munosabat ikki bosqich muosabatidir: abstrakt bosqich (fonema), konkret bosqich (ottenka).

L.V.Shcherba ottenkalarni ham tasnif qiladi. Fonemaning ottenkalari ichida bittasi turli sabablarga ko`ra shu fonema uchun tipik bo`ladi. Alohida talaffuz qilingan ottenka ana shunday tipik ottenka hisoblanadi va faqat shu ottenka real nutqiy element sifatida tilga olinadi. Boshqa ottenkalar esa tipik ottenkaga nisbatan turlicha talaffuz qilinadi.

Ularni o`rganish uchun esa maxsus "eshitish ko`nikmasi" kerak bo`ladi. Masalan, o`zbek tilidagi *i* fonemasi til orqa tovushlardai keyin kelib (qil, g`ir-g`ir), til orqa *i* holida, lab unlilardan keyin kelib (tugil), u holida, birinchi bo`g`inda kelib (biroq , sira), bilinar-bilinmas talaffuz qilinadi. Ammo bu ottenkalar bir "i" fonemasining ma`lum sharoitga muvofiqlashgan turli vakillaridir. Boshqa ottenkalar akustik va artikulyatsion tomondan tubdan farq qilishi mumkin. Bu vaqtda ularni birlashtirib turadigan belgi nima? Bu belgini L. V. SHcherba bir sharoitda biri o`rnida ikkinchisi kelolmaslik belgisi hisoblaydi. Bu belgi Amerika tilshunosligi maktabida qo`shimcha distributsiya deb yuritiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan qil, g`ir-g`ir, biroq , sira kabi so`zlar tarkibidagi "i"

fonemasining vakillari o`rnida boshqasini qo`llash mumkin bo`lsa, ular boshqa-boshqa fonemaning vakillari hisoblamadi. Masalan, qil, qo`l, kul, qoL, kal, kel va boshqalar. Bulardan dastlabki to`rttasida unililar biri o`rnida ikkinchisi kelib, ma`no farqlash funktsiyasini bajarsa, keyingi ikkitasi qo`shimcha distributsiya munosabatidagi unli ma`nosiz tovush birikmasini xosil qilyapti. Ma`nosiz tovush birikmasida ham "e" boshqa barcha unililarga va "a" boshqa barcha unililarga qarama-qarshi ko`yilganligi uchun mustaqil fonema hisoblanadi. Agar qil so`zi tarkibidagi "i" ning fonetik sharoitini o`zgartirsak: yo birinchi undoshni, yoki oxirgi undoshni boshqasiga almashtirsak (bil, til, sil, chil, xil, qil, shil; qis, qish, qir, qiz va boshqalar), akustik -artikulyatsion tomondan turli sifatga ega bo`lsa ham, ammo bir i fonemasining vakillari sifatida "eshitiladi".

SHunday qilib, fonema-bu, bir tomondan, barcha ottenkalarining umumlashmasi, ikkinchi tomondan, har qaysisi konkret hollarda shu fonemaning vakili hisoblanadi. Fonema ottenkalari bir-biriga qarama-qarshi qo`yiladi. Ottenkalar gruppasi (fonema) esa boshqa ottenkalar gruppasi (fonema)ga qarama-qarshi qo`yiladi. Natijada L.V.SHcherba fonemani kiskacha qilib "konkret vaziyatda ottenkalar sifatida namoyon bo`ladigan umumlashmadir", deb izohlaydi.

YUqorida ta`kidlanganidek, fonema qarama-qarshi qo`yish asosida aniklanadi. Qarama-qarshi munosabatda bo`luvchi ikki minimal birlik qarama-qarshi a`zolar hisoblanadi. o`zaro qarama-qarshi munosabatda bo`lgan fonemalar bir qator belgalarga ega bo`lib, shu belgilardan bittasi qarama-qarshi munosabatga kiruvchi fonemalarning biri uchun farqlovchi (differentsial), boshqalari farqlamaydigan (nodifferentsial yoki irrelevant) belgi hisoblanadi. Masalan, o`zbek tilidagi T undoshi til oldilik, jarangsizlik, portlovchilik, burun tovushi emaslik, lablashmaganlik kabi

belgilarga ega bo`lib, bulardagi dastlabki uch belgisi farqlovchi, keyingi ikki belgisi farqlovchi bo`lmagan belgilar hisoblanadi. CHunki, o`zbek tilida T tovushi o`rnida shu keyingi ikki belgaga ko`ra oppozitsiyaga kirishadigan undosh qo`llanilmaydi.

Tilning barcha fonemalari ma`lum farqlovchi belgilarga ko`ra guruhlanadi va shu tilning fonemalari sistemasinish tashkil etadigan korrelyativ qatorlarni hosil qiladi. Masalan, o`zbek tilida ovoznning ishtirok etish-etmaslashga ko`ra jarangli va jarangsiz undoshlar korrelyativ qatorlarni xosil qiladi. Masalan, p-b, t-d, s-z, k-g, q-g`, ch-j va boshqalar. SHu bilan birga korrelyativ qatorni xosil etmaydigan alohida qarama-qarshi qo`yish, ya`ni ajratilgan oppozitsiya ham uchrashi mumkin. Masalan, o`zbek tilida "x", "h" undoshlarining jarangli - jarangsizlikka ko`ra korrelyativ qatori yo`q. CHunki ularning jarangli ziddi yo`q.

Moskva fonologiya maktabida fonema nazariyasi

Moskva fonologik maktabi asrimizning 30-yillarida A.A.Reformatskiy ta`biri bilan aytganda, DARS ilmiy markazi asosida shakllandi (DARS nomi bu ilmiy markaz asoschilari Dmitriev, Avanesov, Reformatskiy, Sidorovlarning bosh harflaridan olingan). Peterburg fonologak maktabidan farqli ravishda MFM da fonema ma`lum avtonomlikka ega bo`lgan, so`z va morfemaning tovush kobig`iga bog`liq bo`lmagan mustaqil birlik emas, balki so`z va morfemaning tarkibiy elementi hisoblanadi. PFM va MFM da fonemaga bunday ikki xil nuqtai - nazar bir fonetik qurshovdaga ayrim tovush birikmalarini ikki xil talqin qilishga olib keladi. Masalan, "angla" so`zidagi birinchi tovush A. SHcherba kontseptsiyasi bo`yicha "a" fonemasining varianti, chunki

fonetik qurshovda "a" fonemasidan boshqa barcha fonemalar ottenkasi bilan qarama-qarshi munosabatda bo`la oladi. Moskva fonologik maktabi kontseptsiyasiga ko`ra bu fonema "o" fonemasining varianti, chunki o`zak tarkibida kuchli pozitsiyada (urg`u ostida)) "o" holida talaffuz qilinadi.

Moskva fonologik maktabi kontseptsiyasining katta yutug`i shundaki, ular so`z shaklining tovush tomonini farqlash darajasiga ko`ra uning ikki pozitsiyasi-maksimal farqlash pozitsiyasi (kuchli pozitsiya) va minimal farqlash pozitsiyasi, (kuchsiz pozitsiyaga) ajratadi.

Qurshovdagi tovushlarning ta`siriga kam berilgan pertseptiv tomondan maksimal differentsial pozitsiya fonemalarning kuchli pozitsiyasi hisoblanadi. Rus tili unilari uchun bunday pozitsiya urg`u osti pozitsiyasi, undoshlar uchun esa unli oldi pozitsiyasi hisoblanadi. O`zbek tili unilari uchun so`zning faqat bir unidan tashkil topgan so`zning birinchi bo`g`ini pozitsiyasi kuchli pozitsiyadir.

R.A.Avanesov fonemalar pozitsiyasini tasnif qilar ekan, ma`lum bir fonemaning bir belgisi uchun kuchli pozitsiya shu fonemaning boshqa belgisi uchun kuchsiz pozitsiya bo`lishi mumkinligini aytadi. SHuning uchun u pozitsiyalarni quyidagi to`rt gruppaga bo`ladi:

1. Jarangli-jarangsizlik belgisi uchun ham, qattqlik-yumshoqlik belgisi uchun ham kuchli pozitsiya.
2. Jarangli-jarangsizlik belgisi uchun kuchli qattqlik-yumshoqlik belgisi uchun kuchsiz pozitsiya.
3. Qattqlik-yumshoqlik belgisi uchun kuchli, jarangli-jarangsizlik belgisi uchun kuchsiz pozitsiya.
4. Har ikki belgi uchun absolyut kuchsiz pozitsiya.

Pozitsiya tushunchasi asosida MFM fonema variantlari va variatsiyalarini ham ajratadi. Jumladan, A.A.Reformatskiy kuchsiz

pozitsiyalarni ikkiga-pertseptiv kuchsiz (bilish tomonidan) va signifikativ kuchsiz (farqlash tomonidan) pozitsiyalarga ajratgani holda, birinchi fonema variatsiyalarini, ikkinchisi esa variantlarini hosil qilishini aytadi. Birinчисiga "a" ning turli ottenkalari: "mat", "mat'", "myat", "myat'"; ikkinчисiga so`zning oxirgi, pozitsiyasi - prud va prut kiritiladi.

MFM ning yana bir yutug`i bir belgisi asosida oppozitsiyaga kiritgan fonemalarning bir belgisi uchun kuchsiz pozitsiyada oppozitsiyaning yo`qolishi, ya`ni ikki fonemani bir variantga muvofiqlashuvi-neytralizatsiyasi haqidagi ta`limotdir. Masalan, yod va yot. MFM fonemani avtonom holda emas, balki morfema va so`zning ichida uning elementi sifatida o`rganganligidan, morfonologiyaning vujudga kelishiga qulay sharoit yaratdi.

MFM pozitsiya tushunchasi bilan bog`liq giperfonema tushunchasini ham tilshunoslikka olib kirdi. Masalan, urg`uli bo`g`in oldida kelgan "o" va "a" unlilari rus tilida neytralizatsiyaga uchraydi. Masalan, baran. Bu so`zdagi birinchi a tovushi o fonemasining ham, a fonemasining ham varianti bo`lishi mumkin; ammo qaysi fonemani varianti ekanligini isbotlash kiyin. Bu variant a-o gruppasidagi fonemalardan birining varianti hisoblanadi. MFM terminologiyasi bo`yicha ana shunday fonemalar gruppasi giperfonema hisoblanadi.

Praga tilshunoslik maktabida fonema nazariyasi

Jahon tilshunosligi oldida Praga tilshunoslik to`garagining katta xizmati shundaki, fonologiyani ilmiy-predmet sifatida shakllantirdi. Praga tilshunoslik to`garagining fonologik kontseptsiyasi N.S.Trubetskoyning "Fonologiya asoslari" kitobida mujassamlagan. N.S.Trubetskoy kontseptsiyasi bo`yicha fonologik sistema leksik va grammatik ma`nolarni

farqlash uchun xizmat qiladigan fonologik oppozitsiyalar (PFM bo'yicha fonologik qarama-qarshiliklar) majmuasi sifatida talqin qilinadi. U fonologiyada asosiy rolni fonemalar emas, balki ularning ma'no farqlash funksiyasi o'ynashini ta'kidlaydi.

Har qanday fonema fonologik oppozitsiya sistemasi ma'lum tarkibga yoki strukturaga ega bo'lganligi uchun ham fonologik mazmunga ega bo'ladi. Fonema abstrakt birlik sifatida qaraladi. Konkret tovushlar fonemaning moddiy simvollari hisoblanadi. Fonema moddiy jihatdan bir qancha tovushlar orqali reallashishi mumkin. Bunday reallashgan xar xil tovushlar shu fonemaning variantlari sanaladi.

Praga tilshunoslari variantlarni tasniflab, ularni majburiy, fakul'tativ va individual variantlarga bo'ladilar. Majburiy variantlar, o'z navbatida pozitsion, kombinator va uslubiy variantlarga ajratiladi.

Fonemaning urg'uga, so'z xarakteriga, nutq melodikasiga xoslangan variantlari pozitsion; nutq oqimida yondosh fonemalar ta'siridagi variantlar kombinator; talaffuz uslubi bilan xoslangan variantlari uslubiy variantlar sanaladi (To'liq uslub, og'zaki uslub va boshqalar). Bir pozitsiyaning o'zida so'z ma'nosini o'zgartirmagan holda o'zaro almashinib kelgan variantlar fakul'tativ variantlardir. Fakul'tativ variantlar ko'pincha dialektal farqlanishlar natijasida vujudga keladi. Masalan, boring-barin. Ayrim kishilarning nutq xususiyati bilan bog'liq variantlar individual variant hisoblanadi.

N.S.Trubetskoy fonologik oppozitsiyalarni uch asosga ko'ra tasnif qiladi:

1. Oppozitsiya sistemasi munosabatiga ko'ra;
2. Oppozitsiya a'zolari o'rtasidagi munosabatta ko'ra;
3. Turli pozitsiyalarda ularning amal qilishiga ko'ra.

Birinchi belgiga ko`ra bir o`lchovli, ko`p o`lchovli, proporsional va ajralgan oppozitsiyaga bo`linadi.

Ikkinchi belgiga ko`ra, privativ (oppozitsiya a`zolaridan biri belgining bor yo`qligi bilan ikkinchisidan farq qiladigan oppozitsiya), gradual (nutq apparatining ochilishi darajasiga asoslangan oppozitsiya, masalan: kir-kar), teng qimmatli (mantiqan har ikki a`zo teng huquqli bo`lgan oppozitsiya) oppozitsiyalarga ajratiladi.

Uchinchi belgiga ko`ra esa doimiy va neytrallashgan oppozitsiyalarga bo`linadi.

Neytrallashish jarayonida oppozitsiyaga kirishayotgan fonemalar o`rtasida fonologik qimmatga ega bo`lgan belgi yo`qoladi. Lekin umumiy belgilari saqlanib qoladi. Masalan, o`zbek tilida yot-yod oppozitsiyasida so`z oxirida t-d o`rtasidagi jarangli-jarangsizlik belgisi yo`qoladi, boshqa umumiy belgilari (til oldi, portlovchi) saqlanib qoladi.

N.S.Trubetskoyning fonologik oppozitsiyalar tasnifi amaliy ahamiyatga ega, chunki u ma`lum bir fonemaning fonetik qimmatini belgilashda yordam beradi.

Xullas, barcha fonologik kontseptsiyalarda fonema lingvistik birlik sifatida tan olinadi. Bunday kontseptsiyalarning tayanch nuqtasi Boduen de Kurtenening fonologik nazariyasi hisoblanadi. RFM fonemani so`z va morfemadan ajralgan abstrakt birlik sifatida talqin etsa, MFM unga so`z va morfemalarning tarkibiy elementi sifatida yondashadi.

Praga lingvistik to`garagi fonemani abstrakt birlik sifatida talqin etishda PFM ga yaqin tursa, pozitsion, kombinator variantlar, variantlar neytralizatsiyasi kabi masalalarda MFM ga yaqin turadi.

Farqlovchi belgilar bilan fonemaning atom talqini chambarchas bog`liqdir. Fonemaning atom talqiniga ko`ra farqlovchi belgilar ma`lum

darajada mustaqillikka ega bo`lib, fonema shu farqlovchi belgilar majmuasidir. L. R. Zinder fikricha, bunday talqin farqlovchi belgilarni birlamchi fonologik birlik sifatida tan olishga imkon beradi. Fonema bunday munosabatlar majmuasi sifatida qarash uni material substantsiyadan ajratib qo`yadi. Bu esa ob`ektiv dunyodagi predmetlarning real mavjudligini inkor qiluvchi va L. El`mslevning lingvistik nazariyasiga asos bo`lgan logik pozitivizmning ta`siridir.

Lekin, bizning nazarimizda, tal va nutq farqlanishiga fonemaning bu talqini mohiyat va hodisani aks ettiradi va dialektika qonuniyatlariga to`la muvofiq keladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. *Nutq tovushlarining qanday aspektlari bor?*
2. *Nutq tovushlarining funktsional aspekti deganda nimani tushunasiz?*
3. *Fonologiya nimani o`rganadi? Fonetika bilan aloqasi qanday?*
4. *Fonema nima?*
5. *Peterburg va Moskva fonologik maktablarida fonema qanday ajratiladi?*
6. *Fonema ottenkalari (PFM bo`yicha) va variantlari (Praga va MFM bo`yicha) xaqida ma`lumot bering.*
7. *Fonema pozitsiyasi deganda nimani tushunasiz? Undosh fonemalarning pozitsiyalari asosida pozitsiya turlarini ayting.*
8. *Fonema variantlari qanday turlarga bo`linadi?*
9. *Fonologik oppozitsiyalar deganda nimani tushunasiz va u qanday tasnif qilinadi?*
10. *Fonemalar neytralizatsiyasi va uning shart-sharoiti haqida*

ADABIYOTLAR

1. Begmatov E. O'zbek adabiy tilining mustaqillik davri rivojiga doir. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. 2006 yil. 1-son.
2. Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, "Talqin", 2005 yil. 272 bet.
3. Trubetskoy N.S. Osnovi fonologii. M., 1960.
4. Zinder L.R. Obshaya fonetika. M., 1979.
5. Reformatskiy A.A. Iz istorii otechestvennoy fonologii. M., 1970.
6. Reformatskiy A.A. Fonologicheskie etyudi. M., 1975.
7. Reshetov V.V. Uzbekskiy yazik. ch. 1. Vvedenie. T. 1959.
8. Baskakov N.A., Sodikov A. S., Abduazizov A. A. Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 1979.
9. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1. Toshkent, 1961.

O'zbek tili fonemalarining farqlovchi belgilari

Fonemaning farqlovchi elementlarini ajratishda sistema nuqtai nazaridan yondashilsa, o'zaro ma'lum munosabatda bo'lgan, har qaysisi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan elementlardan tashkil topuvchi bir bugunlik yoki makrosistema (T.P.Lomtev fikriga ko'ra, to'plam) o'zbek tilining barcha fonemalar sostavini o'z ichiga oladi.

Bir butunlik yoki makrosistema o'z ichida ayrim belgisi bilan umumiylikni hosil etgan va shu belgisi bilan boshqa shunday umiyliklardan farq qiladigan kichik butunliklardan mikrosistemalardan tashkil topadi. Masalan, undoshlar sistemasining o'zi, o'z navbatida, jarangsiz undoshlar va boshqalarga bo'linadi. SHunday qilib, bir butundan uning eng kichik

elementga qadar tasnif qilish jarayoni ularning farqlovchi belgilari asosida olib boriladi. eng kichik elementlarni butunliklarga kiritish jarayoni - sintezlash esa elementlar o`rtasidagi integral belgilarga asoslanadi. Butunni turli belgilarga tayangan holda mayda bo`laklarga bo`lish mumkin. Ma`lum bir belgiga asosan har qaysi bo`linish barcha elementlarni o`z ichiga olishi kerak. Masalan, o`zbek tilida undoshlarning jarangli-jarangsiz belgisiga ko`ra bo`linishi barcha undoshlarni o`z ichiga olsa, paydo bo`lish o`rniga ko`ra bo`linishi ham barcha undoshlarni o`z ichiga olishi kerak.

Hozirgi o`zbek adabiy tili fonologik sistemasida so`z va morfema tarkibidagi shu sistemaga kiruvchi elementlarning farqlovchi belgilarga ko`ra olti unli va yigirma to`rt undosh fonema ajratiladi.

Unli fonemalar sistemasi

Tilning uch darajadagi (yuqori, o`rta va quyi) ko`tarilish va lablanish-lablanmaslik belgalari kuchli pozitsiyadagi unli fonemlarning asosiy (konstitutiv) belgilari hisoblanadi. Unlilar qatori (old qator, o`rta qator, va orqa qator) so`z shakl tarkibidagi pozitsiyaga bog`liq bo`lgan belgi bo`lganligi uchun unlilarining asosiy belgilari qatoriga kirmaydi. Unli fonemalarning asosiy belgilariga ko`ra tasnifini quyidagi jadvalda ko`ring:

Unli fonemalar	Asosiy belgilari				
	Tilning ko`tarilish darajasi			Lablangan belgisi bor-yo`qligi	
	yuqori	o`rta	quyi	lablangan	lablanmagan
i	+				+
u	+			+	
u		+		+	

o			+	+	
e		+			+
a			+		+

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, tilning ko`tarilish darajasiga ko`ra o`zbek tilining unli fonemalari oppozitsiyasi "uch pog`onali", lablanish belgisiga ko`ra ikki sinfli to`rtburchak sistemadir.

Keng	o	a
o`rta keng	u	e
(o`rta tor)		
tor	u	i

Lablanish belgisi tor unlidan keng unliga qarab kuchsizlanib boradi: u- kuchli lablangan, u - kuchsizroq lablangan, o - o`ta kuchsiz lablangan.

YUqoridagi unli fonemalar tilning ko`tarilish darajasiga ko`ra bo`linishida (o, a, u, e, o`, i) kenglik, torlik belgilari shu mikrostruktura elementlari uchun birlashtiruvchi, makrostrukturalar uchun esa farqlovchi belgi rolini o`ynaydi. Bu unlilar bir belgiga asoslangan quyidagi teng huquqli oppozitsiyalarni hosil qilishi mumkin: lablanish belgisining bor-yo`qligiga ko`ra (o-a, u-e, i-u), kompaktlik - diffuzlik belgisiga ko`ra, umumiy lablanish belgasiga ko`ra: o(kompakt ochiq) - u (diffuz, yopiq), a (kompakt, ochiq), i (diffuz, yopiq) shu bilan birga bu ikki oppozitsiya a`zolari o`rta ko`tarilish (yarim ochiq, yarim yopiq) unlilariga bir tomondan, "kompakt-kompakt", ikkinchi tomondan, "diffuz-diffuz emaslik" belgisiga ko`ra oppozitsiyaga kirishadi:

o (kompakt) - u (kompakt emas)

a (kompakt) - o (kompakt emas)

i (diffuz) - e (diffuz emas)

u (diffuz) - o` (diffuz emas)

Unlilarning yuqoridagidek oppozitsiyasini A.M. SHcherbak shunday aks ettiradi.

a-e, e-i lablanmagan(oddiy tonnalik)

o-o`, o`-u lablangan (bemor` tonnalik)

ochiq yopiq

yarim yopiq

ochiq yopiq

A.A.Abdualazizov o`zbek tili unlilarini ikki farqlovchi belgisiga ko`ra ham oppozitsiyasini ko`rsatadi. Bunga asosan unlilar quyidagicha oppozitsiyaga kirishadi: (i-u) yopiq lablanmagan - yarim yopiq lablangan:

(i-o) yopiq lablanmagan - yarim yopiq lablangan

(e-o) yarim yopiq, lablanmagan- ochiq lablangan

(a-u) ochiq lablanmagan- yopiq lablangan.

Ko`rinib turibdiki, o`zbek tili unlilarning bir belgi asosida farqlanuvchi uchta oppozitsiyasi, ikki belgi asosida farqlanuvchi oltita (unda lablanish belgisi bilan tilning ko`tarilish darajasi belgisi olinadi) jami 9 ta unlilar oppozitsiyasi mavjud. Agar lablanish belgisi bilan tilning ko`tarilish belgisi alohida olinsa, o`zbek tilida 13 ta unlilar oppozitsiyasi mavjud bo`ladi.

Undosh fonemalar sistemasi

Kuchli oppozitsiyada undosh fonemalarning asosiy belgilari quyidagi belgilar hisoblanadi: shovkin va ovozning ishtirokiga ko`ra paydo bo`lishi o`rni va usuliga ko`ra, palatalizatsiyaning bor-yo`qligiga ko`ra.

Hozirgi o`zbek adabiy tilidagi 24 ta undosh fonemalarning

yuqoridagi sanab o`tilgan asosiy belgilarini quyidagi jadvalda ko`rsatish mumkin:

tablitsa str. 51

Fonemalar																									
	p	b	f	v	t	d	s	z	ch	j	sh	j	k	g	g	k	x	x	m	n	ng	y	l	r	
shovqinli	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+							
sonor																				+	+	+	+	+	+
jarangli		+		+		+		+		+		+	+	+					+	+	+	+	+	+	+
jarangsiz	+		+		+		+		+		+					+	+	+							
portlovchi	+	+			+	+			+			+	+		+	+	+								
sirg`aluvchi			+	+			+	+		+	+				+		+	+					+		
affrikat									+			+													
titroq																									+
burun																				+	+	+			
yon																									+
labial	+	+	+	+																+					
til oldi						+	+	+	+	+	+	+	+								+			+	+
til o`rta																									+
til orqa														+	+							+			
chuqur til orqa															+	+	+								
bo`g`iz																			+						

Fonemaning asosiy belgilari korrelyativ va korrelyativ bo`lmagan belgalar bo`lishi mumkin. Kamida ikki fonemaning asosiy belgilari umumiy bo`lib, birida bor, ikkinchisida yo`qligi bilan ajralib turadigan

belgi korrelyativ belgi hisoblanadi. Ma'lum belgilar majmuasi faqat birgina fonemaning o'ziga xos bo'lsa, bunday belgilar korrelyativ belgi hisoblanadi. Masalan, "p" fonemasida jarangsizlik belgisi asosiy belgilariga ega bo'lgan, ammo undan boshqa korrelyativ belgisining borligi bilan (jaranglilik belgisining borligi bilan) farq qiladigan "b" fonemasi bor. Bundan farqli ravishda "x" fonemasining jarangsizlik belgisi asosiy ammo korrelyativ bo'lmagan belgidir. Chunki uning jarangli belgiga uga bo'lgan ziddi yo`q.

Bir qator undosh fonemalar jarangli- jarangsizlik belgisiga ko'ra korrelyativ juftliklarni hosil qiladi: p-b, k-g, s-z, ch-j, k-g, f-v.

Jarangli-jarangsiz belgisiga ko'ra korrelyativ munosabatga ega bo'lmagan fonemalar bu belgilarga ko'ra juftlikka kirmaydigan hisoblanadi. Masalan: x,y,n,r,l,k.

Fonemalarning asosiy korrelyativ belgilari farqlovchi belgilar sanaladi. Masalan, p fonemasining jarangsizlik, b fonemasining jaranglilik belgalari shu fonemalarning farqlovchi belgalaridir. Chunki bu fonemalarning boshqa barcha belgilari umumiydir.

Fonemaning asosiy belgilari farqlovchi belgi bo'lmashligi ham mumkin. Agar asosiy belgi korrelyativ bo'lmasa, farqlovchi belgi vazifasini o'tamaydi. Masalan, x fonemasining jarangsizlik belgisi farqlovchi belgi hisoblanmaydi. Chunki boshqa belgilari x fonemasi bilan umumiy bo'lib, faqat jarangsizlik belgisiga korrelyativ bo'lgan jaranglilik belgisi borligi bilan undan farq qiluvchi jarangli fonema o'zbek tilida yo`q.

Kuchsiz pozitsiyada korrelyativ munosabatdagi juftliklarning farqlovchi belgilari yo`qolishi mumkin. Korrelyativ juftliklar o`rtasidagi farqlovchi belgilarning yo`qolishi farqlovchi belgalar neytralizatsiyasi hisoblanadi. Masalan, o'zbek tilida so`zning oxirga pozitsiyasi

undoshlarning kuchsiz pozitsiyasi hisoblanadi. SHuning uchun bu pozitsiyada korrelyativ juftliklar o`rtasidagi farqlovchi belgi neytralizatsiyaga uchraydi: bop-bob, tig`-tiq va boshqa. Bu fonemlar o`rtasidagi farqlovchi belgi ularning kuchli pozitsiyaga-unli oldiga olinganda yana tiklanadi.

Undosh fonemalar o`rtasidagi munosabatlarniig turlicha tasnifi uchraydi. Masalan, L. L. Bulanin rus tilidagi barcha undoshlar besh farqlovchi belgi asosida o`zaro oppozitsiyaga kirishi mumkinligini, bu besh belgi, o`z navbatida, uch guruhni: asosiy, korrelyativ, nisbiy belgilarni hosil qilishini ko`rsatadi. Paydo bo`lish o`rni va usuliga ko`ra undosh fonemlar belgisi asosiy, jarangli-jarangsizlik, qattqlik-yumshoqlikka ko`ra belgisi korrelyativ, shovqinlik-sonorlikka ko`ra farqlovchi belgisi nisbiy belgilarga ajratiladi.

Bunga ko`ra har bir undosh asosiy, korrelyativ va nisbiy belgilarga ega. Masalan "b" undoshi portlovchi, labial (asosiy belgi) belgilar majmuasidan iborat.

A.A.Abduazizov umumiy qabul qilingan undoshlarning artikulyatsion tasnifi asosida o`zbek tilida quyidagi birlik oppozitsiyalarni ajratadi:

1. Artikulyatsion o`rni va to`siqning hosil bo`lish o`rniga ko`ra:

a) labial-til oldi: l-t, b-d, m-n, f-s, v-z, f-sh, v-l, v-r;

b) labial-til o`rta, f-i, v-y;

v) labial-til orqa, p-k, b-k, f-x, v-g,

g) labial-bo`g`iz ; f-h, v-h,

d) til oldi- til orqa; t-k, t-k, d-g, s-x, z-g, n-g;

e) til oldi- bo`g`iz: s-h, z-h, sh-h, ch-h, j-h.

Artikulyatsiya usuli va to`siqning qanday hosil bo`lishiga ko`ra:

a) portlovchi-sirg`achuvchi: p-f, b-v, t-s, d-z, t-sh, k-x, d-j, g-g`, k-

x, g-x;

b) portlovchi-affirikat : t-i, d-dj.

v) sirg`aluvchi- affirikat: sh, ch, j, dj.

g) portlovchi- shovqinli- burun sananti: b-m, d-n, g-n:

d) sirg`aluvchi- sonant: z-l; j-r;

e) shovqinli sonant - burun sanant: v-m, l-n, r-n;

j) yon sanant-titroq sonant: l-r;

z) titroq sonant - til o`rta sonant: r-y.

Muallif o`zbek tili undosh fonemlari o`rtasida 58 ta birlik oppozitsiyasi mavjudligini, ikkitalik oppozitsiya bunga qaraganda ikki barobar, ko`plik oppozitsiyalar esa bundan bir necha barobar ko`pligini ta`kidlaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Unlilarning asosiy belgilari nima?
2. Unlilarning qanday oppozitsiyalari bor?
3. Undoshlarning` asosiy belgalarini ayting.
4. Undoshlarning asosiy belgalari nima?
5. Undoshlarning korrelyativ belgilari haqida gapiring.

Adabiyotlar:

1. Mirzaqulov M. Grammatika o'qitishning lingvistik asoslari. - Toshkent: «O'qituvchi» 1994.
2. O'zbek filologiyasining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy nazariy anjumani materiallari. Namangan. 2006 yil.
3. Trubetskoy N.S. Osnovi fonologii. M., 1060.
4. Herbak A.M. O tyurkskom vokalizme "Tyurkologicheskie issledovaniya", Izd. AN SSSR, M., 1963
5. Herbak A.M. Sravnitel'naya fonetika tyurkskix yazikov. L.,

1970

6. Baskakov N.A., Sodikov A. S, Abduazizov A. A. Umumiy tilshunoslik Toshkent, 1979.
7. Bulanin L.L. Fonetika sovremennogo russkogo yazika. M., 1970.
8. Nurmonov A. O`zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. Toshkent, 1990.
9. Abduazievov A. O`zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi Toshkent, 1992,

O`zbek tili morfonologiyasi. Morfologiya tilshunoslikning alohida bo`limi sifatida

Fonema so`z va morfemalar ichida yashaydi. Demak, fonemalar so`z va morfemalarning ichida diskret element sifatida o`zaro sintagmatik munosabatda bo`ladi. Har bir tilda so`z va morfemalarning ma`lum fonetik strukturasi tiplari (modellari) mavjud. Ammo bu masala shu vaqtga qadar, tilshunoslikda etarli o`rganilmadi. SHu bilan birga, ma`lum so`z bir necha morfemalar munosabatidan tashkil topishi va ma`lum turli morfemik qurshovida turlicha allomorf (variant)lar sifatida yuzaga chiqishi mumkin. Masalan: qizil+ar, qazar (il-o), sarig`-ay(ar)-sarg`ay (i-o), bilak-i— bilagi (k-g), kabi (so`zlarda qizil-qiz, sarig`-sarg`, bilak-bilag morfllari bir morfemaning ma`lum pozitsiyasiga xoslangan turli variantlaridir. Bu o`rinda k-g allofonlarining almashinuvi hech qavday fonologik funktsiya bajarmaydi. Yoki rus tilidagi beg-u- bejish` tipidagi almashinuv fonologiyaning ham morfologiyaning ham tekshirish ob`ektiga kirmaydi. CHunki fonologiyaning vazifasi ma`lum tildagi fonemalar miqdori va

sistemasini belgilash, shuningdek, fonemalarning pozitsiyalari bo'yicha bo'linishini va har qaysi pozitsiyada fonemalar variatsiyalarining hosil bo'lishini tavsiflashdan iborat bo'lsa, grammatika grammatik ma'no va uning ifodalanish vositalari haqidagi ta'limotdir.

Morfologik almashinish, o'z-o'zidan fonetika bo'limida o'rganilmaydi. Chunki, bu erda hech qanday fonetik hodisa yo'q. SHuning uchun, avvalo, yuqorida fonetik almashinishning harakterli xususiyatlariga alohida e'tibor berish, uning tilshunoslikning qaysi bo'limining tekshirish ob'ekti bo'lishi kerakligini aniqlash lozim.

Tovush almashinuvi uzoq vaqtlardan buyon lingvistlar tomonidan o'rganib kelinadi. Qiyosiy tilshunoslik o'zining dastlabki taraqqiyot bosqichidayoq tovush almashinuviga katta e'tibor berdi. Ayniqsa, german tillari tadqiqotchilari bu masalani alohida o'rganadilar. Chunki tovush almashinuvi german tillari morfologiyasida asosiy o'rin egallar edi.

YAqin yillargacha hind-evropa tillarida unlilar almashinuvi (ablaut) fonetik hodisa hisoblanib kelinadi. Bunday qarash ayniqsa, yosh grammatikachilar maktabiga (K. Brugman, G. Xirt va boshqatar) xosdir. Ablautga fonetik hodisa sifatida qarash hozir ham ayrim tilshunoslar asarlarida uchrab turadi. Ayniqsa, slavyan tilshunosligida keng tarqalgan. Tovush almashinuvlariga bunday qarashni A.A.Reformatskiy haqli ravishda keskin tanqid qildi.

Tilshunoslik tarixida tovush almashinuvi nazariyasining ishlanishida I.A.Boduen de Kurtene va N.V. Krushevskiylar alohida o'rin egallaydilar. Ular birinchi bo'lib tilshunoslik tarixida tovush o'zgarishlari va almashinuvlarini bir-biridan farqlab o'rganadilar. I.A.Boduende Kurtene tildaga barcha tovush almashinuvlarini ikki kategoriyaga bo'ladi.

Kombinator xoslangan alternatsiyalar traditsiyaga asoslangan

alteriatsiyalar. Ular birinchi tipldagi alternatsiyalarni fonetikaga, ikkinchi tipldagilarni esa morfologiyaga kiritish lozimligini tavsiya qiladi.

F.de Soossyur ko'pgina lingvistlar almashinuv materiali tovush bo'lganligi uchun uni fonetik xodisa hisoblab, xatoga yo'l qo'yayotganligani, aslida almashinuv kanday material asosidan iborat bo'lishidan kat'i nazar, u grammatikaga oidligini ta'kidlaydi.

Lekin bu hodisa grammatikaning tekshirish ob'ektidan bir muncha farq qiladi. U vaqtda yuqoridagi hodisalar tilshunoslikning qaysi bo'limiga oid bo'lishi kerak? Til va uni o'rganadigan tilshunoslik birliklari uyg'unligi uchun doimo qayg'urib kelgan I.A.Boduen de Kurtening o'zida ham bu masala ochiq qoldi. SHunday bo'lishiga qaramasdan I.A.Boduen de Kurtene asarlari tilshunoslikka fonetika va morfologiya oraligada yangi bo'limning ajralib chiqishiga turtki bo'ldi. Uning g'oyalari tayanib N.S.Trubetskoy morfonologiya (fonomorfoligiya) nazariyasiga asos soldi.

E.A.Makaev va E.S.Kubryakova hakli ravishda ta'kidlanganlaridek, I.A.Boduen de Kurtene ham, N.V. Krushevskiy ham bu sohada izlanish natijalarini bir nazariya doirasida umumlashtirmadilar. Tilshunoslikning yangi bo'limi morfonologiyaning haqiqiy yaratuvchisi N.S.Trubetskoy bo'ldi.

N.S. Trubetskoy ma'lum bir tilning fonologik vositalarini morfologik nuqtai nazardan o'rganishni morfonologiya ob'ekti hisoblaydi.

Uning fikricha, faqat som va hind-yevropa tillari grammatikasidagina emas, balki barcha tillar grammatikasida fonologiya va morfologiya oralig'ida ularni bog'lab turuvchi "ko'prik" sifatida morfonologiya faxriy o'rin olishi kerak. Morfologiyaga ega bo'lmagan tillar morfonologiyaga ham ega bo'lmaydi. Morfonologiya har bir tilning o'ziga xos hususiyatlari haqida ma'lumot beradi. Morfonologiya nuqtai nazaridan qaralgan ayrim

til tiplarini esa dunyo tillarining ratsional tipologiyasida gruppalariga ajratish ancha qulay.

N.S. Trubetskoy morfonologiya nazariyasi quyidagi uch bo`limni o`z ichiga olishi kerakligini ko`rsatadi:

1. Morfemaning fonologik strukturasi haqidagi ta`limot.

2. Morfemalar o`zaro birikkanda, morfema tarkibida yuz beradigan tovushlarning kombinator o`zgarishlari haqidagi ta`limot.

3. Morfologik funktsiya bajarmaydigan tovush almashinuvi haqidagi ta`limot.

Bu uch bo`limdan faqat birinchisi hamma tillar uchun bir xil ahamiyatga egadir.

Bunga ko`ra morfonologiyaning birinchi vazifasi har kandy tildagi o`zak, affiks morfemalarning fonetik (fonologik) sturukturalarini o`rganishdir. Darhaqiqat, o`zak va affiks morfemalarning fonologik strukturasi o`rganish ma`lum bir tilning o`ziga xos xususiyatlarini ochib berishda katta ahamiyatga ega. CHunki ayrim undosh va unli fonemlarning u yoki bu morfemada qo`llanilishi cheklangan, Masalan, turkiy o`zak morfema boshida hech qachon ng undoshi kelmaydi. SHuningdek, sof turkiy so`zlar o`zagida qo`sh undoshlar ham ishlatilmaydi. (st, lt kabilar mustasno). Singarmonizmga amal qiladigan tillarda o`zak morfema tarkibida ishlatiladigan unililar sostavi affiks morfemalardagiga nisbatan ko`proq bo`ladi, chunki affiks morfemalar vokalizmining ko`p belgilari o`zak morfema unilarga bog`liq bo`ladi.

Morfonologyaning boshqa bo`limlari o`rganadigan hodisalar turli tillarda turli darajada namoyon bo`ladi. Jumladan, agglyutinativ tillarda ikkinchi bo`lim morfonologyaning asosiy bo`limi hisoblanadi.

A.A.Reformatskiy fikriga ko`ra, N.S.Trubetskoyning morfonolo-

giya haqidagi ikkinchi punktida aks etgan "kombinator" tovushi o'zgaruvchi ifodasi hodisa moxiyatini xarakterlamaydi. U bu o'rinda morfemalar varianti (p, ech-p, ek) yoki fonemalar almashinuvi (k-ch) haqida gap ketishi kerakligini aytadi.

SHunday qilib, hozirgi kunda morfonologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ko'pchilik tilshunoslar tomonidan tan olindi. Faqat roman-german, slavyan tilshunosligidagina emas, balki turkologiyada ham bu masalaga bag'ishlangan bir qator asarlar maydonga keldi.

Morfologiyaning o'rganish ob'ekti

Morfologiyaning o'rganish ob'ekti masalasida N. S. Trubetskoydan keyin xilma-xil fikrlar yuritildi. N. S. Trubetskoy tavsiya qilgan uch bo'limning faqat oxirgisi - an'anaviy almashinuvlarga morfologiyaning o'rganish ob'ekti bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. "Russkaya grammatika" (1980)da ham xuddi shunday pozitsiya ko'zga tashlanadi.

SB.Bedshteyn avvalo fonetik o'zgarishlar (foneticheskie izmeneniya) va fonetik almashinuvlar (foneticheskie cheredovaniya)ga ajratgani holda birinchisi (vada-vodno'y) so'zlarida bir morfema ikki xil ifodalangan: vad-vod, faqat fonetik pozitsiya bilan bog'liq bo'lib, fonetik harakter kasb etadi. Ikkinchisida esa (gnat'-gonyat', nesti-nosit', lezt'-lazit') o'zak morfemalar variantlari o'zaro boshqacha munosabatdadir. Bu o'rinda variantlar fonetik pozitsiya bilan emas, balki grammatik (leksik, gramatik), so'z yasalishi, leksik va boshqa shart-sharoitlar bilan izohlanadi.

O'z navbatida almashinuvlarni ham turlarga bo'lish lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, fonemalar ham, morfemalar variantlari (allomorflar) ham almashinishi mumkin. Almashinuvda ma'lum grammatik pozitsiyada morfema ustiga qo'yiladigan urg'u, intonatsiya va boshqalar ham belgilovchi faktor bo'lishi mumkin. YUqorida ko'rsatilgan almashinuvlardan faqat birinchisi morfonologik almashinuv bo'lib, u morfologiyaning o'rganish ob'ekti bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Ikkinchi tipdagi almashinuvda allomorflar almashinuvi yuzaga chiqishi va uning so'z yasalishi bo'limiga oidligi, uchinchisi esa super-segment almashinuv ekanligi aytiladi.

O.S.Axmanova morfologiyaning o'rganish ob'ektini ancha kengaytiradi. U morfologiyani turli fonemalarning morfonologik

elementlarini hosil qilish uchun qo'llanish printsiptini o'rgatuvchi fan sifatida talqin qiladi.

V.A.Red'kin morfonologiya doirasini yanada kengaytirdi. Uning fikricha, morfonologiya bu so'z strukturasi va fonema, prosodema terminlari bilan nomlanadigan, uni tashkil atuvchi komponentlar haqidagi ta'limotdir. U morfonologik fositalarga urg'u, so'z komponentlarining joylashish tartibi va qo'shilish qoidalari, ularning variatsiya (almashinuv) qoidalari interfiksatsiya va boshqa ayrim so'zning tovush elementlarini kiritadi.

E.A. Makaev va E.S. Kubryakovachar morfonologiya-bu morfemalarning fonologik strukturasi haqidagi ta'limot, deb hisoblaydilar. Morfologiyaning bevosita o'rganish ob'ekti morfonologik qatorlar bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar.

E.S. Kubryakova yana boshqa bir asarida morfema qurilishidagi va bir morfemaning morflari sostavidagi fonologik farqlanish hamda bu farqlanishlarning funktsional maqsadda qo'llanilishi morfonologiyaning o'rganish ob'ektiga kirishini aytadi.

V.G. CHurganovanning fikricha, morfonologiya morfema va so'z tarkibidagi fonemalarning tashkil topishi haqidagi ta'limotdir. U morfonologiyaning quyidagi muammolar bo'yicha baxs yuritishi lozimligini ko'rsatadi.

Etakchi va ko'makchi morfemalarning shakllanishida xizmat qiladigan fonemalarning tartibi va sostavi.

Morfem birliklarining so'z ichida birlashish jarayonida fonemalar tartibi va sostavining o'zgaruvchi (modifikatsiyasi).

Bundan modifikatsiyalarning doimiy va ularning so'z yasalishi va so'z o'zgarishi sistemasidagi o'rni.

Tarkibidagi fonemalar sostavi va tarkibiga bog'liq ravishda morfologik elementlarning tanlanish qonuniyati.

G'arb tilshunosligidagi morfonologiyaga bunday xilma-xil qarashlar turkologiyada ham aks etmoqda. Xususan, "Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov", "Fonetika" kitobining fonomorfologiya bo'limi E. S. Kubryakova kontsepsiyasiga asoslangan. Boshqird tili grammatikasida esa agglyutinatsiya va reduplikatsiya jarayonida yasalish asoslari o'rtasida yuz beradigan fonetik o'zgarishlar morfonologiya predmeti hisoblanadi.

M.Z. Zakiev ham morfonologiyani morfemalarning fonologik strukturasi o'rganuvchi ta'limot sifatida tushunadi. SHu bilan birga, turkiy tillar morfonologiyasiga bag'ishlangan ishlarda turkiy tillar uchun harakterli bo'lgan singarmonizm hodisasi ham morfonologiyaga kiritiladi.

A.A. Reformatskiy esa, birinchi bo'lib turkiy tillar morfonologiyasi haqida fikr yuritib, qozoq va qirg'iz tillaridagi singarmonizm hodisasini tadqiq qilar ekan, turkiy tillardagi unililarning singarmistik variantlari gramatik fakt darajasiga ko'tarilmasligi, shuning uchun ham u morfonologiya doirasida emas, balki faqat fonetika doirasida o'rganilishi lozimligini ta'kidlagan edi. Lekin turkiy tillardagi morfemalar variatsiyalari ko'p hollarda bevosita singarmonizm hodisasi bilan bog'liq bo'lganligi tufayli, singarmonizm hodisasini ham morfonologiya doirasida o'rganish foydadan holi bo'lmaydi.

Morfonologiya birligi. Morfonema va subforma haqida

Har qaysi tilshunoslik bo'limining o'z o'rganish birligi bor: fonologiyani fonema, leksikologiyani leksema, frazeologiyani frazema, morfemikaniki morfema, morfologiyani so'zforma,

sintaksisniki-sintaksema (Muxin) va boshq. SHuning uchun ham ayrim tilshunoslar morfonologiyaning ham birligini ajratmoqchi bo'ldilar va bu birlikni morfonema (morfofonema) deb nomladilar.

Tilshunoslikka morfonema terminini dastlab polyak tilshunosi G. Ulashin olib kirdi. Uning fikricha, morfonema-bu semasiologik-morfologik vazifadagi fonemadir. Masalan, zabka (zapka) so'zlari o'zagadagi oxirgi undosh bir morfonema, ammo turli fonemalardir (b-p). U "tovush"ga tildan tashqaridagi hodisalarni-shamol guvillashi, hayvon ovozi, umumiy tabiiy tovushlarni kiritadi. Tildagi tovush va fonemalarni ajratmaydi, ularni bir umumiy nom - fonema ostida talqin etadi. SHunday qilib, G. Ulashin tovush, fonema, morfonemalarni ajratadi.

G. Ulashning morfonema kontseptsiyasi Amerika tilshunosligiga ham ta'sir etdi. Xususan, D. Treyjer rus tilida besh unli fonemani morfonema hisoblaydi.

N.S.Trubetskoyga morfonologiya nazariyasini asoslash uchun morfonema termini juda qo'l keldi. Ammo bu termin ostida G. Ulashin ifodalagan hodisadan boshqa xodisani aks ettirdi. Masalan, N. S. Trubetskoy ruka so'zidagi k ruki so'zidagi k o'rtasidagi farqni bir fonemaning turli fonetik reallashuvi (variantlari) deb tushunsa, G. Ulashin ularni bir morfonemani reallashtiruvchi ikki fonema deb izohlaydi.

N.S.Trubetskoyning fikriga ko'ra, ruka va ruchnoy so'zlaridagi ruk va ruch fonetik birikuv bir morfonemaning ikki fonetik shaklidir. Bir morfema tarkibidagi so'zning morfologik strukturasi talabi bilan biri o'rnida ikkinchisining almashinib kelishi mumkin bo'lgan ikki va undan ortiq fonemaning kompleks obrazi morfofonema yoki morfonema sanaladi. Masalan, ruk (ch) so'zning ikki shaklidagi k (ch) tovushlari kompleks obrazni xosil qilyapti.

N.S.Trubetskoyning morfonema haqidagi bunday talqinini boshqacha izohlaganda, morfonema-bu morfologik al'ternatsiya a'zolari majmuasidir. Masalan, rus tilidagi ruka-ruchka, begu-bejish', den'-dnya, son-sna kabi so'zlaridagi k-ch, g-j, e-nul', o-nul' va boshqa.

A.A.Reformatskiy morfonema tushunchasini inkor qiladi. U morfonologiyaning til strukturasi uchun ikki "bazisli" sathini: fonologiya va morfologiyani (morfemika) bog'lab turuvchi "bazasi yo`q" oraliq sath - "ko`prik" ekanligini ko`rsatiladi. A. A. Reformatskiy fikricha, morfonologiya bazissiz" sath sifatida o`zining birligiga ega emas. Ularniig bir tomondan, "bazisli sath" fonologiyaga, ikkinchi tomondan "bazisli sath" morfologiyaga (morfemika) va uning birliklari- fonema va morfemalarga tayanadi. U hech qanday "morfonema"ning yo`qligi va bo`lishi ham mumkin emasligini ga`kidlaydi. Xudtsi shunday fikr S. B. Bernshteyn tomonidan ham bayon qilinadi. Uning fikricha N. S. Trubetskoyning rus morfonologiyasiga bag`ishlangan asari mashhur lingvistning e'tiborga tushmagan asarlaridan biridir. Bu asar rus grammatikasiga ta'sir etmadi. Bunga bosh sabab shuki, N. S. Trubetskoy morfonologiya problemasini nihoyatda kengaytirib yubordi. Morfonologiya va so`z yasalishi o`rtasida, morfonologiya va fonologiya o`rtasida aniq chegara belgilanmagan. Amalda mavjud bo`lmagan birlik-morfonemaning ajratilishi ham morfonologiya tarixida salbiy rol' o`ynaydi.

V.G.CHurganova morfonologiya birligi sifatida morfonema bo`lishini ma`qullaydi. Uning fikricha, morfonema morfologik sathining elementar birligidir. Rus tilida u ko`proq kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi fonema qatorlarini o`z ichiga oladi. Demak, morfonemalar morfema (morf) komponenti sifatida qaraluvchi bir sinfdagi kuchli va kuchsiz fonemalar birligini aks ettiradigan birlik. SHu bilan birga, u morfonologiyaning

yuqori birligi sifatida submorfni ham ajratadi.

Ma'lumki, morfema ma'lum ma'no ifodolovchi eng kichik **shakl**dir. Bu shakl bir ma'no bilan bog'langan va turli qurshovda uchraydigan bir necha shakllarning birligi bo'lishi ham mumkin. Bunday **shakllar** morf, allomorf yoki morfema al'ternantlari sanaladi. V. G. CHurganova morfni ma'lum jihatdan morfenem qatori deb tasavvur qilish va morf strukturasi qandaydir morfonologik qonuniyati haqida gapirish mumkinmi? Degan savolga quyidagicha javob berdi. Agar til sun'iy qurilma bo'lganda edi, extimol, morf shunday shakllangan bo'lar edi. Differentsial belgilarning ma'lum sintaktik qoidasi asosida fonema, fonemalar sintaksisi asosida morf turli qurshovda uchraydigan va bir ma'no ifodolovchi morflar asosida morfema, morfemalardan so'z qurilgan bo'lar edi. Ammo til sun'iy qurilma emas, u ko'p asrlik tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot jarayonida uning ayrim elementlari morfonem qurilmasini saqlagani holda ma'nosini yo'qotadi. Mazmun plani nuqtai nazardan ajralmaydigan bu morfonem qator morfonologik strukturaning boshqa elementi bilan o'z aloqasini saqlagan holda, morfonologik nuqtai nazardan bo'laklarga ajralishi mumkin. Ana shunday birliklar subform (yoki fonoform) deb nomlanadi. Uning fikricha, subform morfonemaning doimiy qatori, so'zning tovush qobig'ining barqaror shakllangan elementlarining morfonologik yaxlitligini ifodalovchi birlik. Masalan: ets (gor-ets, ko'p-ets, ogur-ets) -k, (ruch-k-a, trop-k-a; poch-k-a; plosh-k-a, prob-k-a).

Morfonema tushunchasi turkologiyaga ham kirib keldi. Xususan, M. Zakiev morfonema tushunchasini yoqlagani holda, an'anaviy al'ternatsiyalarni pozitsion almashinuvlardan ajratmagan holda almashinuvchi fonemalar kompleksini morfonema deb hisoblaydi.

A. A. Abduazizov esa A. A. Reformatskiy fikrini quvvatlab,

quyidagilarni yozadi;" ... Morfonologiya grammatikaga ham, fonologiyaga ham kirmaydi, lekin ularning birliga bo'lgan fonema va morfemadan foydalanadi. Ba'zi tilshunoslar tomonidan taklif etilgan "morfonema" terminy (G. Ulashin, N. S. Trubetskoy va boshq) o'z kuchini yo'qotadi, chunki u fonemalarning morfemalardaga almashuvi (masalan "ruka-ruchka"da (kg`ch) natijasida bir yo`la ikki fonemaga to`g`ri keladi.

Darhaqiqat, fonema variantlari morfema tarkibida uni tashkil etuvchi eng kichik birlik sanalar ekan va fonema konkret morfema va so`zlar tarkibida turli variatsiyalarga uchrar ekan (Moskva fonologik maktabi kontseptsiyasi bo'yicha), demak morfema va so`z tarkibidagi har qanday tovush almashinuvlar fonemalar doirasida yuz berdi.

Tilshunoslikdagi hamma sathlarning o'z birligi bo'lishi shart emas. Masalan, morfonologiyadan tashqari, so`z yasalishi ham ikki sath birliklari (yasalish usuli morfemika bilan bog`liq bo`lsa, yasalma leksema sifatida morfologiyaning tekshirish ob`ekti bo`ladi) bilan ish ko`radi.

SHunday qilib, hozirgi kunda til sturukturasi fonologiya bilan morfemika sathlari oralig`ida morfonologiya sathining mavjudligi ko`pchilik tilshunoslar tomonidan tan olindi. A. A. Abduazizov ta`kidlaganidek, morfonologiyani alohida til bosqichi deb hisoblab, unga tegishli barcha xususiyatlarni o`rganish tilning ichki strukturasi bo`yicha ba`zi payqalmay qolgan alomatlarini aniqlashda katta yordam beradi.

Grammatikaning boshqa bo`limlari singari, morfonologiya ikki asosiy ma`noda qo`llanadi: birinchidan, ma`lum qurshovda morfema tarkibidagi har qanday fonologik o`zgarish sistemasi; ikkinchidan, shu o`zgarishlarni o`rganuvchi tilshunoslik bo`limi. Har qanday o`zgarishni tovushlar, fonemalar yoki fonemalar komplekslarning almashinuvlariga kiritish mumkin. SHuning uchun ham morfonologiyaning asosiy o`rganish

ob'ekti sifatida almashinuvchi tovushlar, fonemalar, fonemalar kompleksi qaralishi lozim. Tilshunoslikning boshqa bo'limlarida o'rganilmaydigan quyidagi masalalar morfonologiyada o'rganilishi kerak:

1. So'z va bo'g'inning fonologik strukturasi.
2. So'z va morfemaning ma'lum qurshovdagi variatsiyalari.
 - a) agglyutinatsiya jarayonidagi almashinuvlar. Singarmonizm.
 - b) kompozitsion so'z yasalihi jarayonida fonetik o'zgarishlari.

Aktsent-ritmik strukturaning o'zgarishi.

v) reduplikatsiya jarayonidagi fonetik o'zgarishlar. O'zak qisqaruvi.

Savol va topshiriqlar.

1. Morfonologiya nima? U tilshunoslik bo'limlari orasida qanday o'rin egallaydi?

2. Morfonologiya kim tomonidan tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida tavsiya etilgan?

3. Morfonologiya nimani o'rganadi?

4. Morfonologiyaning alohida sath birligi sifatida ajralishiga munosabatingiz qanday?

Adabiyotlar:

1. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent, 2005 yil.
2. Sobirova M. O'zbek tili fani o'qitilishining dolzarb masalalari. Til va yarjima muammolari. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Toshkent, "Fan" nashriyoti. 2007 yil XXI asrda o'zbek tili ta'limi masalalari.
3. Trubetskoy N. S. Nekotorie otnosheniya otnositelno morfonoligii. "Parijskiy lingvisticheskiy krujok" to'plami M.,

4. Zakiev M. 3. O tyurkskoy morfonologii. - Sovetskaya tyurkologiya. 1984, № 1
5. Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov. Fonetika. M., 1984.
6. Baskakov N. A., Sodiqov A. S. Abduvazizov A. A Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 1984
7. Makayev E. A., Kubryakova E. S. O premete i zadachax morfonologii i eyo mesto sredi drugix lingvisticheskix distsiplin. "Edinitso` raznix urovney grammaticeskogo stroya i ix vzaimodeystviye" to`plami. M., 1967.
8. Axmanova O. S. Fonologiya, morfonologiya. M., 1966
9. Redkin V. A Postroeniie razdela "Morfonologiya", "Osnovo` postroeniya opisatelnoy grammatiki sovremennogo russkogo" to`plami, M., 1966.
10. Bernshteyn S. B. Vvedenie v slavyanskuyu morfonologiyu. VYA, 1968, № 4
11. Reformatskiy A. A. Eshe raz o statuse morfonologii eyo granitsax i zadachax. "Fonologicheskie etyudi" kitobi. M., 1975.
12. YU.Lopatin V. V. Uluxanov I. S. K soostnosheniyu edinits slo-voobrazovaniya i morfologii. "Edinitsi raznix urovney grammaticeskogo stroya i ix vzaimodeystviye" to`plami, M., 1969.
13. Cho`rganova V. G. Ocherk russkoy morfonologii. M., 1973
14. Kubryakova A. S. Pankrats N. G. Marfonologiya v opisanii yazikov. M., 1983.

15. Nurmonov A O`zbek tili fonologisi va morfonologiyasi. Toshkent, 1990.
16. M.Abduazizov A. O`zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. Toshkent, 1992.

SO`Z TUZILISHI SO`Z VA BO`G`IN TUZILISHI

Turkiy so`zlar arxitektonikasi uning o`zak morfemasining bir bo`ganligi bilan xarakterlanadi. Bir bo`g`inli o`zak morfemalar to`rt xil fonetik strukturada uchraydi: un-dosh+unli+undosh (SGS), undosh+unli+undosh (SGS), undosh+unli (SG), unli+undosh (GS), unli (G). O`zak morfemalarning bunday fonetik strukturalaridan qaysi biri birlamchi ekanliga masalasida turkologlar o`rtasida bir xillik yo`q. Xususan, N. A. Baskakov, qadimgi turkiy o`zaklar bir bo`g`inli va uch tovushli (SGS) bo`lganligi, o`zakning kelib chiqqanligini ta`kidlaydi. N.A.Baskakov fikrini Sh.X.Okboyev Sh. Shoabduraxmanov va A. Ishaevlar ham ma`qullaydilar.

B.M.Yunusaliyev fikricha, qadimgi turkiy o`zaklarning birlamchi fonetik sturukturasi SG tipida bo`lgan. SG-S strukturasidagi uchinchi undosh grammatik funktsiya bajargan. SHunday fikr A.E.Kononov tomonidan ham ta`kidlanadi.

Qadimgi turkiy o`zaklarning anlauti masalasida, darhaqiqat u qadimgi bir bo`g`inli turkiy o`zaklarning fonetik strukturasi nazar tashlansa, unli bilan boshlangan o`zaklar juda oz qismini tashkil etadi. Masalan, A. M. Hcherbakning turkiy tillarning qiyosiy fonetikasiga bag`ishlangan kitobining oxirida keltirilgan qadimgi turkiy bir bo`g`inli so`zlar lug`atida jami 473 ta o`zak keltiriladi. SHulardan 408 tasi undosh

bilan boshlanadi. Demak, unli bilan boshlangan soʻz atiga 17 foizni tashkil qiladi, holos. Bu esa N.A. Baskakovning fikrida jon borligini koʻrsatadi.

Hozirgi oʻzbek tilida SGS tipidagi turkiy oʻzak morfemalar anlautida j, ng undoshidan boshqa barcha undosh fonemalar kela oladi. Masalan, bor-b, tor-t, zor-z, nor-n, kor-k, yir-y, sol-s, hol-x, hol-h, lol-l, rol-r, mol-m, pol-p, chol-ch, nyul-sh, fol-f, val-v, jar-j va boshqa. (Qadimgi turkiy soʻzlar anlau-tida esa l va r sonorlari ham kelmaydi. Bunday undoshlar bilan kelgan soʻzlar ham oʻzlashgan qatlamga mansubdir.

Demak, oʻzbek tilida soʻz boshida ng undoshi turkiy soʻzlar boshida j (sirgaluvchi) undoshi kela olmaydi. Agar hozirgi oʻzbek tilida soʻz boshida j undoshi kelib qolsa, u vaqtda bunday soʻzlar oʻzlashgan katlamga mansub ekanligini koʻrsatib turadi.

Turkiy soʻzlar boshida undoshlar qator kelmaydi, yaʼni SSGS tipidagi struktura turkiy tillar uchun xos emas. Biroq hozirgi oʻzbek tilida programma, traktor, spravka singari bir qancha qator undosh bilan boshlanuvchi soʻzlar uchraydiki, bunday soʻchlar oʻzbek tili soʻzlari va uning boʻgʻinlari fonetik strukturasini yangi xususiyat bilan boyitadi. Bu soʻzlar hozirgi oʻzbek orfoepiyasida oʻz holicha talaffuz qilinsa ham, ammo keksa avlod tilida qator undoshlar oldidan yoki undoshlar oraligʻiga bir unli orttirish bilan oʻzbek tilining oʻzita xos qonuniyatiga moslashtiriladi.

Turkiy soʻzlar oʻzak morfemalarning oxirida qator undoshlarning kelishi xarakterli emas. (SGSS, GSS tipi). Hozirgi oʻzbek tilining oʻz ichki taraqqiyoti natijasida bir qator soʻzlarda oʻzak morfemalar oxirida qator undoshlar uchraydi. Bunday struktura SGS va GS strukturali oʻzak morfema va GS strukturali affiks (koʻmakchi) morfemaning kantaminatsiyasi natijasida ikkilamchi struktura sifatida vujudga kelgan. Boshqa tillarda soʻz qabul qilish natijasida esa bunday soʻzlar miqdori orta

boradi. Hozirga o`zbek tili besh yuzga yaqin bir bo`g`inli so`z oxirida undoshlarning 139 xil qator kelish hollari uchraydi.

Bunday so`zlar genetik tomondan ikki gruppaga: 1) o`z qatlam va 2) o`zlashgan qatlamga mansubdir.

Hozirgi o`zbek tilida o`z katlamga mansub bir bo`g`inli o`zak morfema auslautida rs, rk, rch, rt, lk, nch, lt, yt, st, ks singari tovushlarning qator kelish hollari uchraydi. Bular-dan eng ko`p tarkalgan rs (undan ortiq taklidiy so`z o`zagida), ich (yigirmadan ortiq so`z o`zagida), rk (o`ndan ortiq so`z o`zagida), lk (o`nga yaqin so`z o`zagida) kabi undoshlaridir.

Bu qator undoshlardan har biri ma`lum so`z kategoriyasi bilan chegaralangan. YA`ni rt, nt qator undoshlari ko`proq fe`l tarkibida: nch, rk, rch, st qator undoshlari ot (imena) tarkibida: rk, rs, lt, sht qator undoshlari esa tasviriy so`zlar tarkibida keladi.

Ko`rinib turibdiki, o`z leksikaga oid o`zaklar oxirida qolgan ko`pgina qator undoshlarda birinchi o`rinda y, l, n, r kabi sonor undoshlar va ikkinchi o`rinda jarangsiz undoshlar bo`ladi. O`z leksikaga oid bunday o`zak morfema fonetik strukturasi og`zaki nutqda ham to`lalgicha talaffuz qilinadi (ayrim o`zbek shevalari bundan mustasno. Masalan, mankent shevasida tot (adab, orf, torot) uychi shevasida qut (adab, orf, qurt) va boshq.

Hozirgi o`zbek tilida auslautda nd, xd, xs, rg, shg, jx, ft kabi qator undoshlar kelgan bir bo`g`inli o`zak morfemalar asosan o`zlashgan katlamga mansubdir (fors-tojik, arab tillariga). Og`zaki nugqda ko`pincha auslautdagi yuqoridagidek qator undoshlardan biri talaffuz etilmaydi. (ko`proq oxirgi undosh tushib qoladi: rg, hs bundan mustasno), Masalan, go`sh, (go`sht) mush (musht), sus (sust), pas (past va boshq, Ba`zan affiksals

morfemalar ham o`zakning shu variantiga qo`shiladi: nas(t) + ay - paysay, (pasttay emas), sus(t) + ay - susay (sustay emas) va boshq.

O`zbek tilida ham boshqa turkiy tillarda bo`lganidek, unililar haqida gap ketganda, uning bir bo`g`inli so`zlarda qo`llanilishi bilan ko`p bo`g`inli so`zlarning birinchi va keyingi bo`ganlarida qo`llanishini farqlash lozim. CHunki bir bo`g`inli so`z unlisi barqaror va sifat jihatidan mustaqil xususiyatga ega. Ko`p bo`g`inli so`zlarning unilari esa ma`lum ma`noda sintagmatik oddindan belgalanish xarakteriga ega. SHuning uchun bir bo`g`inli so`zlarda (ayniqsa ochiq bo`g`inli) unli fonemalar o`zlarining to`liq sifat va miqdor belgilarini namoyish qiladi. Demak, o`zbek tili unililar sistemasi shu sharoitga qarab belgilanadi. Bu shuni ko`rsatadiki, bir bo`g`inli o`zak morfemalar tarkibida o`zbek tilidagi barcha unililar qo`llaniladi.

Affiks morfemalar tuzilishi

O`zbek tili affiks morfemalarining fonetik (fonologik) strukturasi ham o`zak morfemalar strukturasi kabi quyidagi tiplarga ega: undosh+unli+undosh (-qiz-yotqiz-, qar-boshqar), (unli)+ undosh (m-bolam, im-otim), undosh+unli (qi-chopqi, gi-kuzgi), unli (-a-yash-a, i-boy-i). Bulardan unli-undosh ya`ni G(S) tipi o`zak morfema auslautidagi fonema xarakteriga (unli yoki undosh ekanligiga) ko`ra ikki variantli ya`ni bir morfemaning ikki allomorfi holida reallashdi: unli bilan tugagan o`zak morfemaga S, undosh bilan tugagan o`zak morfemaga GS varianti qo`shiladi.

Affiks morfemalarni shakllantiruvchi unli fonemalar cheklangan. Bunday morfemalar tarkibidagi faqat i, u, a, o fonemalarigina ishtirok etadi.

e, o` fonemalari esa affiksial morfemalar tarkibida ishlatilmaydi. SHu bilan birga affiks morfemalar fonetik strukturasi sifat jihatidan etakchi morfemaning fonetik strukturasi bog`liq bo`ladi (bu haqda singarmonizm bahsida alohida ma`lumot beriladi).

Bo`g`in tuzilishi

So`z yoki morfema tarkibidagi morfonologiya jarayoni ko`p hollarda bo`g`in strukturasi bilan bog`liq bo`ladi. Bo`g`in so`zning fonetik bo`lagi sifatida barcha tillarga xos bo`lgan universaliyadan biridir. SHu bilan birga har qaysi tilda bo`g`in strukturasi boshqa tillardan farq qiladigan o`ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

Turkiy tillarda ibora, gap, so`z birikmalari va ayrim so`zlar strukturasi bo`g`ining ekspirator xususiyatga ega ekanligini va shu orqali boshqa tillar umumiilik kasb etishini ko`rsatadi. Bo`g`in nutqning artikulyatsion-akustik segmentlari bo`g`in hosil qiladigan havo oqimining muskul kuchlanishi bo`linishi bilan bog`liq. SHu bilan birga, bo`g`inlarning allofonlari tarkibida turkiy tillarning o`ziga xos xususiyatlari ham namoyon bo`ladi.

Turkiy so`zlar bir yoki bir necha bo`g`inlardan, bo`g`in esa o`z navbatida bir yoki bir necha allofonlardan tashkil topadi. Bo`g`in va fonema so`z tovush strukturasi asosiy birliklaridir. Fonema minimal birlik sifatida ma`lum fonetik pozitsiya va qurshovga muvofiq holda allofon sifatida reallashadi. SHunday qilib, bo`g`in, so`z tovush strukturasi asosiy birliklaridan biri bo`lib uning tarkibida ham unli, ham undosh fonemalarning allofonlari shakllanadi, Demak, har bir so`z ma`lum pauza bilan ajralgan bo`g`inlarga, bo`g`in esa fonema allofonlariga

bo`linadi.

Turkiy tillarda bo`g`in hosil qiluvchi element unli tovushlar hisoblanadi. SHuiling uchun ham bo`g`in miqdori so`z tarkibidagi unlilar miqdori bilan belgilanadi.

Turkiy so`zlar bo`g`in strukturasi ham xuddi qzak morfema strukturasi kabi quyidagi to`rt tipdan iborat: G, SG, GS va SGS. Turkiy tillar tarixiy taraqqiyotining keyingi etapida ichki taraqqiyot va tashqi ta`sir natijasida bo`g`in strukturasi yana ikki tip - GSS, SGSS tipi bilan boyidi. Natijada turkiy so`zlar bo`g`in strukturasi olti modeli vujudga keldi. Bulardan G, SG- ochiq bo`g`inlar modeli, qolganlari esa yopiq bo`g`inlar modelidir.

Ko`rinib turibdiki, turkiy tillarda bo`g`in strukturasi turkiy o`zak morfema fonetik strukturasi bilan bir xillikka ega (o`zbek tilining taraqqiyot bosqichiga oid baynalmilal so`zlarning SSGS (spravka) tipidagi birinchi bo`g`in modellari bunga kirmaydi. Faqat ikkinchi va undai keyingi bo`g`inlar fonetik strukturasi uni tashkil etgan allofonlarning sifati jihatidan farq qiladi. SHu tufayli morfema va bo`g`inlarning yuqoridagi olti modeli va uni tashkil etgan allofonlar xususiyatlari haqida so`z strukturasi bo`limiga qarang.

Savol va topshiriklar

1. Qadimga turkiy so`zlar necha bo`ganli bo`lgan?
2. Qadimgi turkiy so`zlarda o`zakning fonetik strukturasi qanday bo`lgan?
3. So`z boshi va so`z oxirida qanday fonetik o`ziga xoslik avjud bo`lgan?
4. Anlaut (so`z boshi), auslaut (so`z oxiri) dagi fonetik rivojlanish haqida so`zlang va og`zaki so`zlashuvda turkiy artikulyatsiyaga

moslashtirish yo`lidagi fonetik o`zgarishlarni ayting.

5. Turkiy tillarda bo`g`inning muhim xususiyati va fonetik strukturasi qanday? Bo`g`inning fonetik modellariii ko`rsating.

Adabiyotlar

1. O`zbek tili doimiy anjumani 9-yig`ini materiallari. Toshkent, O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007 yil.
2. Zamonaviy tilshunoslik va xorijiy tillar o`qitishning dolzarb masalalari. Xalqaro konferensiya materiallari. Toshkent. O`zDJTU, 2008 yil.
3. Dmitriev N. K. Foneticheskie zakonomernosti nachala i kontsa slova. Issledovanie po grammatike tyurkskix yazikov. M. 1955.
4. Yunusaliyev B. M. Kirgizskaya leksikologiya. ch.1. Frunze. 1959.
5. Baskakov N.A.Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazikov, M, 1969.
6. Baskakov N. A. Karakalpakskiy yazik. N. Fonetika i morfologiya. M. 1952.
7. Baskakov N. A, Struktura sloga v tyurkskix yazikax. Issledovanie po sravnitelnoy grammatike tyurkskix yazikov. I. Fonetika. 1955.
8. Kononov A. N. O fuzii v tyurkskix yazikax. "Struktura i istoriya tyurkskix yazikov" to`plami, M. 1971.
9. Herbak A. M. Sravnitel'naya fonetika tyurkskix yazikov. L. 1970.
10. Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov.

Fonetika. M. 1984.

11. SHOabdurahmonov SH, Ishayev A, O`zbek shevalaridagi bir fonetik hodisa, "O`zbek tili va adabiyoti", 1965, № 5.

So`z va morfemaning ma`lum qurshovdagi variatsiyalari

A. Agglyutinatsiya jarayonidagi almashinuvlar

Garchi agglyutinativ tillarda o`zak va affiks morfemalarning chegarasi aniq va o`zakka affiks morfemalar qo`shilishi o`zak fonetik strukturasi keskin o`zgartirib yubormasligi tipik bo`lsa ham, ammo bu narsa agglyutinatsiya jarayonida hosil bo`lgan ko`p bo`g`inli so`zlarning o`zak va affiks morfemalari oralig`ida yoki birinchi morfemasi tarkibida fonologik qimmatga ega bo`lmagan turli xil o`zgarishlar ro`y berishi mumkin. Bu o`zgarishlar morfonologik qimmatga egadir. Affiks morfemalarning o`zak morfemaga qo`shilishi natijasida o`zak morfema fonologik sostavida ro`y beradigan o`zgarishlar turkiy tillarda ham mavjud bo`lgan fuziya elementlaridan dalolat beradi. Agglyutinatsiya jarayonida o`zak va affiks morfemalar oralig`ida quyidagi morfonologik holatlarni kuzatish mumkin.

Unlilar almashinuvi.

1. Tor unli. Agar affiks morfema qo`shilayotgan asos qism ikki bo`g`inli bo`lsa, affiks morfema qo`shilgandan so`ng asos qismning ikkinchi bo`g`inidagi tor unli ko`p hollarda nolga aylanadi. Natijada ko`pincha asos qismni ajratishga qiyinchilik tug`diradi. Bu jarayon yopiq bo`g`in bilan tugagan ikki bo`g`inli morfemaga unli bilan boshlangan affiks

morfema qo`shilganda ro`y beradi va quyidagicha almashinuv sodir bo`ladi:

a) **i-o**. Masalan, *og`zaki (og`iz-aki); o`yna (o`yin-a), ayri (ayir-i), ayra (ayir-a), ayrim (ayir-im), o`g`lon (o`g`il-on), sorg`ay (sarig`-ay), chiq (tish, tosh-ik) o`gril (o`gir-il), qayril (qayir-il), bo`yni (bo`yin-i), qorni (qorin-i), o`g`il (o`g`il-i), ik-kov (ikki-av), ikkala (ikki-ala), oltov (olti-ov), (olti-ila) va boshq.*

u-o, masalan, *buyruq (bumur-uq), ulg`ay (ulug`-iy), sovrul (sovrul) va boshq.*

2. **o-a**, Ong, ot, son kabi so`zlarga fe`l yasovchi morfemalar qo`shilganda o`zak morfema tarkibidagi o unlisi a ga aylanadi. Masalai: *ong-angla, ot-ata, son-sana, yosh-yashi, qorin-qarindosh* va boshq. Bu esa o`zak morfema bilan affiksial morfemaning qo`shilib ketishiga asos bo`ladi.

3. **a-o**, a unlisi bilan tugagan morfemaga -k ka i morfemalari qo`shilganda k va v allofonlari ta`sirida bunday almashinuv yuz beradi. Masalan: k allofoni ta`sirida: *tarqa-tarqoq, yara-yaroq (li), chanqa-chanqoq, so`ri-so`roq, ildi-aldoq, tara-taroq, sana-sanoq*; v allofoni ta`sirida: *ishla-ishlov, qishla-qishlov, sayla-saylov, alda-aldov* va boshq.

4. **i-u** . a)k allofoni ta`sirida: *sovi-sovuq, qovi-qovuq, (ko`rpa-quruq) qo`ri-quruq* va boshq.

b) a allofoni ta`sirida: *tani-tamuv, o`qi-o`quv, to`qi-to`quv* va boshq.

5. **o-u**. a) v allofoni ta`sirida: *sovuq-suvuq (dialektal), qovuq-quvuq* va boshq.

Undoshlar almashinuvi

1. **k-g, q-g`**. Q yoki k undoshi bilan tugagan ikki yoki ko`p bo`g`inli so`zlarga egaglik affiksi jarangsiz k na q undoshlari intarvokal

holatda qolib, jarangli korrolyati bilan almashinadi. Masalan: *qiliq-qilig`i*, *baliq-balig`i*, *qiziq-qizig`i*, *sariq-sarig`i*, *chirik-chirigi*, *tirik-tirigi*, *bilak-bilagi*, *tilak-tilagi*, *kichik-kichigi* va boshq.

2. **g`g`-qq**. Masalan: *bog`ga-boqqa*, *toqqa*, *toqqa*, *yog`ga-yoqqa* va boshq.

3. **g-k**. Masalan: *usgan-uskan* (*talaffuzda*) *tokga-tokka* va boshq.

4. **gg-kk**. Masalan: *bargga-barkka*, *eggan-ekkan* (*talaffuzda*) *teggan-tekkkan* va boshq.

5. **i-z, (-ki) (-zi)**. Masalan: *bizni-bizzi* (*Namangan*), *sizni-sizzi*.

6. **n-o (-ni) (-i)**. Masalan: *bizni-bizi*, *sshni-sizi, (-men) (-me) men-meni*, *mening*, *sen-seni*, *sening*.

1. **n-d. (-ni), (-di)**. Masalan: *bizni-bizdi* ("*je*"lovchi), *sizni-sizdi*, *tolni-toldi* va boshq.

8. **i-t. (-ni) (-ti)**: *otni-otti*, *o`tni-o`tti*, (*itni-itti*, *qo`shni-qo`shni* (*marg*), *toshni-toshpsh*,

9. **n-sh. (-ni) (-shi)**. *oshni-oshshi* (*toshk*) *toshni-toshshi* va boshq.

10. **n-r. (-ni), (-rr)**: *korni-korri* (*nam*) *shaxarni-shaxarri* (*nam*, *toshk*) va boshq.

11. **n-l. (-ni) (-li)**: *tolni-tolli* (*nam. toshk*), *shaxarni-shaxarri*, va boshq. *qo`lni-qo`lli*, *yaqinlash-yaqillash-(nam)* (*nam.*, *tashk.*)

12. **n-m (-ni) (-mi)**: *qizimni-qizimmi*, *o`zimni-o`zimmi* va boshq. (*sen-*)+(*sem-*): *senmi-semmi* (*nam*). (*nami.*, *taik*)

13. **n-p (ni-pi)**: *gapni-gappi*, *kapni-koppi* va boshqalar.

14. **r-d (ber-bed)**; *berdi-beddi*, *kurdi-kuddi*, *yurdi-yuddi*, *turdi-tuddi* (*nam*) va botq.

15. **r-m (ber-bem)**: *bermasa-bemasa* (*nam.*)

16. **r-t. (kekir-kekit)**: *kekirdak-kekittak*, *shartta-shatta* (*nam*).

17. **r-l. (bir-bil):** *birla-billa* (nam. toshk).

18. **r-s. (ber-bes):** *bersa-bessa* (nam.)

19. **ri-ni (buri-burin):** *burni-bunni*. (nam., toshk) (o`rn-o`nn):
o`rni-o`nni.

20. **ch-s. (ich-is-):** *ichsa-issa*. (nam.) (kech-kes): *kechsa-kessa*.

21. **t-s. (ayt-ays):** *aytsam-ayssam*, (nam.)

22. **t-o. (sust-sus):** *sust-susay*, (past-pas-): *past-pasay*.

23. **il-o, (qizip-qiz);** *qizil-qizar*.

Savol va topshiriqlar

1. Agglyutinativ tillarda grammatik ma`no ifodalovchi shakllarning xarakterli xususiyati va ularning etakchi morfemaga qo`shilish xususiyati qanday?

2. Agglyutinativ tillarda fuziya elementlari haqida gapiring.

3. Assimilyatsiyada qaysi tovush qaysi tovushni o`z ta`siriga oladi va buning sababi nimada?

Adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslikka kirish (ma`ruzalar matni), - Toshkent: «Universitet», 1999, 1-2-qismlar.
2. Aliyev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan-Toshkent: «O'zbekiston»,1994.
3. Abdullaev F.A.Fonetika xorezmskix govorov.Tashkent,1967.
4. Gulyamov A. G. Ob izuchenii kornya v slovoobrazovanii. "Nauchnaya sessiya AN UzSSR", Toshkent, 1947
5. Gulyamov A. G. O soputstvuyushix yavleniyax pri affiksatsii v uzbekskom yazike. - Nauchnie trudi TashGU. vip. 268, Yazikoznanie i literaturovedenie. Toshkent, 1964.

Singarmonizm

O'zbek adabiy tilida ham ba'zan bir bo'g'inli so'zlarning struktur elementlari - unli va undosh tovushlar o'rtasida tovush qatorlari bo'yicha o'zaro xoslanish hollari ko'zga tashlanadi. Xususan, GS, SGS strukturali so'zlarda tovushlar palatal garmoniyaga muvofiq birikadi: qil, xo'l, g'o'sh; bil, til, jil va boshqa. Ba'zan old va orqa qator variantlari ma'io farqlash funktsiyasini ham bajarishi mumkin. Masalan, tiq-tik.

Bir qator so'z yasovchi va forma yasovchi affiksalar variantivlikka ega. O'zak fonetik strukturasi muvofiq affikslarning variantlaridan biri qo'llanadi. Affikslar variantlari shu fonetik qurshovida biri o'rnida ikkinchisi qo'llanilmaydi. Masalan: -o'k yo -ik (ko'lo'k-kichik), qo', g'o' g'-gi, (choqo', cholg'o', so'zgi), qag'-ga (toqqa, bizga) va boshq.

Bu faktlar turkiy tillar uchun xarakterli bo'lgan singlarmonizm konuniyatining o'zbek tilida ham ayrim o'rinlarda mavjudligini ko'rsatadi. YUqoridagi o'rinlarda fonema (unli va undosh) hamda morfemalarning orqa variantlari fonologik va morfematik qimmatga ega emas, morfonologiyaning o'rganish ob'etidir.

Singarmonizm tovushlar maslashuvining alohida turidir.

Tovushlarining bunday moslashuvi agglyutinatsiya bilan chambarchas bog'liq. Turkiy tillarda so'z va so'z formalari ko'pincha ma'lum affikslar qo'shib yasaladi. Bu affikslarning yasovchi asosga qo'shilishida tartib mavjud. So'z yasovchi affikslar so'zning material qismiga leksik ma'no ifodalovchi qismiga kiradi. SHuning uchun ular forma yasovchi affiksalardan oldin qo'shiladi. Forma yasovchilarning sintaktik munosabat ifodalamaydigan turi sintaktik munosabat ifodalaydigan turidan oldin qo'shiladi: o'zak+so'z yasovchi+sintaktik munosabat ifodalamaydigan shakl yasovchi affiks+sintaktik munosabat

ifodalaydigan shakl yasovchi affiks, Ko`rinib turibdiki, turkiy tillarda so`z leksik va grammatik ma`no ifodolovchi morfemalar bilan cho`zilib boragi. Affikslarning bunday silsilali o`sb borishi turkiy so`zlarning tovush qiyofasini ham shartlab qo`yadi: o`zaro maksimal yaqin bo`lgan so`zlardan tashkil topadi. Tillarning tarixiy tipologik o`rganish natijalari singrmonizm faqat turkiy, fin-ugor tillarga xos ekanligani ko`rsatadi.

Turkiy tillardagi bu nodir hodisa faqat turkologlarningana emas, bir qator umumiy tilshunoslik mutaxassislarining ham diqqatini jalb qiladi.

A.A.Reformatskiyning fikricha, turkiy tillarda singarmonizm oddiy fonetik hodisa-assimilyatsiyaning bir turigina emas, balki morfologik sathga ham daxldor bo`lgan fundamental struktur-tipologik hodisadir.

I. A. Boduen de Kurtene ham turkiy tillardagi bu xususiyatga to`xtalib, unlilar garmoniyasining so`z bo`g`inlarini bog`lovchi tsement vazifasini bajarishini, xind-evropa tillarida bunday vazifada leksik urg`u kelishini ta`kidlaydi. Bu esa ko`p bo`g`inli so`zlarda birinchi bo`g`inning boshqa bo`g`inlarga nisbatan kuchli bo`lishini, keyingi bo`g`in tovushlarining esa birinchi bo`g`in tovushlariga moslashish lozimligini ko`rsatadi. SHuning uchun ham: "So`zning birinchi bo`g`inining (o`zak) boshqa bo`g`inlarda ustunligini ifodalashning kul`minatsion nuqtasi unlilar garmoniyasi hisoblangan", - deydi A, M. SHERbak.

Turkiy tillarda birinchi bo`g`in boshqa bo`g`inlardan kuchli, shuning uchun bo`g`inlarning tovush sostavi biritschi bo`g`inga moslashadi. V. A. Bogoroditskiy o`zak vokalizmining ergash morfemalarga nisbatan afzal tomoni borligini u boshqa tovushlar ta`sirisiz, o`zining individual artikulyatsiyaga ega bo`lishini, o`zak morfema unlilarning palatallik-palatal emaslik, lablanganlik-lablanmaganlik belgalari bilan bog`liq ravishda o`zgaradigan ikki asosiy tip yo keng -yo tor unlilardan

tashkil topishini ko'rsatadi. SHunga muvofiq u turkiy tshshar o'zagida klassik sakkizta unli (a), o`-i, o-o, u-u va affikslar tarkibida unilarning ikki asosiy tipini keng a(s) va tor o` (i) unilari mavjudligini ko'rsatadi.

N. S. Trubetskoy ham turkiy tillardagi uililar garmoniyasini e'tiborga olgan holda yuqoridagidek sakkizta fonologik kimmatga ega bo'lgan unililar sisitemasi mavjudligi va ular faqat birinchi bo'gan uchungina xos (relevant) ekanligini, keyingi bo'g'inlar unlisining tembr belgisi o'zidan oldingi bo'g'in unililar ostida ularga muvofiqlashuvini, demakki, tembr oppozitsiyasi neytrallashuvini ta'kidlaydi.

SHunday qilib, V.A. Bogoroditskiy va N. S. Trubetskoy asarlarida singarmonizm tabiati izchil nazariy talqinini topdi. Singarmonizm haqidagi keyingi ishlarining vujudga kelishida bu asarlar nazariy asos rolini o'tadi.

Turkiy tillardagi singarmonizmga bag'ishlangan yangi tadqiqotlar, ayniqsa, eksperimental tadqiqotlar simgarmonizmning faqat unilarga emas, undoshlarga ham ta'sir etadigan hodisa ekanligani ko'rsatadi. Unililar garmoniyasi asosiy, undoshlar garmoniyasi zsa unga ergashuvchidir.

Demak, turkiy so'zlar unililar garmoniyasi bilangina emas, undoshlar garmoniyasi bilan ham "tsementlanadi". Unli va undoshlarning o'zaro tembral muvofiklashuvi so'zga teng bo'lgan bir umumiy kompleksni tashkil etadi. Singarmonizm turkiy so'zlarni shakllantiruvchi, uning butunligini ta'minlovchi nutq oqimida so'z chegarasini ko'rsatuvchi vositadir. Bu jihatdan singarmonizm leksik urg'u bilan funktsiyadoshdir, CHunki leksik urg'u ham xuddi shu funktsiyalarni bajaradi. Turkiy tillarda ham so'zlar urg'uli va urg'usiz bo'g'inlardan tashkil topadi va urgu ekspirator harakteriga ega bo'lib, so'zning oxirga bo'g'iniga qarab ko'chib yuradi.

Turkiy tillarda so'zni shakllantiruvchi va uni bir-biridan ajratuvchi

vosita sifatida singarmonizm va urg`u ishlatilar ekan, ularning qaysisi bu funktsiyani bajarishga asosiy aktsent vosita hisoblanadi yoki ikkisi ham funktsional teng huquqlimi?

Turkiy tillar tadqiqotchilari bu savolga turlicha javob beradilar. Xususan A. Junusbekov singramonizm va leksik urg`uning funktsional bir xilligi qozoq tilida keyingisining mavjud bo`lishini inkor qiladi, deydi. U qozoq tilida asosiy komponenti cho`ziqlik bo`lgan ritmik urg`uning mavjudligini ko`rsatadi.

Turkiy tillarda ham boshqa har qanday tilda bo`lgani kabi, bir qancha prosodik vositalar mavjud bo`lib, ularning biri asosiy, qolganlari qo`shimcha, fakul`tativ hisoblanadi. Bir qator turkiy tillarda singramonizm asosiy, leksik urg`u esa fakul`tativ prosodik vosita sanaladi. Singarmonizm izchil bo`lgan turkiy tillarda uning roli kuchsiz, aksincha singarmonizm qonuniyati uzilgan tillarda esa urg`uning roli kuchli bo`ladi.

Uzbek tili uchun singarmonizm o`tkinchi hodisa bo`lgan-ligi sababli, bu tilda anglash (pertseptiv) va ajratish (delimitativ) funktsiyasini leksik urg`u bajaradi. Singarmo-nizm elementlari esa qadimdan amalda bo`lgan xodisaning qol-dig`i sifatida namoyon bo`ladi.

Uzbek tilida ayrim affiksial morfemalarning bir necha palatal (old qator va orqa qator) va akustik (jarangli va ja-rangsiz) allomorflari mavjud. Bu allomorflar o`zak morfema-ning fonetik xususiyatiga mos holda qo`llaniladi.

Demak, bu hodisa morfonologiyaning o`rganish ob`ektidir. Masalan, jo`nalish kelishigining - **ga**, **-ka**,**-ga**,**-a** variantlari mavjud. Ularning har qaysisining qo`llaniladigan shart-sharoitlari bor. SHuningdek, chiqish kelishigi akustik variantga: **(-dan tan) -gan-gacha;gina-guncha** kabi affikslar palatat va akustik variantlarga ega. *O`simlikka, xalqqa,*

boqqa; tikkan, uqqan, tekkani, chiqqani, tikkach, oqqach, ko`kkacha, qishloqqacha, tekkuncha, boqquncha va boshq). Ammo bunday xususiyatlar barcha affikslar uchun xos emas. Xususan, jo`nalishdai boshqa kelishik formalari palaxal allomorflarga ega emas. egalik, ko`plik affikslari ham old va orqa qator variailtariga ega emas.

Bir qator yasovchi affikslarda xam palagal variantlilik kuzitilishi mumkin. Masalan, **-ik** (*kichik*) **-iq** (*-qiliq*). **-ki** (*tepki, kechki*), **-qi** (*qichitqi*), **-kir**(o`tkir, *keskir*), **-qir** (*topqir, chopqir*).

-kich (**-zich**) (*suzgich, bilgich, ko`rsatkich*), **-qich** (*bosqich, qisqich*), **k-** (*elak, bezak*), **q-**(*sanoq, taroq*) va boshqalar.

Ayrim ikki bo`g`inli so`zlar tarkibida labial garmoniyaning ham qoldig`i uchraydi: Masalan: *ulug`*, *buyuk*, *ulush*, *kun*, *kuz*, *uchqkun*, *turg`un*, *guvur-guvur*, *yugur*, *bug`u*, *tuyg`u* va boshq.

Biroq singarmonizmning bu ikki ko`rinishi ham hozirgi o`zbek tili uchun qadimgi konuniyatning ichi holos.

O`zbek tilining ayrim tevalarida masalan, Namangan shevasida singarmonizmning boshqacha ko`rinishi, affikslarning o`zak fonetik xususiyatiga moslashishi emas, balki o`zak unilarning affiks unililari harakgeriga moslashishi, ya`ni oldiga qarab moslashish emas, orqaga moslashish kuzatiladi.

Bunday moslik umlaut hisoblanadi. Umlaut uyg`ur tili va hozirgi o`zbek tilining Namangan va Paxtaobod shevasiga xosdir. Umlautning uch ko`rinishi -palatal, labial, lingvial turlari mavjud. Birinchi turda birinchi bo`g`inning orqa qator keng unlisi keyingi bo`g`inidagi tor lablanmagan unli ta`sirida old qator unliga aylanadi. Masalane, Namangan shevasida tosh "tosh", teshi" toshi". Ikkinchi turda birinchi bo`g`inning keng lablanmagan unlisi keyingi bo`g`inning lablangan unli larning ta`sirida

lablashadi. Masalan, paxta-obod shevasida tumur "temir", qo`shiq "qoshiq" va boshq.

Uchinchi turida og`izning ochilishi darajasi o`zgaradi. Keyingi bo`g`inning tor i unlisi ta`sirida birinchi bo`g`inning old qator keng unlisi o`rta keng unliga aylanadi. Masalan, uyg`ur tilida kesish (kasish); u, u ta`sirida, o, o unlilari ham torayishi mumkin. Masalan mushuk-moshuk, chonqur-chunqur dialekt.

Umlaut barcha turkiy tillarda ma`lum darajada uchraydi. Umlaut singarmonizmga teskari proportsional bo`lib, turkiy tillarda nisbatan keyingi xodisadir. Ayrim tilshunoslarning fikriga ko`ra, umlaut assimilyatsiyaning keng rivojlanishi va o`ziga xos urgu zaminida vujudga kelgan. E. D. Polivanovning fikricha, umlautning kelib chiqishi singramonizmning kuchsizlanishi bilan bog`liq.

A.M.Herbak esa assimmilyatsiya jarayoni yo`nalishining o`zgaruvi natijasida xosil bo`lgan bo`lishi kerak, deydi. Bunga morfologik elementlarning unifikatsiyasi qulay imkoniyat yaratgan.

Savol va topshiriqlar

1. Singarmonizm nima va uning qanday turlari bor?

2. Turkiy tillardagi singarmonizm hodisasi haqida I. A. Boduen de Kurtene, N. S. Trubetskoy va A. Reformatskiylar qanday fikr yuritadi? Ularni sharxlab bering.

3. Singarmonizmning asosiy funktsiyasi nima?

4. Singarmonizm bilan urg`uning funktsional tengligi va ularning o`zaro munosabati haqida gapiring.

5. Singarmonizmning morfonologiyaga qanday aloqasi bor?

6. Umlaut nima va uning singarmonizm bilan munosabati qanday?

Adabiyotlar:

1. Mirzaqulov M. Grammatika o'qitishning lingvistik asoslari. - Toshkent: «O'qituvchi» 1994.
2. O'zbek filologiyasining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy nazariy anjumani materiallari. Namangan. 2006 yil.
3. Trubetskoy N. S. Osnovi fonologii M., 1960
4. Polivanov E.D. Prichini proisxojdeniya umlauta. Sbornik Turkestanskogo vostochnogo instituta v chest prof, A.E. SHmidta, 1923.
5. Reformatskiy A.A. Ierarxiya fonologicheskix edinits i yavleniya singarmonizma, "Issledovaniya po fopologii" kitobi. 1996.
6. Herbak A, M. Sravnitel'naya tyurkskix yazikov. L., 1970
6. Djunusbekov A. Singarmonizm v kazaxkom yazikeyu. Alma-Ata, 1980
7. Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov. Fonetika. M., 1984
8. CHerkasskiy M.A. Tyurskiy vokalizm i singarmonizm. M., 1965
9. Atamirzaeva S. Zvukovoy sostav namanganskogo govora uzbekskogo yazika AKD., 1963
10. Atamirzaeva S. Eksperimental'no-fopeticheskoe issledovanie namanganskogo govora uzbekskogo yazika; Tashkont, 1974

B. Kompozitsion soʻz yasaliş va analitik shakl yasaliş jarayonidagi almashinuvlar

Aktsent-ritmik tuzilishining oʻzgaruvi

Kompozitsion soʻz yasaliş va funktsional forma yasaliş jarayonida komponentlar leksik-grammatik va intonatsion bir butunlikni tashkil etadi. Komponentlarning intonatsion bir butunligini taʼminlashda urgʻu, bir qator morfonologik jarayonlar, tovush almashuvi, fonetik qayta boʻlinish kabi hodisalar xizmat qiladi.

Qoʻshma soʻz va soʻzning formasi tarkibiga kirgan komponentlar bir umumiy birlashtiruvchi urgʻu ostida birlashadi. Bunday urgʻu ikkinchi komponentni oxirgi boʻgʻimida boʻladi. Asosiy urgʻuli oldinigi boʻgʻinlar ikkinchi va uchinchi darajali urgʻularga ega boʻladi. SHunga muvofiq, asosiy urgʻuli boʻgʻindan boshqa boʻgʻinlarning barcha intonatsion gradatsiyasi - uning choʻziqligi, bunday boʻgʻinlarni tashkil etuvchi unli va undoshlarning talaffuzi aniqligi va boshqalar ham oʻzgaradi. Masalan, *oʻttiz- oʻttiz ikki, kirib kel* va boshq.

Qoʻshma soʻz va uning analitik formasi strukturasi bunday aktsent-ritmik bir butunligi ularni tashkil etgan komponentlar oʻrtasida turli xil morfonologik oʻzgarishlarning yuz berishiga olib keladi.

1. Har ikki komponent yopiq boʻgʻin boʻlganda komponentlar oraligʻida morfonologik oʻzgarishlar roʻy beradi.

n-m (<i>oʻn-oʻm</i>)	: <i>oʻnbesh - oʻm besh.</i>
B-v (<i>bog-vo</i>)	: <i>bel bog - belvo</i>
ch-s (<i>uch-us</i>)	: <i>uch soʻm – ussoʻm</i>
<i>sh-s</i> (<i>besh-bes</i>)	: <i>besh soʻm-bessoʻm</i>
b-o (<i>boʻl-oʻl</i>)	: <i>bor boʻl-borul (boroʻling)</i>

<i>li-o(olib-op)</i>	: <i>olib kel- opkel (Andijon)</i>
k-p (<i>qo`y-po`y</i>)	: <i>ichib ko`y ichippo`y (Q. qolp) va boshq.</i>
n-m (<i>o`n-o`m</i>)	: <i>o`n bir o`m bir.</i>

2. Birinchi komponent ochiq bo`g`in bilan tugab, ikkinchi komponent yopiq bo`gan bilan boshlanganda:

b-v (*ber-ver*): *bora berdi-boraverdi, yoza ber-yozaver, kela ber-kelaver* va boshq.

(*-bil-vil*): *ne bilay-nevlay* va boshq.

k-g (*kun-gun*): *bu kun - bugun* va boshqalar.

Uy-o (*shu-sh*)-yer): *shu er- sher (Jizzax).*

3. Birinchi komponent yopiq bo`g`in bilan tugab, ikkinchi komponent ochiq bo`g`in bilan boshlanganda ham tovush almashinish, ham bo`g`inlar strukturasi fonetik qayta bo`linish hodisasi ro`y beradi.

e-i (*-emish-imish*): *kelar emish-kelarmish*

i-o (*mshi-mish*): *borganmshi.*

e-o (*-ekan-kkan*): *kelar ekan-kelarkan.*

b-v (*bosib-bosiv*) *bosib oldi-bos (i) voldi (Qovun sor-ti).* :

Sotib oldi-Sot (i) voldi (atoqli ot) va boshqalar.

Fonetik kayta bo`linish:

qayn ona - qay-no-na (qkaynona) qayna.

qayn ota - qay-na-ta (qaynata)

qayn ini - qay-ni-i (qayni)

4. Birinchi komponent ochiq bo`g`in bilan tugab, ikkinchi komponent unli bilan boshlanganda ham tovush almashinuvi va fonetik qayta bo`linish yuz beradi:

ee-e: *ne etoy-netay*

aa-a: *Mirzaahmad-Mirzahmat, na aylay-naylay*

a-o: *katta ota –kattaata*

bora olmoq-borolomoq, beka oyim-bekoyim (begoyim) i-o:

olti oziq- oltioziq (to`qqiz yoshli ot), etti oziq ettoziq (o`n yoshli ot), yoshi ulug`-yashulli (Xorazm),

a-o: *ho`ja eli -xo`jeli va boshq.*

Reduplikatsiya jarayonidagi almashinuvlar

Har qanday reduplikatsiyada umumiy (tsepentlovchi) urg`u birinchi komponentda bo`ladi. Ikkinchi darajali urg`u ikkinchi komponentning oxirgi bo`g`iniga tushadi. Juft so`zlarning anchagina qismida komponentlardan biri ikkinchisining morfonologik o`zgarishiga uchragan varianti hisoblanadi.

Birinchi komponent o`zgaradi:

tun-s; *bus-butun*

tta-p: *kap-katpsh*

shil-m: *yam-yashil*

k-m: *ko`m-ko`k*

zil-p: *qip qizil*

ra-p: *qop-qora*

k-p: *op-ok (oppoq)*

rik-p;; *sap-sariq va boshq.*

II. Ikkinchi komponent o`zgaradi:

y-p: *yog`och-pog`och, yilt-pilt*

m-s: *mol-sol, mot-sot, temir-semir*

m-p: *mol-pol, mosh-posh*

y-m: *yo`riq-mo`riq*

t-m: *tugun-mugun*

k-m: *qiyshiq-miyshiq*

t-p: *temir-pemir* va boshq.

Ko`rinib turibdiki, reduplikatsiya jarayonida almashinuvchi allofon sifatida faqat chegaralangan tovushlar qatnashadi. Ular ko`proq m, p, s, allofonlar hisoblanadi. Bu sanokli allofonlar son-sanoqsiz tovush yoki tovush kompleksi o`rnida kela oladi. SHuning uchun ham reduplikatsiya modelini hosil qiladi.

YUqorida bayon qilinganlardan shu narsa ma`lum bo`ladiki, faqat morfemalar qurshovidagi tovush almashinuvlar, ya`ni bir umumiy morfemaning turli alloformalarini yuzaga chiqarishda xizmat qiluvchi almashinuvlarga morfonologiyaning o`rganish ob`ekti bo`ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qo`shma so`z va so`zning analitik formalari komponentlarining intonatsion bir butunligani ta`minlovchi qanday vositalar bor?
2. Qo`shma so`z va so`zning analitik komponentlari tarkibida qanday morfonologik o`zgarishlar ro`y beradi?
3. Reduplikatsiya jarayonida qanday morfonologik o`zgarishlar ro`y beradi?

Adabiyotlar:

1. O`zbek tili doimiy anjumani 9-yig`ini materiallari. Toshkent, O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007 yil.
2. Zamonaviy tilshunoslik va xorijiy tillar o`qitishning dolzarb masalalari. Xalqaro konferensiya materiallari. Toshkent. O`zDJTU, 2008 yil.

3. G`ulomov A. O`zbek tilida urg`u. Toshkent, 1948
4. Reshetov V. V. Uzbekskiy yazik, I Vvedenie. Fonetika. Toshkent , 1959.
5. Kononov A. N. Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika. M. L., 1960
6. G`ulomov A., Tixonov A. N. Kungurov R. O`zbek tilining morfem lug`ati, Toshkent, 1977
7. Grammatika sovremennogo bashkirskogo yazika. M., 1981
8. Zakiev M. 3. O tyurkskoy morfonologii. // Sovetskiy tyurkologiya. 1984, №1
9. Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov.
10. Fonetika. M., 1984.
11. Nurmanov A. O`zbek tilining fonologiya va morfonologiyasi Toshkent, 1990.
12. Abduazizov A. O`zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi Toshkent, 1992.

MUNDARIJA:

TILNING SISTEMA EKANLIGI.....	4
Tilning belgilar sistemasi ekanligi	14
Belgi turlari.....	18
Belgi tuzilishi	20
Lingvistik belginiig moddiyligi.....	31
Lingvistik belgida motivatsiya masalasi	33
Belgi va til birliklari	37
Funksional tomoni.....	46
Fonetika va fonologiya.....	46
Fonologiya birligi.....	48
Peterburg fonologiya maktabida fonema nazariyasi	50
Moskva fonologiya maktabida fonema nazariyasi.....	53
Praga tilshunoslik maktabida fonema nazariyasi	55
O`zbek tili fonemalarining farqlovchi belgilari.....	59
Unli fonemalar sistemasi	60
Undosh fonemalar sistemasi.....	62
O`zbek tili morfonologiyasi. Morfologiya tilshunoslikning alohida bo`limi sifatida	67
Morfologiyaning o`rganish ob`ekti	72
Morfonologiya birligi. Morfonema va subforma haqida.....	74
SO`Z TUZILISHI SO`Z VA BO`G`IN TUZILISHI	81
Affiks morfemalar tuzilishi	84
Bo`g`in tuzilishi.....	85
So`z va morfemaning ma`lum qurshovdagi variatsiyalari	88
A. Agglyutinatsiya jarayonidagi almashinuvlar	88
Unlilar almashinuvi.	88
Undoshlar almashinuvi.....	89
Singarmonizm	92
B. Kompozitsion so`z yasash va analitik shakl yasash jarayonidagi almashinuvlar	99
Aktsent-ritmik tuzilishining o`zgaruvi	99
Reduplikatsiya jarayonidagi almashinuvlar	101

